

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

JAHON ADABIYOTI TARIXI

FANIDAN

TAYANCH MA‘RUZALAR MATNI

Tuzuvchi: katta o‘qituvchi I.JABBOROV

QARSHI-2013

1-MAVZU: JAHON ADABIYOTI TARIXI FANI PREDMETI VA MAZMUNI

Reja:

1. Kirish. Mif va jahon adabiyoti.
2. Antik adabiyot va madaniyatning istiqloq davri uchun tarixiy ahamiyati.
3. Antik dunyo va Markaziy Osiyoning madaniy aloqalari.
4. Antik dunyoning jahon madaniyatiga ta'siri.

Adabiyotlar:

1. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., Ma'naviyat, 2008.
2. Alimuhamedov N. "Antik adabiyot tarixi". T.: "O'qituvchi". 1975 yil.
3. Sulaymonova F. "Sharq va G'arb". T.: "O'zbekiston". 1997 yil.
4. Kun N.A. "Qadimgi Yunoniston afsona va rivoyatlari". Toshkent. 1983 yil.
5. Mahmudov M. "Hayrat va tafakkur". Toshkent. G'.G'ulom. 1990 yil.
6. SH. Normatova. Jahon adabiyoti. T., CHo'lpon, 2008.

Taxminan bundan 2750-2850 yillar muqaddam Yevropa tuprog'idagi kichkina mamlakatlardan biri – Yunoniston (Gretsiya) da yozma badiiy ijodning dastlabki namunalari yuzaga kela boshladi. Yunonistonda tug'ilib, keyinchalik yuksak kamolot bosqichiga ko'tarilgan bu adabiyot eramizdan avvalgi III asrda Rim madaniyatining barpo etilishida, tarkib topishida ham katta o'rnak bo'ladi. Yer yuzidagi ana shu ikki qadimiy xalq yaratgan madaniyat, san'at va adabiyot antik madaniyat, antik adabiyot deb ataladi. Lotin tilidagi "antik" so'zining ma'nosi qadimgi demakdir. Lekin bu atamaning yunon – rim adabiyotlarigagina tatbiq etilishi unchalik to'g'ri emas, chunki madaniyatning asl beshigi Sharq mamlakatlari bo'lgan: dastlabki adabiy yodgorliklari, oldin Misr, Eron, Xitoy, Hindiston, Bobil kabi mamlakatlarda yaratilgan. Binobarin, yunon-rim jamiyati, san'ati va adabiyotiga nisbatan qo'llanib kelinayotgan "antik" so'zini faqat Yevropaga nisbatan anglamok darkor. Chunonchi, yunon adabiyoti hech bir xalqning adabiyotiga suyanmasdan mustaqil ravishda paydo bo'lgan adabiyotdir. Hozirgi zamon adabiyoti olamida mavjud bo'lgan badiiy shakllarning ko'pchiligi, uslub vositalari shu xalqning kashfiyotidir.

Yunon adabiyotida mifning roli benihoyat katta. Yunon mifologiyasining ming-ming yillik tarixi bor. Xayoliy tushunchalardan hosil bo'lgan afsonalarni – miflar, ularning yig'indisini mifologiya deb ataladi. Yunon kishilari tasavvuri yer yuzining hukmronlari qabilida Olimp ma'budalarini yaratadi.

Zevs – momaqaldir oq hamda bulutlar sultoni, ma'budlar ma'budi; Poseydon – dengizlar hukmroni; Aid – oxirat hoqoni; Zevsning rafiqasi Gera – osmon ma'budasi, kelin-kuyovlar rahnomosi. Geraning birinchi o'g'li Gefest – otash ma'buda, temirchilar piri; Ikkinchi o'g'li Ares – qonli urushlar ma'budi; Zulmat ma'budasi Latona, uning o'g'illari Apollon – yorug'lik, san'at, she'riyat, muzika ma'budi. Uning singlisi Artemida – qamar ma'budi, o'rmonlar va u yerda yashovchilar ma'budasi. Afina – shaharlar homiysi. Olimp sultonining Zebo qizi Afrodita va uning o'g'li Erot – sevgi va go'zallik ma'budi. Germes ma'budlar jarchisi, savdogar va sayyohlar homiysi. Gelios – Quyosh ma'budi.

Ma'budlarni odam qiyofasida tasavvur etish, mifologiyani hayotga yaqinlashtirdi.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng ko'plab sohalarga, xususan madaniyat va adabiyotga bo'lgan e'tibor ortdi. Shu jumladan, xorijiy mamlakatlar tili va adabiyotiga ham munosib o'zgardi. Chunki jahon xalqlari madaniy va ma'naviy boyliklari bilan tanishish o'z milliy merosimizni munosib baholash imkonini beradi. Bu borada jahon adabiyotini o'rganish, ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon adabiyotiga mansub asarlar insoniyat taraqqiyotining eng asil durdonasi hisoblanadi. Antik dunyodan to bugungi kunimizgacha yaratilgan asarlar mukammal tarixiy voqealarni ko'z oldimizda namoyon etib kelayotgani sir emas. Bu asarlarni nashr ettirish yuzasidan mamlakatimizda keng qamrovli ishlar davom etmoqda.

G'arbdagi qadim antik madaniyatning maydonga kelishida Xorazm sarhadlarida ko'z ochgan zardo'shtiylik ta'limotining hal qiluvchi ta'sirini kuzatish mumkin. O'z navbatida qadim G'arb antik madaniyati insoniyat tafakkurining yangi bir sahifasi bo'lib, tarixga kirdi. Biroq 1000 yil

o'tar-o'tmas, u ham yo'qlikka yuz tutdi. Shunda o'rta asr islom fani unga yangi hayot baxsh etdi. Aristotel, Platon kabi o'nlab daholarni Arastu, Aflotun, nomlari bilan Yevropaga qayta tanitdi. Ayni paytda Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi tafakkur mash'allarini dunyoga berdi. Xullas, O'rta Osiyo bilan Yunoniston o'rtasidagi iqtisodiy – madaniy aloqalar juda qadim zamonlardan boshlangan.

Madaniyat osmoni endigina yorishib kelayotgan o'sha uzoq o'tmishda yunon-rim xalqlari qo'li bilan qurilgan ulug'vor va ko'rkam madaniyat obidalarini hanuz mag'rur bosh ko'tarib turibdi: Gomer dostonlari, Sofokl tragediyalari hanuz kitobxonlar qalbiga ma'naviy ozuqa bag'ishlab kelmoqda.

2-MAVZU:ENG QADIMGI YUNON ADABIYOTI.

Reja:

- 1.Xomerning "Iliada" va "Odissey" dostonlari.
- 2.Dostonning mifologik elementlari.
- 3."Odissey" va "Alpomish" dostonlari o'rtasidagi o'zaro yaqinlik masalasi.
- 4.Xomer masalasi.
- 5.Gesid – didaktik epos yaratuvchisi.

Adabiyotlar:

1. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kkuch. T., Ma'naviyat, 2008.
- 2.Alimuhamedov N. "Antik adabiyot tarixi". Toshkent. "O'qituvchi". 1975 yil.
- 3.Komilov N. "Tafakkur karvonlari". Toshkent. "Ma'naviyat". 1999 yil.
- 4.Xomer. "Iliada". Toshkent. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1988 yil.

Qadimgi yunon yozma adabiyotining bizgacha yetib kelgan yakkayu-yagona yozma namunasi "Iliada" va "Odissey" dostonlaridir. Gomer degan ulug' shoirning nomi bilan bog'liq bo'lgan har ikkala poemaning mavzusi Troya afsonalaridan, ya'ni yunonlar bilan troyaliklar o'rtasida bo'lib o'tgan urush rivoyatlaridan olingan. Ilm ahllarining aytishlaricha, yunonlarning troyaliklar ustiga bostirib kelishlari tarixiy voqea bo'lib, eramizdan taxminan XIII-XII asr ilgari yuz bergandir. Ana shu urush haqidagi rivoyatlar yig'indisidan yunon mifologiyasining "Troya urushi afsonalari" deb ataluvchi turkumi yuzaga kelgan. "Iliada" da urushning o'ninchi yilida bo'lib o'tgan muhim bir hodisa tasvir etilgan. Troyaning ulug' pahlavoni Gektorning o'limi bilan asar voqealari nihoyasiga yetadi.

Qadimgi yunonlar Troya shahrini "Ilion" deb ham ataganlar. Binobarin, "Iliada" dostonining nomi ostida "Ilion qissasi", "Ilionnoma" degan ma'nolarni anglamoq lozim. Iliada dostoni 15700 misradan iborat juda kattakon asar. Qadimgi olimlar poemani 24 bobga – qo'shiqqa bo'lganlar. Asar voqealari tavsifiga kirishdan oldin, shoir ilhom parisiga murojaat qilib, Axill g'azablarini kuylashda ulardan madad so'raydi. Poemaning birinchi qo'shig'i ana shu g'azabning sabablariga bag'ishlangan. "Odissey" dostonida jafokash Odisseyning o'z vataniga qaytishi va safar mobaynida uning boshidan kechgan mushkulotlar, uchragan ajoyibot va g'aroyibotlar - asarning asosiy mavzusidir. Odisseyning bu sargardonchiliklari rosa o'n yilga cho'zilib ketgan bo'lsa ham, asarda oxirgi qirq kuni hikoya qilinadi.

"Iliada" va "Odissey" dostonlarining ushbu xususiyatlari mazkur asarni yaratgan adibning yuksak mahorati, san'atkorligi shohididir.

Gomer asarlarining bosh qahramonlari faqatgina beqiyos pahlavonlar emas, shuningdek, ma'budlar nasliga mansub barkamol shaxslar ham bo'lganlar. Olimp tog'ining hukmronlari har doim pahlavonlarga hatto mangu hayot ham bag'ishlaydilar. Dostonlarda bir qancha ma'budlar ishtiroki asar voqealarini yanada jonlantirib yuboradi. "Odissey" dostonida Poseydon ma'budining harakatlari o'rinli qo'llangan va asarga juda katta shuhrat keltirilishida miflarning roli ham beqiyos yunon kishilari tabiatdagi hamma jonli narsaga ma'budlar ta'siri natijasidagi hodisa deb qarashi asarda ko'rsatib o'tilgan.

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek badiiy vositalarning hammasi Gomer poemalariga ajoyib hayotiylik bag'ishlaydi, kishi asarlarni o'qir ekan, tasvir etilgan hodisalarni va qahramonlarning qiyofasini o'z ko'zi bilan ko'rgandek bo'ladi. Mana shu xususiyat O'rta Osiyo xalqlarining mardlik, bahodirlik haqidagi ajoyib dostonlaridan biri "Alpomish" misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Alpomish dostonida ham Gomer poemalarida bo'lganidek o'xshatishlar juda muhim o'rin tutadi. O'xshatishlar bahodirlarning kuch-quvvatiga, jasoratiga, qurol-aslahalariga, ayollarning husn-jamoliga nisbatan ishlatiladi. Gomer poemalari bilan "Alpomish" dostoni o'rtasida faqat badiiy vositalarning yaqinligi jihatdangina emas, hatto mazmunning o'xshashligi jihatdan ham mushtaraklik bor. O'zbek xalqi dostonining qahramoni Alpomish ham xuddi Odissey singari dushmanlardan qasos olish niyatida uzoq safarga ketadi. Bu asarlar o'rtasidagi yaqinliklarni faqatgina Yunon va O'rta Osiyodagi ijtimoiy hayotning ma'lum tarixiy sharoitlarida bir-biriga yaqin bo'lganligi bilan izohlash mumkin.

Gomer yashagan davrni aniqlash borasida ham juda katta qiyinchiliklarga duch kelamiz. Gomer shuhrati antik dunyoda shunchalar keng tarqalgan ediki, butun yunon olami bu zotni o'zining milliy iftixori, shoirlar sultoni deb bilganlar.

Fridrix Avgust Volf nemis olimi Gomer dostonlariga shubha bilan qaraydi. G.V.Nich Gomer dostonlarini o'rganib yagona bir kishining ijodi mahsuli deb aytadi.

Rus tanqidchisi Belinskiy ham Gomer ijodiga yuqori baho berib, "uning badiiy dahosi xalq rivoyatlari, qo'shiqlari, adabiy parchalarning dag'al rudasini sof oltin qilib bizga yetkazib bergan" deydi. Gomer dostonlari V-IV asrlarning ulug' tragediyanavistlari Eseil, Sofokl, Evripid uchun asosiy manba bo'lgan.

Xullas, og'zaki xalq ijodining bitmas-tuganmas chashmalaridan to'yib-to'yib suv ichgan va o'z navbatida shu adabiyot zaminiga tomir otgan Gomer dostonlarining badiiy yetukligi, ularda ifoda etilgan mardlik va vafodorlik, matonat va zakovat, himmat va saxovat tuyg'ulari, tug'ilib o'sgan yurt kuyida hayotning jamiki zarbalariga bardosh berish g'oyalari – asarlarga hayot bag'ishlaydi.

VIII asrning oxiri VII asrning boshlariga kelib sotsial tabaqalanish vujudga keldi. Bu esa Aristokratlar va qullar sinfini vujudga keltirdi. Bir-biriga zid ikki toifa guruhning qarashlari bir xil emas edi. O'z zamonasidan norozi bo'lgan dehqon ommasi uzoq patriarxal davrlarni qumsaydi. Mana shu kayfiyatlar tamomila yangi adabiy janrni – didaktik eposni dunyoga keltirdi.

Didaktik eposning yunon adabiyotidagi eng birinchi namunasi Gesiodning "Mehnat va kunlar" poemasidir. Gesiodning poemasi inson mehnatining ulug'ligi, adolatning barqarorligi va mehnat ahlining tirikchiligi yo'lida uchraydigan turli-tuman masalalar haqida aytilgan nasihatlar shaklida yozilgan asardir.

Gesiod yer yuzida yashagan insonlarni besh avlodga bo'ladi. Birinchi davr yer yuzining oltin davrida yashaydi. Ular tunu-kun uyin kulgida yashaydi. Kumush davrida esa ular bebosh bo'lib ma'budlarga sig'inmaydi. Shuning uchun Olimp hukmdori ularni yer qa'riga kiritib yuboradi. Kumush davridan keyin mis davri boshlanadi. Bu kishilar mehrdan yiroq, jang va qon to'kishdan boshqa narsani bilishmaydi va bular ham o'limdan qochib qutulmaydi. To'rtinchi davr mardumaydonlar davri deb ataydilar. Bular oldingilardan rahmdilroq edilaru, ammo ular Troya ostonalarida o'lib ketadi. Gesiod o'zi yashagan davrni pastkashlik, zulm hamda adolatsizliklar davri deb Temir davriga kiritadi.

Gesiod qadimgi yunonlar nazarida Gomer qatorida turadigan ulug' shoir hisoblanadi. Gesiod tub ma'nosi bilan xalq shoiri zahmatkashlar rahnomosi, hayot donishmandi bo'lib qoldi. Uning dostoni asrlar davomida yunon dehqoni uchun og'ir kunlarning maslahatgo'yi bo'lib keldi.

3-MAVZU:ANTIK DAVRI YUNON ADABIYOTI.

Reja:

- 1.Yunon lirikasi.
- 2.Salon ijodi.
- 3.Sapfo lirikasi.

Adabiyotlar:

1. I. Karimov. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kkuch. T., Ma`naviyat, 2008.
2. Alimuhamedov N. “Antik adabiyot tarixi”. Toshkent. “O`qituvchi”. 1975 yil.
- 3.Mahmudov M. “Hayrat va tafakkur”. Toshkent. “G`.G`ulom Adabiyot va san`at nashriyoti”. 1990 yil.
- 4.Aristotel. “Poetika”. Toshkent. 1980 yil.
- 5.Chingiz Aytmatov, Muxtor Shoxonov. “Cho`qqida qolgan ovchining ohi-zori”. Toshkent. “Sharq”. 1998 yil.
- 6.Kun N.A. Qadimgi Yunoniston afsona va rivoyatlari. Jahon adabiyoti jurnali. 2005 yil may.

Yunon tilidagi “lirika” so`zi torli cholg`u asbobi liraning nomidan kelib chiqqan bo`lib, ma`nosi “muzika jo`rligida ijro etiluvchi she`r” demakdir. Bu atama lirik she`riyatning rivojlangan davrlaridan allaqancha keyin, taxminan eramizdan avvalgi III-II asrlarda ellinizm zamonasi olimlari tomonidan iste`molga kiritilgan. Shu paytga qadar yunonlarning o`zlari mazkur turkumga aloqador bo`lgan asarlarning hammasini - “melos”, “melika” ya`ni “qo`shiq” deb ataganlar. Binobarin, ma`lum bo`ladiki, asrlar davomida qadimgi yunonlar lirik she`riyatni boshqa turli vositalar, masalan, qo`shiq, muzika asbobi va hatto raqs bilan bog`langan holda tasavvur etib kelganlar. Shu sababli har bir lirik shoir bir vaqtning o`zida ham muallif, ham bastakor va ham raqs ustasi bo`lgan. Davrlar o`tishi bilan lirikaning yamb hamda elegiya deb ataluvchi ba`zi oddiy turlari, asta-sekin muzikadan uzoqlashib, faqatgina o`qish uchun xoslangan adabiy janrga asoslanib qoladi. “Melos” iborasi esa yolg`iz ko`ngil hislarini ifoda etuvchi she`rlarga nisbatan ishlatilib, bu toifa asarlarning muzika bilan bog`liqligi yana uzoq vaqtlar davom etadi. Asl lirika deb tanilgan va uzoq asrlar musiqaviy kuy xususiyatlarini saqlab qolgan “melos” janri, o`zining mazmuniga va qanday voqealarga atalganligiga qarab yana ikki turkumga bo`linadi: yakka xonanda tomonidan ijro etiluvchi – monodik lirika va ko`pincha ko`pchilik tomonidan ijro etiluvchi – xor lirikasi. Elegik asarlarda ular, aksincha ruhiy tetiklik kayfiyatlarini, botirlik g`oyalarini, jangovar hislarni talqin etganlar. Biroq elegiyaning xususiyatlarini belgilaydigan asosiy o`lchov uning mazmuni emas, balki vaznidir.

Qadimgi Yunonistonning yirik elegiyanavislaridan biri Salondir (taxminan 635-559 yillar). Barcha yunon shoirlariga qaraganda Salonning hayoti ancha aniq. Uning haqida qadimgi zamonning atoqli kishilari – Plutarx, Aristotel ba`zi ma`lumotlarni qoldirib ketganlar. Shu manbalarga qaraganda shoir aristokrat oilasida tug`iladi, ammo shoirning tug`ilish vaqtiga kelganda uning nasli o`tmish mavqelarini yo`qotib, ancha kambag`allashib qolgan edi. Salon o`zining iqtisodiy ahvolini tuzatish maqsadida savdo-sotiq ishlari bilan shug`ullanadi. Shu munosabat bilan juda ko`p sayohat qiladi, turli shaharlarda, uzoq mamlakatlarda bo`ladi. Bu sayohatlar uning tajribasini oshiradi, fikrini kengaytiradi va yirik davlat arbobi bo`lib yetishuviga imkon beradi.

Afinaning ravnaq topishi yo`lida ko`rsatgan bir qancha xizmatlari tufayli 595-yilda Salonni Afina davlatining oliy mansabiga saylaydi. Salon poeziyasining ko`pchilik qismi yangi islohot ishlariga bag`ishlangandir. Bu she`rlarda shoir o`zi joriy etgan usul – qonunlarni tashviq qiladi. Salonning she`rlari chuqur vatanparvarlik g`oyalari va Afinaning porloq istiqboliga ishonch tuyg`ulari bilan sug`orilgandir. Salon yunon elegiyasini yangi mazmun va yangi g`oyalar bilan boyitadi, axloq, odob masalalari ustida ham to`xtalib zamondoshlarini chinakam inson bo`lishga chaqiradi. Shoir she`rlarida davrning sadosi shu qadar kuchli yangraydiki, bu sado Yunon va Rim poeziyasiga kuchli ta`sir ko`rsatadi.

Poeziyaning oddiy turlari hisoblangan yamb hamda elegiya bilan birga VII-VI asrlarda monodik, ya`ni chkkaxon lirika ham benihoya tez taraqqiy etadi. Bu janrni Pesbos orolida tug`ilib o`sgan ikki ulug` shoir – Alkey hamda Sapfolar yuksak cho`qqiga olib chiqdilar va yunon

poeziyasida ko'rilmagan insoniy his va tuyg'ular bilan sug'ordilar. Manbalarning guvohlik berishicha Alkey poeziyasi o'zining muxtasarlighi, tilining ravonligi, misralarning nafisligi bilan antik dunyo kishilari qalbidan joy olgan.

SHoira Sapfo ham aristokrat oilasida dunyoga keladi. U o'z vatanida maktab ochib, Yunonistonning turli yerlaridan kelgan yoshlarga ashula, raqs, muzika, she'riyatdan dars beradi va maktabini "Muzalar oshiyoni" deb atagan. Shoiraning asarlari ayollarga bag'ishlangandir. Qadimgi manbalar Sapfoning o'nta kitob yozganini xabar qiladilar. Bular barchasi XI asrda yondirib yuborilgan. Sapfo lirikasini o'qir ekansiz, ajoyib bir xususiyat yaqqol ko'zingizga tashlanadi. U ham bo'lsa shoiraning tabiat shaydosi ekanligidir. Sapfo ijodining butun mohiyati, ahamiyati ham poeziyada insonning ichki hissiyot dunyosini ochganligidadir.

4-MAVZU:ATTIKA VA ELLIMIZM DAVRI YUNON ADABIYOTI.

Reja:

- 1.Dramaning paydo bo'lishi.
- 2.Yunon teatrining xususiyatlari.
- 3.Esxil – jahon tragediyasining otasi.
- 4.Sofokl va jahon dramaturgiyasi

Adabiyotlar:

1. I. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kkuch. T., Ma'naviyat, 2008.
2. Sulaymonova F. "SHarq va G'arb". Toshkent. "O'zbekiston". 1997 yil.
- 3.Esxil. "Zanjirband Prometey". Toshkent.G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1978 yil.
- 4.Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. Toshkent. "Fan". 2007 yil.
5. Kun N.A. Qadimgi Yunoniston afsona va rivoyatlari. Jahon adabiyoti jurnali. 2005 yil may.

Drama so'zining mazmuni "harakat" demakdir. Bu ibora tom ma'nosi bilan mazkur janrning harakatdan va odamlarning o'zaro suhbatlari – diologidan tarkib topganligidan dalolat beradi. Dramaning kelib chiqish tarixini qadimgi zamon olimlari va hozirgi davr ilm ahli xalq diniy marosimlari bilan bog'laydilar.

Aristotel ham o'zining "Poetika" asarining to'rtinchi bobida qat'iy fikrlar aytadi. Ulug' faylasufning izohiga qaraganda, hatto "Tragediya" iborasining o'zi ham Dionis shaxsi bilan mahkam bog'liqdir. Bu atama "trago la oide" degan ikki so'zdan tarkib topgan bo'lib, "echki qo'shig'i" degan ma'noni anglatadi.

Dramaning barcha turlari diniy marosimlardan tug'ilganligi vajidan qadimgi yunonlar bularning hammasiga chuqur e'tiqod bilan qaraganlar. Binobarin, teatr tomoshalari davlat qaramog'idagi muhim siyosiy va tarbiyaviy tadbir va choralardan biri hisoblangan. Ikkinchidan, dramaning yuzaga kelishi bevosita Dionis marosimlari bilan bog'liq bo'lganligi tufayli bu tomoshalar shu ma'budning sharafiga yil sayin uch marotaba o'tkazilgan va bir necha kun davom etadigan bayram paytlarida namoyish qilingan. Yunonlar mazkur tomoshalarga, shunchaki bir ermak deb emas, balki muhim diniy bayram deb qaraganlar va bu bayramlarni mumkin qadar tantanali o'tkazishga tayyorlanib, deyarli hammalari teatr tomoshalariga kelishga oshiqqanlar. Dastlabki davrlarda teatr tomoshalari bepul ko'rsatilgan. Qadimgi Yunonistonda barcha o'yinlar singari, teatr tomoshalari ham musobaqa yo'sinda o'tkazilgan. Bu musobaqalarga qatnashmoqchi bo'lgan shoir, hukumat ixtiyoriga mazmun jihatdan bir-biri bilan bog'liq uchta tragediya va bitta satirlar dramasini topshirgan. Komediyanavis shoirlar esa faqat bitta-bitta asar bilan qatnashganlar. Yunon teatri hozirgi zamon teatriga mutlaqo o'xshamaydi. Avvalo, uning hajmi benihoyat katta, tomoshalar kunduz kuni va ochiq havoda ko'rsatilgan. Afina teatriga 17 ming odam sig'ar ekan, keyinchalik 30-50 ming kishilik teatrlar ham barpo qilingan.

"Teatr" so'zining asl ma'nosi "ko'rish", "kuzatish" demakdir. Dastlabki davrlarda tomoshabin o'tiradigan yerni shu nom bilan ataganlar. Bu iborani butun teatr binosiga nisbatan

ishlatish meloddan ancha keyin, taxminan V asrlarda iste'molga kiritilgan. Yunon xalqining ma'naviy taraqqiyoti tarixida teatrning tutgan o'rni g'oyat buyukdir.

Eramizdan oldingi V asrning dastlabki yillarida boshlangan qizg'in ijtimoiy va siyosiy voqealar – yunon elining eski tuzumdan asta-sekin sinfiy davlatga aylanib borishi, mamlakatda demokratik harakatning toboro mustahkamlanishi Eron-Yunon urushi yillaridagi mislsiz milliy birdamlik va dushman ustidan g'alaba qozonish ishtiyoqi, nihoyat, urushdan keyingi ijtimoiy va madaniy ko'tarilish – o'z ifodasini hammadan ko'ra ko'proq Esxil ijodida topadi. Shoir taxminan 525-524 yillarda Elivsin shahrida aslzoda aristokrat oilasida tug'iladi. Esxil 456 yilda Gela shahrida vafot etgan. Esxil yigirma yoshida birinchi marta dramatik shoirlar musobaqasida qatnashadi, biroq g'alaba qozonish unga qirq yoshida nasib etadi, shundan keyin uning asarlari shoirga yana o'n uch marta g'alaba keltiradi.

Qadimgi olimlarning ma'lumotlariga qaraganda Esxil nihoyatda mahsuldor yozuvchi bo'lgan. Biroq uning 90 ga yaqin tragediyasidan iborat boy adabiy merosidan bizga qadar faqat yettitasi yetib kelgan. Bular tubandagilardir: “Ertiylar”, “Fivaning yetti dushmani”, “Iltijogo'ylar”, “Zanjirband Prometey” va “Oresteya” trilogiyasiga kiradigan “Agamemnon”, “Xoeforlar” hamda “Evmenidalar” tragediyalari.

Odam bolasining og'ir qismatiga yer yuzidagi zulm va adolatsizliklariga qarshi hayqiriq isyon “Zanjirband Prometey” tragediyasida ayniqsa kuchli jaranglaydi. Bu asar yolg'iz Esxilninggina emas, balki butun jahon adabiyotining ozodlik va insonparvarlik sha'niga tiklangan buyuk yodgorlikdir. “Zanjirband Prometey” tragediyasi, “Xalos etilgan Prometey” hamda “Otashbardor Prometey” tragediyalari bilan birga qo'shidib yaxlit bir trilogiyani tashkil qiladi, ammo keyingi ikki qismi bizga qadar yetib kelgan emas. Esxil chindan ham tragediyaning otasidir. U asarlarida xorning rolini qisqartirib, ikkinchi aktyorni olib kiradi va diologlar sonini oshiradi. Yunon tragediyasining shakllanishida tutgan o'rni, o'zining poetik mahorati va asarlarida ifoda etilgan ajoyib zamonaviy g'oyalar bilan Esxil butun antik dunyo adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

SOFOKL IJODI

Yunon tragediyasining ikkinchi namoyandasi Sofokl 496 yilda Afinaning yaqinidagi Kolon degan joyda tug'iladi, uning otasi qurol-aslaha korxonasining egasi, zamonasining ancha badavlat va boobro' kishisi bo'lgan. Sofokl yoshligida yaxshi tahsil ko'radi, turli-tuman bilimlarni o'rganadi; uning adabiy faoliyati erta boshlanib, 28 yoshida ekan, dramatik adiblar musobaqasida ulug' Esxil ustidan g'alaba qozonadi. Sofokl butun umrini sha'n-shavkatda, izzat va hurmatda o'z yurtida o'tkazib, 406 yilda vafot qiladi. O'limidan keyin yunon elining ulug' zotlari qatori u ham qahramon sanalib, xotirasi uchun katta haykal o'rnatiladi va har yili qabri ustida qurbonlik so'yish taomiliga kiritiladi.

Qadimilarning guvohlik berishlariga ko'ra, Sofokl o'zining oltmish yillik adabiy faoliyati davomida 120 dan ortiq asar yozib, 24 marta dramatik shoirlar musobaqasida yutib chiqqan; biroq mazkur asarlardan bizga qadar yettitasigina yetib kelgan, xolos. Sofokl tragediyani tantanali diniy qo'shiqlar shaklidan chinakam dramaga aylantirish ishini yana yuqori pog'onalarga ko'tardi. Sofokl asarlarida qahramonlarning tabiati va ruhiy kechinmalariga ko'proq e'tibor berish natijasida asarning mazmuni hayotiylik kasb eta boradi.

Jahon adabiyoti tarixiga Sofokl asosan, Edin haqidagi rivoyatlar mavzuida yozilgan asarlari “Edip shoh”, “Edip Kolonda” va “Antigona” tragediyalari bilan kiradi. Antik dunyoda o'tgan dramaturglardan birontasining asari jahon adabiyotida “Edip shoh” tragediyasichalik chuqur iz qoldirmagan. Sofoklning bu asari XVIII asrning oxiri, XIX asrning boshlarida Yevropa adabiyotida “Taqdir targediyasi” deb atalmish maxsus adabiy oqimning tug'ilishiga sabab bo'ladi. Bu oqim tarafdorlari, go'yo Sofokl izidan borib, taqdir mavzuida yozgan asarlarida dunyo bevafo, odam bolalari hayot girdobida beixtiyor oqib yuradigan benavo-bechoralardir, deb da'vo qiladilar.

Qadimgi yunon kishisining va shaxsan Sofoklning nazarida qismat baxt-saodat, adolat hamda zarurat kabi tushunchalarning ma'nosi bir-biriga juda yaqin bo'lgan.

Sofokl qadimgi qabilachilik davrlari uchun xos bo'lgan ba'zi bir diniy, axloqiy taomillarni yangi zamon qonun-qoidolari bilan kelishtirishga urinadi. Bu jihatdan xorning birinchi qo'shig'i

juda xarakterlidir. Bu qo'shiqda inson ongining ulug' qudrati, tabiat hodisalarini itoat ettirgan ajoyib zakovati ko'klarga ko'tariladi, ammo, shu bilan birga, qo'shiqning oxiri, dunyoviy manfaatlarga berilib ketib, ilohiy burchlarni unutib qo'ygan kishilarga qarata aytilgan ta'nali so'zlar bilan tugaydi, ya'ni odam bolasi qanchalik ravnaq topmasin, ilgaridan qolgan rasmlarni unutmasligi lozim, aks holda jamiyat halokatga duchor bo'ladi. Sofokl o'zining ajoyib obrazlari bilan bir qatorda, dramatik voqealarni nodir ustalik bilan bir-biriga bog'lagan mohir san'atkor sifatida ham jahon adabiyotida mashhur. Ulug' Gyote yunon dramaturgi haqida gapirib, "sahnani va o'z kasbini hech kim Sofokldek bilgan emas", degan edi.

Xullas, Sofokl o'zining ulkan zamondoshi Esxilga nisbatan, qahramonlarning xarakterini tavsif qilishda turli-tuman usullarni qo'llab, targediya san'atini yuksak kamolot bosqichiga ko'tardi. Uning ulug'ligi shundaki, shoir faqat hamma odamlarning har xil bo'lishini emas, balki yolg'iz birgina odamning dilida javlon urgan turli-tuman ruhiy o'zgarishlarni, qarama-qarshi sezgi va tuyg'ularning dam-badam tovlanib turishini nodir ustalik bilan tasvirlaydi. Umuman, "Edip shoh" asarining hamma voqealari, boshlanishidan to oxiriga yetguncha, keskin ravishda bir holatdan ikkinchi holatga: shodlikdan qayg'uga, umidvorlikdan – noumidlikka ko'chib turish jarayonida rivojlanib boradi.

Sofokl ijodida yunon tragediyasi yuksak kamolot bosqichiga ko'tarilib, olamshumul ahamiyat kasb etadi. Shoir asarlarining demokratik ruhi, odamparvar mazmuni, noyob badiiy ko'rki – ularning abadiy barhayotligini ta'minlaydi.

EVRIPID IJODI

Qadimgi yunon tragediyasining uchinchi ulug' vakili Yevripid, rivoyatlarning naql qilishiga ko'ra, eramizdan oldingi 480 yilda, xuddi yunonlar Eron ustidan g'alaba qozongan kuni Afina yaqinidagi Salamin orolida o'rtahol oilada dunyoga keladi, yaxshigina bilim oladi. Zamondoshlarining ma'lumotiga qaraganda shoir tinchgina ilm, fan, san'at, adabiyot va falsafa bilan shug'ullanib tinchgina umr kechirishni afzal ko'rgan. Uch marta teatr musobaqalarida g'olib chiqadi. Ellinizm davrida Yevripid o'z xalqining eng sevimli tragik shoiriga aylandi. Hatto Esxil, Sofokl ham uning dovrug'i soyasida qolib ketadilar. Bu ahvol shoirning adabiy merosi taqdiriga ham kuchli ta'sir ko'rsatib, 92 ta asaridan bizga qadar 17 ta tragediya hamda bitta satir dramasi to'la holda yetib kelishini ta'minlaydi. Bular tubandagilar: "Alkestida", "Medeya", "Geraklidlar", "Ipollit", "Gekuba", "Gerakl", "Iltijogo'ylar", "Troyalik ayollar", "Elektra", "Ion", "Ifigeniya Tavridada", "Yelena", "Andromaxa", "Finikiyalik qizlar", "Orest", "Vakx qizlar", "Ifigeniya Avlidada" va "Kiklop" nomli bitta satir dramasi. Bu asarlarning hammasi yunon taomiliga ko'ra Esxil hamda Sofoklning tragediyalari singari mifologik afsonalar mavzuida yozilgandir.

SHoir ijodining dastlabki davrlarida yaratilgan "Alkestida" tragediyasi hisoblanadi. Asarda ma'budvash qahramonlarni ko'rmaymiz. Ko'z oldimizda o'tadigan shaxslar hayotning ikir-chikirlari bilan yashaydigan, xudbin manfaatdor, mayda-chuyda ehtirolardan holi bo'lmagan oddiy, to'pori odamlardir. Bu muhitdagi kishilar o'z manfaatlari yo'lida hech narsadan qaytmaydilar. Yevripid o'zining bu asarida tomoshabinni olamshumul buyuk masalalar, taqdir, maslak tushunchalari osmonidan kundalik turmush, har bir kishiga tanish bo'lgan oddiy tirikchilik, insoniy ehtirolar makoni bo'lgan yer hayotiga olib tushadi. Yevripid ijodida na targediya, na komediyaga o'xshagan mutlaqo yangi bir janr-drama paydo bo'lib kelayotganligini ko'ramiz. Shoir tomonidan qo'llangan bu yangiliklar hayotning oddiy majarolarini va chinakam insoniy ehtirolarni ifoda etishda eng muvofiq yo'l bo'lgan.

Yevripidning yunon tragediyanavisligiga kiritgan yangiliklarini yana ham to'laroq aks ettiruvchi asar – "Medeya" tragediyasidir. "Medeya" – xo'rlangan muhabbat va rashk tragediyasi. Shoir bu asarida, na ma'budlar qarshisida na taqdir oldida bosh egmaydigan. Nodir jasorat, sabot va matonat bilan o'zining insoniy baxti uchun yolg'iz o'zi kurashadigan ayol obrazini yaratadi. Bir-biriga zid tuyg'u va sezgilarning bu tariqa keskin kurashlarini tasvirlab, odam bolasining chinakam ruhiy dunyosini ochish – Yevripid tomonidan tragediya san'atiga kiritilgan eng birinchi yangilik va ulug' kashfiyotdir. Esxil va Sofoklning ulug'vor asarlarida tarbiyalangan yunon tomoshabini Yevripid tragediyasidagi yangi hayotiy lavhalarni yaxshi tushunmaydi, ularni sovuq qarshi oladi.

“Medeya” asari faqat keyingi zamon kishilari nazarida e’tibor topdi va antik dunyo tragediyasining eng buyuk namunalaridan biri deb tanildi. Antik dunyoning ulug’ shoiri yaratgan yangiliklar doirasini kengaytirish, dramaturgiyaning hayotiy kuchi va badiiy imkoniyatlarini yana ham oshirish sharafiga Yevripiddan so’ng faqat Shekspirgina muyassar bo’lgan. Shu bilan qadimgi yunon tragediyasi haqidagi bahsimizni tugatamiz. Yevripiddan keyingi tragediyanavislar bu janrga arzigudek biron yangilik kiritolmaydilar.

Qadimgi yunon tragediyasi Yevropa teatri tarixidagi eng birinchi qadim ham juda kattakon maktab bo’lgan. Yangi zamonning ulug’ shoirlari Shekspir, Kornel, Rasin, Shiller, Gyote va boshqalar ana shu maktabda saboq olganlar. Biroq qadimgi yunon tragediyasining jahon miqiyosidagi ahamiyati faqat shu bilan chegaralanmaydi. Ulug’ tragediyanavislar yaratgan bemisl asarlar oradan ikki yarim ming yillik davr o’tishiga qaramay, to shu kunga qadar keksalik nimaligini bilmasdan, jahon sahnasida navqiron yashnab kelmoqda, o’zlarining g’oyaviy mazmunlari va badiiy nafosatlari bilan bizni hamon maftun etadi, hayajonga soladi. Yuksak san’atkorlik mahorati bilan bu asarlarda ifoda etilgan vatanparvarlik, insoniy burch, erkinlik g’oyalari hozirgi zamon kishilarining tilak va orzulariga hamohangdir; antik dunyo tragediyasining abadiy barhayotligi va so’nmas badiiy go’zalligining asosiy boisi ham ana shu chinakam odamparvarlik mazmunidadir.

Eramizdan oldingi V asr yunon jamiyatining ijtimoiy-siyosiy va madaniyati jihatidan yuksak taraqqiyot bosqichiga ko’tarilgan davridir. Bu taraqqiyot Eron-Yunon urushidan keyin Afina davlatining kuchayishi va demokratiyaga tomon rivojlanib borishi bilan mahkam bog’liq bo’lib, chindan ham yunon elining oltin asri deb atalishiga arziydigan buyuk davrdir. V asrga qadar yunon tuprog’ining eng ilg’or madaniy markazi Kichik Osiyodagi Ioniya viloyati hisoblanib kelingan bo’lsa, rosa yarim asr (499-449) davom etgan Eron-Yunon urushida yunonlar g’alaba qozonganlaridan keyin ilmu-fan, san’at va madaniyat markazi Afina davlatiga ko’chadi. Adabiyot sohasida Afinaning mavqei shu qadar ulug’ki, V-IV asrlar adabiyoti shu muazzam shahar o’rnashgan Attika viloyatining nomiga nisbatan berilib, yunon adabiyotining attika davri deb ataladi. V asrning o’rtalariga kelib Afina yunon davlatlari orasida eng baquvvat, eng yirik, 150 dan ortiq ayrim davlatlardan tashkil topgan katta ittifoqining tepasida turuvchi, suvda va quruqlikda o’z hukmini yurituvchi zabardast bir davlatga aylandi. Bu davrda Afina davlati Yunon tarixida ko’rilmagan yuksak iqtisodiy ma’murchilik darajasiga ko’tariladi va shu bilan birga butun yunon olamining eng yirik madaniy markaziga olimlar, shoirlar, faylasuflar, haykaltaroshlar, rassomlar va turli-tuman ijod ahillarining makoniga aylanadi. Afina o’zining iqtisodiy va madaniy kamolotiga asosan V asrning 50-30 yillarida, ya’ni Perikl turgan vaqtda erishadi va shu sababli bu davrni ko’pincha “Perikl asri” deb ham aytadilar. Perikl (500-429 yillar) Eron urushi vaqtida anchagina harbiy mahorat ko’rsatadi. Mamlakatda demokratiya tuzumini o’rnatadi va o’n besh yil davomida yuqori lavozimiga saylanadi. Perikl o’z zamonasining nihoyatda ishbilarmon davlat arbobi, otashin notiq, ilmu-fan, san’at va adabiyotga qiziqqan bir shaxs bo’lgan. U butun yunon olamidan faylasuflar, olimlar, shoirlar va san’at ahillarini Afinaga to’playdi. Periklga yaqin turgan va uning ishlarida ko’maklashgan ulug’ zotlar orasida faylasuflardan Anaksagor, Sokrat, “tarix fanining otasi” Geodot, ulug’ tragik Sofokl, ajoyib haykaltarosh Fidiy va shularga o’xshash umumyunon madaniyatini yuksak pog’onalarga ko’targan yana bir muncha shaxslarni ko’ramiz. Perikl zamonasida ilmiy-falsafiy ta’limotlar, ayniqsa juda keng rivoj topadi. Olimlar mutafakkirlar o’z asarlarida tabiat hodisalarini, ijtimoiy qonunlarni ochishga, ularni izohlashga va shu yo’sinda mavjud demokratik tuzumning to’g’ri ekanligini isbotlashga urinadilar.

Eski diniy e’tiqodlarning asta-sekin susayib borishi, ilohiy kuchlarni koinot hodisalarida axtarish (panteizm) insonni ma’budlarning quli holaidan butun borliqning hukmroni darajasiga ko’tarish, uning idrok va iste’dodiga tahsin o’qish istiqboliga chuqur umid bilan qarash – bu davr falsafiy oqimlarining asosiy xususiyatidir. Yangi tushunchalar o’z ifodasini dastavval Anaksagor (500-428 yillar) falsafasida topadi. Bu mutafakkir olim eski diniy e’tiqodlarni inkor etib, butun koinotni behisob zarralardan tarkib topgan abadiyat ma’nosida tushunadi. U inson ongi, qudrat va iste’dodini yuksak baholaydi. Bu davrning ulug’ mutafakkirlaridan biri Demokritdir (460-370). Olim o’z ta’limotida: atomlar va ularning harakati abadiydir: “hech narsa yo’qlikdan paydo

bo'lmaydi va hech narsa nom-nishonsiz yo'qolib ketmaydi", "tabiatdagi o'zgarishlar atomlarning bir holatdan ikkinchi holatiga o'tishlari oqibatidir", deydi.

V asrning ikkinchi yarmida butun Ellada tuprog'ida ijtimoiy hodisalarni o'rganish ishini oldiga maqsad qilib qo'ygan yangi ilmiy – falsafiy oqim paydo bo'ldi. Bu oqim vakillari o'zlarini "sofistlar" deb ataganlar. "Sofist" so'zi "donishmand", "bilimdon", "olim" degan ma'noni anglatgan bo'lsa, keyinchalik bu ibora falsafa muallimlariga nisbatan ishlatilgan. Sofistlar olomon o'rtasida jo'shqinlik bilan ilmlarni yoygan, ulmu-fan jarchilari bo'lganlar. Chunonchi bu oqim tarafdori Prtagor "hamma narsaning andozasi odamdir" deb inson qadr-qimmatini oshiradi.

Eramizdan oldingi 336 yilda Makedoniya podshohi Aleksandr Yunon tuprog'ini zabt etib, ellin xalqidan to'plagan kattakon qo'shin bilan Sharq mamlakatlariga qarshi urush boshlaydi va ko'p o'tmay Hindiston chegaralariga qadar cho'zilib borgan bepoyon buyuk o'lkaning yakka-yu yagona hukmroniga aylandi. Biroq Aleksandr yaratgan ulkan davlat, uning o'limidan so'ng ag'darilib sarkardaning noiblari o'rtasida boshlangan qonli urushlardan keyin Misr, Suriya, Makedoniya, Pergam kabi yirik davlatlarga bo'linib ketadi. Makedoniya taxti atrofida boshlangan tortishuvlar juda uzoqqa cho'zilib, mamlakat goh Aleksandr urug'lariga, goh uning sarkardalari qo'lga o'tib turadi. Yunonlar ichki ixtiloflardan foydalanib, o'zlarining eski mustaqilliklarini boy berib qo'ygan bo'lsa ham, yer yuzining madaniyat makoni sifatida hamon qimmatini yo'qotmagan edi: ellin xalqining ilmu fani, san'at va adabiyoti hamda tili asta-sekin o'z doirasini kengaytirib to Misr, Hindiston yerlariga qadar cho'zilgan uzoq mamlakatlarga ham yoyiladi va natijada yunon madaniyati asosiga qurilgan yagona jahon madaniyati maydonga keldi. Shu sababli, yunon madaniyatining ta'sirida bo'lgan davlatlarning hammasini ellin davlatlari va Aleksandr istilosidan tortib to yangi asrning boshlarida bu mamlakatlarning Rim hukmronligiga o'tish paytlariga qadar bo'lgan davr – ellinizm asri deb ataladi. Yunon olamida boshlangan ijtimoiy o'zgarishlar va bular natijasida tug'ilgan siyosiy loqaydlik, beparvolik va umidsizlik kayfiyatlari birmuncha falsafiy ta'limotlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Mazkur oqimlarning eng muhimlari – kiniklar, stoiklar va epikurchilar falsafasidir. Epikurchilar ruhiy osoyishtalikni targ'ib qilgan bo'lsalar, stoiklar shafqat, sahovat g'oyalarini tashviq qiladilar.

Eramizdan oldingi IV asrda Sokratning shogirdi Antisfen tomonidan yaratilgan kiniklar falsafasiga ko'ra ular qashshoqlik va gadolikni targ'ib qiladilar.

Ellinizm davrining jahon adabiyotiga qo'shgan eng muhim hissasi – "yangi" komediyadir. "Yangi" komediya atamasi adabiy iste'molga juda eski zamonlarda kiritilgan bo'lib, ellinizm davrida paydo bo'lgan komediyaning yangi turini attika davridagi "qadimgi" komediyadan hamda IV asrdagi "O'rta" komediyadan ajratish maqsadida ishlatilgan. Yunonistonda, Makedoniya hukmronligi o'rnatilgandan keyin ellin xalqi mustaqilligining barbod etilishi, o'tmishdagi jo'shqin siyosiy g'oyalarning tobora so'nib borishi va ularning natijasi o'laroq shaxsiy manfaatlarning kuchayishi – "yangi" komediyaning paydo bo'lish jarayonidagi asosiy omillardandir. "Yangi" komediya ham asosan oddiy tirikchilikda uchraydigan kundalik voqealarni, chunonchi ishq-muhabbat, oilaviy munosabat masalalarini muhokama qiladi. Ellinizm olamida yangi komediya qariyb ikki yuz yil (eramizdan oldingi IV asrning ikkinchi yarmi, II asrning birinchi yarmi) umr ko'radi. Manbalarning shaxodat berishicha bu janrda ijod qilgan shoirlarning soni bir yuz oltmish kishidan ortiq bo'lgan, ularning barchasi butun Yunon tuprog'i bo'ylab keng shuhrat yoyadi. Shular orasida qadimgilar uchta shoirni: Filemon (taxminan 361-263 yillar), Difil (taxminan 350-263 yillar) va ayniqsa, Menandrni chuqur hurmat bilan tilga olganlar.

Menandr (taxminan 343-292 yillar) Afina shahrida, badavlat xonadonlarning birida tavallud topadi. Menandr siyosiy ishlarga aralashmasdan, qizg'in adabiy faoliyatda butun umrini sevimli shahri Afinada o'tkazadi. Menandr hammasi bo'lib, yuzdan ortiqroq komediya yozgan. Shoir asarlarida talqin etilgan fikrlarning hammasi, masalan qullarga xayrixohlik bilan qarash, er-xotinlar barobar huquqli bo'lishga da'vat etish – antik dunyo kishilarining ko'pchiligi uchun tamomila yangi va ularning tushunchasiga mutlaqo zid fikrlar edi. Shu sababli shoir dramatik shoirlar musobaqasida kamdan kam g'olib chiqqan.

Eramizdan oldingi II asrning kirishidan boshlab, dastavval Yunonistonning Sitsiliyadagi mustamlakalari, keyinroq yunon tuprog'ining o'zi Makedoniya davlati va nihoyat, Sharqdagi barcha

ellinizm mamlakatlari birin-ketin Rim imperiyasiga taslim bo'ladilar. Harbiy sohada mag'lubiyatga uchragan yunonlar o'zlarining yuksak ilmu-fanlari, falsafa sohasidagi ulug' ta'limotlari, san'at va adabiyot bobidagi yutuqlari bilan g'oliblarni maftun etadilar. Rimdagi ritorika, grammatika va falsafa ta'limiga yunonlar rahbarlik qiladilar. Uzoq kechmishning ixlosmand muhibi Rim davri yunon adabiyotining eng yirik vakillaridan biri Plutarxdir. Qadimgilar Plutarx ijodining nihoyatda rang-barang, serunum bo'lganligini, yozuvchi 225 tadan ortiqroq asar qoldirganini xabar qiladilar. Shulardan 150 tasigina bizgacha yetib kelgan. Olimlar uning merosini ikkiga ajratib tahlil qiladilar. Bular birinchisi – axloqiy asarlar, ikkinchisi – hayotnomalardir. Uning “Qo'shaloq hayotnomalar” deb ataluvchi tarixiy asari keng shuhrat qozongan.

5-MAVZU:KOMEDIYA JANRI VA ARISTOFON IJODI

Reja:

- 1.Yunon komediya janrining paydo bo'lishi.
- 2.Aristofon – yunon komediyasining boshlovchisi.
- 3.Aristofon komediyalarining ahamiyati.

Adabiyotlar:

1. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kkuch. T., Ma'naviyat, 2008.
2. Alimuhamedov N. Antik adabiyot tarixi. Toshkent “O'qituvchi”. 1975 yil.
- 3.Aristotel. “Poetika”. Toshkent. 1980 yil.
- 4.Sulaymonova F. “Sharq va G'arb”. Toshkent “O'zbekiston”. 1997 yil.

Turli-tuman qiziqchiliklar bilan tomoshabinni kuldirish va hayotda uchraydigan ba'zi bir manfiy hodisalarni masxaralash komediyaning asosiy maqsadidir. “Komediya” iborasi “sotos” va “oide” degan ikki so'zdan tarkib topgan bo'lib, “masxarabozlar qo'shig'i” degan tushunchani anglatadi. O'zining nojo'ya ishlari bilan dehqonlarga ozor yetkazgan biron odamni – boyonlarni, amaldorlarni hajviy qo'shiqlarda mazax qilish Yunoniston qishloqlarida tez-tez uchrab turadigan oddiy hodisa bo'lgan. Bu holat Dionis bayramlarida kengroq aks etgan. Eramizdan V-IV asrlar, umuman, butun Yunoniston va xususan Afina davlati uchun nihoyatda kuchli ijtimoiy va madaniy taraqqiyot davri bo'lgan.

Ammo, shu bilan birga, quldorlik zaminida yaratilgan demokratiya tuzumining ziddiyatlari, ayrim sotsial guruhlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar kun sayin keskinlashib bormoqda edi. Dastlabki komediyana vis shoirlar o'zlarining asarlarida ana shu nuqsonlarni fosh etishga, kulgu va satira yordami bilan ularni bartaraf etishga intilganlar.

Shunday qilib, “Qadimgi attika komediyasi” deb atalmish maxsus adabiy oqim maydoncha keladi. O'tkir siyosiy jo'shqinlik, demokratiya dushmanlariga qarshi murosasizlik – “qadimgi attika komediyasi” ning asosiy xususiyatidir. Mazkur janrda ijod qilgan ko'pdan-ko'p shoirlar orasida faqat uch kishining nomi bizga ma'lum. Bular – Kratin, Evpolid hamda Aristofandir. Shulardan faqat Aristofanning asarlarigina saqlanib qolgan.

Qadimgi komediyana vis shoirlar orasida asarlari ozmi-ko'pmi miqdorida bizga qadar yetib kelgan birdan-bir shoir Aristofandir. Bu shoirning ijodida komediya mazmun jihatdan benihoyat kengayadi, shakl jihatdan yuksaklikka ko'tariladi. Binobarin, biz uchun bu zot to shu kunga qadar mazkur janrning dastlabki yakkayu-yagona vakili butun jahon miqiyosida komediya adabiyotining keksa bobokaloni bo'lib qoladi.

Aristofanning shaxsiy hayoti haqida biz, deyarli hech narsa bilmaymiz, ba'zi manbalarga qaraganda shoir, taxminan eramizdan oldingi 445 yilda Attika viloyati yaqinidagi Egina orolida tug'ilgan. U 20 yoshida komediyana vislar musobaqasida qatnashib ikkinchi o'rinni egallaydi. Qirq yilcha davom etgan adabiy faoliyati davrida shoir hammasi bo'lib, taxminan, qirqdan ortiq asar yozgan. Mazkur asarlardan bizga qadar to'la holda o'n bitta komediya yetib kelgan. Olimlarning taxminiga ko'ra, shoir 385 yilda dunyodan o'tadi. Aristofon ijodi asosan, salkam o'ttiz yil davom etgan Peloponnes urushi davriga va shu urush oqibatida Afina demokratik davlatining beto'xtov

yemirilib, inqirozga tomon ketayotgan paytiga to'g'ri keldi. Shu yillarda haddan ziyoda keskinlashib ketgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ziddiyatlar, urush hamda tinchlik masalalari, axloq, tarbiya, falsafa va adabiyot muammolari – Aristofon asarlarida o'z ifodasini topgan. Aristofondan oldin o'tgan “qadimgi” komediya vakillarining asarlari bizga qadar, deyarli mutlaqo yetib kelgan emas. Shu sababli shoir ijodini boshqalar bilan taqqoslab, uning yunon komediyanavislik san'ati xazinasiga qo'shgan javohirlarini birma-bir sanab ko'rsatolmaymiz. Shunga qaramay, uning asarlaridagi ajoyib dramatik holatlar, qahramonlarning qiyofasini tavsiflash mahorati, hamma komediyalarda sochilib yotgan hazil-mutoyibalar, favqulodda pichinglar, beqiyos so'z o'yinlari, shu bilan birga asarning sodda tili, tomoshabinga ham kitobxonga rohat bag'ishlaydigan lirik parchalar – Aristofonning nihoyatda ulkan san'atkorligidan darak beradi. Aristofon komediyalarida ifoda etilgan o'tkir siyosiy satira rus olimlari tomonidan yuqori baholangan. V.G.Belinskiyning nazarida Aristofon – eng olijanob, g'oyat musaffo va Yunonistonning eng so'nggi ulug' shoiri bo'lgan. N.G.Chernishevskiy bo'lsa o'zining “sof san'at” tarafdorlariga qarshi olib borgan kurashlarida ko'pincha Yunon shoirining asarlariga murojaat qilgan. Jahon Tinchlik Kengashining tashabbusi bilan butun progressiv insoniyat 1954 yilda Aristofanning 2400 yillik yubileyini o'tkazdi. Bu tantana yunon komediyanavisining jahon madaniyatiga qo'shgan hissalarini taqdirlash va tinchlik kuychisi sifatida qilgan xizmatlarini ulug'lash alomati edi. Dunyo davlatlarining ba'zi birlari urush olovini yoqayotgan bir paytda tinchlikning tolmas kurashchisi bo'lgan Aristofanning asarlari shu kecha-yu kunduzda alohida ahamiyat kasb etadi.

V-IV asrlarda proza adabiyoti

V asrning ikkinchi yarimlarida she'riy adabiyotning doirasi borgan sayin torayib, prozada yozilgan asarlar soni beto'xtov ortib boradi va keyinchalik, attika davrining oxiriga qadar nasriy shakl yunon adabiyotining yetakchi turi bo'lib qoladi. Bizning zamonda keng rivoj topgan roman hamda hikoya janrlari V asr attika klassik adabiyoti davrida deyarli butunlay bo'lmagan. Shu sababli antik dunyo kishilarining proza haqidagi tushunchalari, hozirgi zamon kishilarining tushunchasiga mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Hozirgi davrda fan sohasiga kiritiladigan tarixiy, falsafiy va boshqa ilmiy asarlarni qadimgi yunonlar estetik zavq uyg'otadigan badiiy adabiyot o'rnida o'qiganlar. Yunonistonda nasr shaklida yozilgan tarixiy, falsafiy va notiqlik asarlari – chinakam badiiy prozaga o'tish yo'lidagi bir dovon bo'lgan.

Asari bizga qadar to'la holda yetib kelgan tarixiy prozaning eng birinchi namoyandasi Gerodotdir. Gerodot taxminan 485 yilda Kichik Osiyodagi Galikarnas shahrida tavallud topgan. Uning otasi ancha badavlat odam bo'lgan. Nima sababdandir ona yurtini umrbod tark etib, hayotining ko'p qismini sayohatda o'tkazadi: Misrni, Eronni, Bobilni, Yunoniston mustamlakasi bo'lgan shaharlarda bo'ladi, ammo uning sevimli oshiyoni Afina bo'lib qoladi. Adib Furiyada 425 yilda vafot etadi. Gerodot o'z asarini “Tarix” ya'ni “tadqiqot” deb atagan. Asar Eron-Yunon urushiga bag'ishlangan. Biroq yozuvchi Eron-Yunon urushi tafsilotlariga o'tishdan oldin, yunonlarga tanish bo'lgan xalqlarning tarixini ham ma'lum darajada aks ettiradi. Bu holat Gerodot asarini jahon tarixi darajasiga ko'taradi. Gerodot chinakam tarixshunoslik ilmi endi-endi paydo bo'lib kelayotgan bir paytda ijod qilgan yozuvchidir. Agar Gerodot asariga e'tibor bersangiz, yozuvchi har qadamda voqealarni to'g'ri va haqqoniy tavsirlashga uringanini ko'rasiz. O'rta osiyo tarixini o'rganish borasida Gerodotning asari ayniqsa juda muhim o'rin tutadi. Muarrix yurtimizning uzoq o'tmishi haqida to'g'ri ma'lumot berib o'tadi.

Uning aytishicha, Kaspiy dengizning sohillaridan boshlab, Sirdaryoning o'rtasiga qadar cho'zilib boradigan keng sahroda massaget deb atalgan ko'chmanchi qabilalar yashaganlar, ular ekin ekmasdan, faqat chorvachilik bilangina kun kechirganlar, hamma asboblarni va qurol-aslahalarni misdan yasaganlar deb yozib qoldiradi. Yana shuni aytish joizki, “Tumaris” qissasi ham shu yozuvchi tomonidan bizning zamonga qadar yetib kelgandir. Tarixiy prozaning ikkinchi vakili Fukididdir. Fukid ijodining farqi shundaki, u ko'z oldida sodir bo'lgan voqealarni yozadi.

Jamoat oldida so'zga chiqib, unga biron narsani tushuntirish yoki isbotlab berish zaruriyati qadim-qadim zamonlardan beri odamlarni dilkashlikka, so'zamollikka rag'batlantirib kelgan. Hatto

Gomer ham o'z poemalarida Nestor, Menelay va Odisseyning gapga nihoyatda chechan bo'lganliklarini qayd etib o'tadi. Notqlik san'atining rivoj topishi uchun jamiyatda so'z erkinligi bo'lishi kerak. Yunonistonda majlislarda, kengashlarda, sud yig'inlarida erkin ravishda so'zlash imkoniyati bo'lgan. Notqlik san'atining ikki turi vujudga keladi: siyosiy notqlik va sud notqligi, keyinchalik uchinchi turi – epidektik, ya'ni tantanali nutq paydo bo'ladi. Notqlik san'atini birinchi marta adabiy janr darajasiga ko'targan va unga ilmiy tus bergan kishilar sofistlar bo'lganlar. Gorchiy hamda Lisiy kabi buyuk zotlar ritorikaning eng mu'tabar kishilari hisoblanadi. Notqlik san'atini yana ham yuksak bosqichlarga ko'targan zot Demosfendir. Demosfen 384 yili Afina shahrida dunyoga kelgan. Demosfen nomi bilan bizga qadar hammasi bo'lib, 61 nutq va 6 maktub yetib kelgan. Olimlarning fikricha shulardan 40 tasi haqiqiy Demosfen ijodiga talluqlidir.

Eramizdan oldingi V-IV asrlarda ilmu-fan taraqqiyoti, san'at, adabiyot, tarix va notqlik sohalaridagi yutuqlar bilan bir qatorda yunon falsafasi ham benihoyat keng rivoj topadi. Qadimgi yunon falsafasi idealizm oqimiga asos solgan kishi Platondir (427-347). Uning falsafasiga ko'ra bizning atrofimizdagi butun borliq va jamiki koinot real haqiqat emas, balki chinakam borliqning g'ira-shira soyasidir, deya o'zining "Davlat" nomli asarida buni isbotlamoqchi bo'ladi. O'zining asarlari bilan Yunon ilmu-fanini, falsafiy bilimlarni barkamol etgan ulug' olim va donish mutafakkir Aristoteldir (384-322). "Poetika" asarida adibning diqqatini ko'proq jalb etgan narsa – tragediya masalasidir. Avtor bu janrni shunday ta'riflaydi: "Tragediya – muayyan hajmda yozilgan, jiddiy va tugallangan, so'z vositasi bilan har bir qismi ayricha bezatilgan harakatga taqlid etish demakdir. Tragediya harakat orqali odamlarning dilida achinish va qo'rquv uyg'otib, ularni shu xildagi sezgilardan musaffo qiladi" deydi.

6-MAVZU:RIM ADABIYOTI

Reja:

- 1.Rim adabiyotining paydo bo'lishidagi tarixiy sharoit.
- 2.Yevropa adabiyotida Rim adabiyotining o'rni.
- 3.Rim komediyasi va Plavt ijodi.

Adabiyotlar:

1. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kkuch. T., Ma'naviyat, 2008.
- 2.Sulaymonova F. "SHarq va G'arb". Toshkent. "O'zbekiston". 1997 yil.
- 3.Komilov N. "Tafakkur karvonlari". Toshkent. "Ma'naviyat". 1999 yil.
- 4.Ch.Aytmatov, M.SHoxonov. "Cho'qqida qolgan ovchining ohi-zori". Toshkent. "SHarq". 1998 yil.

Yunon xalqi o'zining mustaqilligidan ayrilib, ilmu-fan, san'at va adabiyot sohasida to'xtovsiz inqirozga ketayotgan bir davrda, Italiya tuprog'ining g'arbiy qirg'og'ida antik dunyo adabiyotining ikkinchi tarmog'i – Rim adabiyoti paydo bo'la boshlaydi. Yangi adabiyot Italiya yerlarini birlashtirish ishida ko'proq xizmati singan latin qabilasi tilida yaratiladi. Rim adabiyotining tug'ilish, ravnaq topish va nihoyat tanazzulga ketish holatlari ham xuddi yunon adabiyoti singari quldorlik jamiyati sharoitlarida kechgan.

Badiiy ijod sohasida o'z faoliyatini yunonlardan qariyb to'rt-besh asr keyin boshlagan Rim xalqi uchun, darhaqiqat bu borada butun ishlarni iptidosidan takrorlashning hech qanday zaruriyati yo'q edi, albatta.

Rimliklar necha yuz yillar davomida yunon adabiyoti yaratilgan tayyor badiiy meros andozalaridan o'rnak olib, ana shu qimmatbaho namunalar asosida o'zlarining milliy adabiyotlarini yaratadilar. Rim adabiyotining beshigini tabratgan, uni atak-chechak qildirgan va nihoyat voyaga yetkazishda ko'maklashgan kishilar chindan ham Gomer, Evriped, Sofokl, Demosfen, Pindar va yunon adabiyotining boshqa ulug' zotlari bo'lgan. Rim adabiyoti yunon adabiyoti erishgan barcha yutuqlardan va shu bilan birga, ellinizm davri adabiyotining bu xazinaga qo'shgan qator yangiliklaridan to'la-to'kis foydalanib, ham shakl, ham mazmun jihatidan yana bir daraja yuqori bosqichga ko'tariladi va keyinchalik yangi dunyo Yevropa adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatishga

qodir bo'ladi. Qudratli bir adabiyotga aylanadi. Darhaqiqat, uyg'onish davrining qalam ahillari, XVII asr yozuvchilari o'z faoliyatlarida yolg'iz Rim adabiyoti namunalariga taqlid etadilar. Faqat XVIII asrga kelib, burjua gumanistlari (Lessing, Gyote, Shiller) bevosita yunon adabiyotiga murojaat qila boshlaydilar. Binobarin, qariyb asr davomida Yevropa xalqlari badiiy ijodining shakllanishida asosiy rolni yunon adabiyoti emas, balki Rim adabiyoti o'ynaydi.

Eramizdan oldingi IV asrning oxiri – III asr boshlarida Rim davlati Italiya yerlarining asosiy qismini egallab, xuddi Yunonistonda bo'lgani kabi qulchilik asosiga qurilgan demokratik polis tuzumini joriy etadi. III asrning o'rtalarida rimliklarning jahongirlik siyosati tobora kuchayib, ular birin-ketin Italiya tuprog'ining qolmish qismlarini ham zabt etishga kirishadilar. Italiyaning janubiy qirg'oqlarini va Sitsiliya orolini egallash, Rim jamiyati tarixida ayniqsa juda muhim voqea bo'lgan. "Ulug' Yunoniston" nomi bilan shuhrat taratgan bu yerlar qadim zamonlarda ellinlar qo'liga o'tib, ularning mustamlakasi bo'lib qolgan edi. Bosqinchilar ilk marta xuddi shu yerda yuksak yunon madaniyatining shohidi bo'ladilar.

Xullas, yuqorida bayon etilgan urushlar va ularning oqibati o'laroq paydo bo'lgan qator o'zgarishlar natijasida yunon madaniyatining keng miqyosida Rim hayotiga kirib kelish harakati boshlanadi. III asrning o'rtalarida o'z xohishi bilan Rimga ko'chib kelib muhimlashib qolgan yunonlarning soni anchagina bo'lgan. "Ulug' Yunoniston" Rim axtiyoriga o'tgandan keyin va ikkinchi Pun (Karfagen) urushidan so'ng bularning nufuzi yana ortadi.

Rimga kelgan yunonlar o'zlari bilan birga asrlar davomida yetishtirgan ulug' madaniyatlari mahsullarini ham olib keladilar va Rim hayotining hamma sohalarida bab-baravar ta'sir ko'rsatadilar.

Qisqasini aytganda, Rimning madaniy hayotida yunonlarning xizmati sinmagan deyarli hech qanday soha bo'lmagan desak xato qilmaymiz. Ular badavlat xonadonlarda bolalarni tarbiya qiluvchi murabbiy, davlat arboblari qo'lida mirza bo'lib xizmat qiladilar: falsafa, notiqlik bobida saboq beradilar, yangidan rasmga kirayotgan teatrlarda aktyor bo'lib ishlaydilar. Hattoki, Yunonistonda yaratilgan Eney haqidagi afsonani ham Rim davlati rasmiy ravishda qabul qiladi.

Plavt

Ulug' Rim komediyanavisi Tit Makk Plavit (taxminan 250-184 yil) Italiyaning Umbriya viloyatida tug'iladi. Uning hayotiga doir ma'lumotlar juda oz. Borlari ham unchalik inobatga doir emas.

Plavtning nodir poetik mahorati uning asarlarini kattakon tekis yo'ldan Yevropa sahnasiga olib chiqdi. Yangi dunyoning Shekspir, Moler, Goldoni, Lope de Vega, Bomarshe, Lessing kabi dramaturglari Plavt komediyalariga qayta-qayta murojaat qilganlar. Bu hayotiylik qahramonlarning tilida, inchunin, juda yaqqol seziladi. Shoir asarlarining birinchi betidan to oxirgi sahifalariga qadar sochilib yotgan ajoyib xalq iboralari, asrlar o'tishiga qaramay, bizni hamon maftun etadi. Plavtdan keyin yashagan mashhur Rim olimlaridan biri: "Mabodo muzalar lotin tilida so'zlashishni istasalar, ular muqarrar Plavt tilini tanlashar edi", - deb bejis aytmagan. Rim shoirining so'z san'atkorligi haqida izhor qilingan bu tariqa yuksak bahoning to'g'riligiga aslo shubha yo'q. Rim madaniyati va umuman, Rim hayotining turli-tuman sohalariga xos milliy holat va alomatlarini ham to'la-to'kis ruhiga singdirib yuborish – Plavt ijodining asosiy xususiyatidir. Plavt o'z faoliyatini faqatgina komediya doirasi bilan chegaralagan va eng muhimi asarlarning deyarli hammasi bizga qadar yetib kelgan birinchi Rim komediyanavis shoiridir. Uning "Maqtanchoq jangchi" va "Xumcha" komediyalari o'zining badiiyligi va mohiyati jihatidan bir-biridan qolishmaydi. Sahna sirlarini nihoyatda chuqur bilish ham Plavtning eng muhim fazilatlaridandir.

7-MAVZU: O'RTA ASRLAR ADABIYOTI.

Reja:

- 1.Sharq va G'arb qahramonlik eposlarining mushtarakligi
- 2.Fransuz, ispan qahramonlik eposlari.
- 3.Nemis va janubiy slavyan qahramonlik eposlari.

Adabiyotlar:

1. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kkuch. T., Ma'naviyat, 2008.
- 2.Alimuhamedov N. “Antik adabiyot tarixi”. Toshkent. “O'qituvchi”.1975 yil.
- 3.Komilov N. “Tafakkur karvonlari”. Toshkent. “Ma'naviyat”. 1999 yil.
- 4.Ch.Aytmatov, M.SHoxonov. “Cho'qqida qolgan ovchining ohi-zori”. Toshkent. “Sharq”. 1998 yil.
- 5.Sitsiron. “Nutq”. Jahon adabiyoti jurnali. 2005 yil iyun.
6. SH. Normatova. Jahon adabiyoti. T., CHo'lpon, 2008

Reyn , Dunay va Visla daryolari yoqalari va Skandinaviyaning janubiy qismidagi yerlarda qadimgi german qabilalari yashar edilar. Ularda ibtidoiy jamoa tuzumi hukmron bo'lib, asosan, chorvachilik va ovchilik bilan shug'ullanganlar, dehqonchilik esa hali rivojlanmagan edi. Yer qabila jamoasi ixtiyorida bo'lib, u kollektiv ravishda ishlanar edi. Dushman hujum qilgan vaqtda butun qabila birgalanish, unga qarshi kurashardi. Urush ochish, harbiy boshliq tayinlash va boshqa masalalar xalq majlisida hal qilinar edi. Engelsning ko'rsatishicha, qabila-jamoa tuzumidan “harbiy demokratiya” o'sib chiqadi. Urug' boshida xalq majlisi saylagan knyaz turadi. Harbiy ishlarda bevosita rahbarlik qilgan boshliq (gersog) jamoa hayotida katta rol o'ynay boshlaydi.

“Talonchilik ularning maqsadi bo'lin qolgan edi. Agar drujina boshlig'ining o'z joyiga yaqin yerlarda qiladigan ishi qolmasa va boshqa xalqlar yashaydigan joylarda urush bo'lib turgan bo'lsa, u, biror o'lja olish maqsadida, o'z otryadi bilan shu joylarga boradi...”

Yevropada feodal o'rta asrchiligining boshlanishi G'arbiy Rim imperiyasining yemirilish davriga to'g'ri keladi. Urug'chilik jamoa ittifoqlariga birlashgan “varvar” qabilalarining imperiya yerlariga qilgan hujumlari qul va dehqonlar revolyutsiyasining g'alaba qilishiga va eski quldorlik tuzumining yemirilishiga imkon beradi.

Xalqlarning ko'chib yurishi yoki ko'chmanchilik davri deb atalgan bu asrlar to'xtovsiz urushlar urushlar bilan to'lib-toshgan edi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi sharoitida yashagan german qabilalarining xiyla rivojlangan og'zaki adabiyoti bo'lganligi haqida **Yuliy Sezar** (eramizgacha I asrning o'rtalari), **Tatsit** (eramizning I asr oxiri) va boshqa tarixchilarning asarlarida ma'lumotlar bor.

Qadimgi germanlarning mifologik xarakterdagi qo'shiqlarida qabila xudolari, mehnat va qahramonliklar, shuningdek, urug' urf-odatlar aks etgan. Rim imperiyasi qulab, feodal munosabatlari tashkil topa boshlagach, xristian cherkovi xalq qo'shiqlaridagi majusiy qarashlarga qarshi kurash olib boradi, epik asarlarga ham xuddi shu tartibda xristian dini aqidalari ta'siri o'tkaziladi. Natijada Mazkaziy Yevropa germanlarining majusiy urf-odatlar aks etgan epik yozma yodgorliklari yo'qolib ketadi. German qahramonlik eposi XII – XIII asrlarda yozib olina boshlagan. Lekin xattotlar cherkov xodimlaridan iborat bo'lgani sabab, ular bu asarlarga xristianlik qarashlarini kiritganlar.

Bir qancha ertak va qissalarda german qabilalarining gunnlar bilan olib brogan urushlari tasvirlanadi:

Nibelunglarning o'limi haqidagi rivoyatda zolim Attila nibelunglar xazinasini egallash maqsadida burgundlar qiroli Gunter va uning sipohiylarini o'z mamlakatiga mehmonga chaqirib, ularni o'ldiradi. Rivoyatda aytilishicha, Attila o'z ajali bilan vafot etgan. Biroq keyingi epik ertaklarda german asirasi Ildiko akalari uchun qasos olib, Attilani o'ldiradi, deb ko'rsatiladi.

Nemisha “Nibelunglar haqida qo’shiq”da (XII asr) tarixiy voqealar yangi tus oladi, Krimxilda eri Zigfrid uchun o’ch olib, o’z akalarini o’ldiradi. Bu esa urug’chilik qonunlari o’rmini oila tartiblari egallanayotganidan darak berar edi.

Qadimgi german eposi harbiy qahramonlik, urug’ uchun o’ch olish, o’zaro janjallar va shunga bog’liq bo’lgan boshqa sarguzashtlarni aks ettiradi. Ijobiy obrazlar ham axloqiy, ham jismoniy jihatdan ideal qahramonlar, salbiy obrazlar esa qasoskor va jinoyatchi kishilar sifatida tasvirlanadi.

Qadimgi german eposining qabila drujina hayotini aks ettirgan birdan-bir namunasi “Xildebrant haqida qo’shiq”dan qolgan parcha bo’lib, u VIII asrda yozib olingan.

Kelt qabilalarining hayoti va urf –odatlar haqidagi xalq poeziyasi asosida asta-sekin qahramonlik eposi yuzaga keladi. Bu ertaklar davr o’tishi bilan ayrim qo’shiqchilar tomonidan aytiladigan bo’ladi. Qo’shiqchilar ikki guruhga – bardlar va filidlarga bo’linganlar. Bardlar lirik poeziya bilan, filidlar esa asosan qonunlar, qabila urf-odatlarini aks ettirgan epik poeziya bilan shug’ullanib ular qo’shiqchi-hikoyachi deb nomlanganlar.

Filidlar epik hikoyalarni sistemalashtirganlar. Ular, ayniqsa, qish kechlari knyaz saroyida qahramonlarning o’tmish sarguzashtlari haqidagi hikoyalarni aytganlar. Bu qissalar nasriy uslubda bayon qilingan. Shuning uchun ular keyinroq **“saga”** (qissa) nomini olgan. Filidlar sagadagi tasvirlar orasiga she’riy parchalar kiritib, uning ta’sir kuchini oshirganlar. Sagalar qabiladan-qabilaga o’tib, uzoq vaqt saqlanib qolgan. Irland sagalarini VII –VIII asrlarga yozib olgan monaxlari Rimga tobe bo’lmaganliklari tufayli, sagalarni unchalik ko’p o’zgartirmaganlar. Shuning uchun irland sagalarida majusiy urf-odatlar, qabila hayotining qoldiqlari ravshan ifodalangan.

Kelt (irland) qissasi . Irlandiya qadimgi kelt madaniyatining markazi edi. Kelt qissalari syujetining xilma-xilligi, mazmundorligi, tilining ryonligi qahramonlar ruhiy holatining yorqin tasviri bilan ajralib turadi. Irland eposining eng qadimgi qismi ulad siklidagi qissalardir. Bu qissalar Shimoliy Irlandiyada yashagan *ulad* qabilalari o’rtasida yangi asrning boshlarida nasriy uslubda yuzaga keladi.

Qissalardagi voqea ulad qiroli Konboxar, uning jiyan paxlavon Kuxulinning hayoti va sarguzashtlatiga bog’liq ravishda rivojlanib boradi. Irland eposida o’zaro qonli urushlar, qabila odatlari, ularning urug’chilik davri xudolariga e’tiqodi va boshqalar aks ettiriladi. Bu eposning dastlabki namunalaridan biri “Usnex o’g’illarining quvilishi”dir.

“Uspex o’g’illarining quvilishi”. “Uspex o’g’illarining quvilishi” juda keng tarqalgan irland qissalaridan biri bo’lib, keltlar tomonidan yaratilgan ajoyib badiiy yodgorlikdir. Qissaning mazmuni “Tristan va Izolda” haqidagi hikoyaga yaqin turadi. Qissaning qadimiyligi shundan ham ma’lumki, hali hikoyada qahramon Kuxulinni tilga olinmaydi, butun voqea uning tog’asi qiroli Konboxar haqida boradi. Bu qissaning asl nusxasi va og’zaki variantlari mavjuddir.

Kuxulin haqida qissalar. Kuxulin haqidagi sagalar Kuxulinning tug’ilishi haqidagi qissa bilan boshlanadi. Qissada tasvirlangan urf-odatlar uning juda qadimgi davrga xos ekanligidan dalolat beradi. Kuxulinning kelib chiqishi haqida turli afsonalar bor. Bir rivoyatda Kuxulin Konboxarning singlisi Dextri bilan Lug (qadimgi kelt afsonalarida nur xudosi)ning o’g’li deb ko’rsatiladi; unda Setanta ismli bu bolaning yoshligidanoq tengdoshlaridan kuchli v chaqqon bo’lganligi hikoya qilinadi.

Konboxar va uning jangchilari temirchi Kulannikiga ziyofatga boradilar. Bola ham Kulannikiga qarab yo’l oladi. Kulanning juda zo’r iti bolaga hujum qiladi. Olti yoshli Setana sopqondan tosh otib, itni o’ldiradi. Kulan itning o’rniga saroyini bir necha vaqt qo’riqlab berishni talab qiladi, bolaning Kuxulin(Kulan iti) nomini olishi shu vaqtdan boshlangan. Kuxulin zabardast, chaqqon va go’zal yigit bo’lib o’sadi. U irland ayollarining diqqatini o’ziga tortadi. Uladlar yigitga munosib qalliq axtaradilar. Munosib qiz topilmagach , Kuxulinning o’zi qiz axtarishga kirishadi. Qiz topish uning birinchi qahramonlik kurashi bilan bog’langan.

Kuxulin Lug bog’ida Emer ismli qizni uchratib, u bilan suhbatlashadi. Ular bir-birlarini sinash uchun savollar beradilar. Kuxulin go’zal, don ova chevar Emirni sevib qoladi. Biroq qizning otasi Forgal yigitni halok etish maqsadida unga xavfli va nihoyatda og’ir topshiriq beradi. (Shu o’rinda Kuxulinning harbiy jnglarda chiniqishi hikoya qilinadi.)

Kuxulin xatarli yo'ldan o'tib, ko'p to'siqlarni yengib, Skatax eliga boradi, u yerda qahramon ayol qo'lida jangovarlik mahoratini oshiradi. Bu elga hujum qilgan dushman askarlarig ham zarra beradi. Kuxulin ko'p dushmanlarni yengib, Emirga erishadi va uni Konboxar saroyiga olib borib, baxtli turmush kechiradi. Kuxulin 17 yoshga kirganida juda katta qahramonlik ko'rsatadi.

Konnaxt qirolichasi Medb uladlarning zo'r bir buqasini tortib olish bahonasida ularga hujum qiladi. Bu vaqtda butun ulad sehrli dardga chalingan edi. Faqat Kuxulin, go'yo ilohiy avlodga mansub bo'lganidan, kasal bo'lmaydi. Shuning uchun yolg'iz Kuxulinning o'zi butun Irindiyaning uch oy davomida dushman qamalidan himoya qiladi, daryo kechigida turib olib, sehrgarlik bilan dushman askarlarini yakkama-yakka kelishga majbur etadi va ularni birma-bir mag'lubiyatga uchratadi. Uladlar kasallikdan tuzalib, yordamga kelganlaridan keyin, dushman butunlar tor-mor etiladi.

Bu voqea aks etgan "Kualngedan buqa o'g'irlash" qissasida Kuxulinning matonati, aqli va qahramonligi to'la gavdalangan. Bu epos o'z mazmuni bilan grek eposi "Iliada"ga o'xshaydi. Lekin itilof ayol uchun emas, buqa tufayli yuzaga kelishi bilan farq qiladi.

"Kuxulinning Feriad bilan jangi". "Kuxulinning Feriad bilan jangi" qissasi Kuxulinning qahramonligiga bag'ishlangan. Hayot yo olim uchun kurashgan Kuxulin zo'r paxlavongina emas, chinakam inson ham edi. Kuxulin Ferdiad mening qo'l va oyoqlarimni qirqib tashlaganda ham, uning tirik qolishini istar edim, deyishi uning do'stiga bo'lgan vafodorligiga ajoyib dalildir. Kuxulin Ferdiadning qirolichasi Medb nyranglari qurboni bo'lganidan qattiq iztirob chekadi.

Fransuz qahramonlik eposi.

Qadimgi fransuz poeziyasining ilk namunalari mehnat, jangovar yurish, maishiy hayot, diniy urf-odat va nikoh masalaalriga bag'ishlangan qo'shiqlar shaklida bunyodga kelgan. Xalq hayotidagi alohida voqealarni gavdalantirgan bunday qo'shiqlardan epik dostonlar tarkib topgan. Kollektiv ijodning samarasi bo'lgan va sevgi sarguzashtlari, qahramonona kurashlarni aks ettirgan bunday dostonlarda xalqning hayotim, orzu-umidlari o'z ifodasini topgan. Bu qo'shiqlar mazmun e'tibori bilan asosan uch siklga bo'linadi. Birinchi – karolinglar siklidagi qo'shiqlarda mamlakatning tashqi va ichki dushmanlariga qarshi kurashgan qiroli obrazi namoyon bo'ladi. Ikkinchi – Gilgom d Oranj haqidagi poemalar siklidagi vatanga sadoqat hissi bilan to'lgan lekin mamlakatning birligini saqlashda ojizlik qilayotgan monarx (qiroli)ga yordam berishga tayyor turgan qobiliyatli vassal-qahramon obrazi aks etadi. Doona de Mayans nomi bilan yuritiladigan uchinchi sikl ("Raul de Kambre", "Lotaringlar" deb ataladigan poemalar) de es bir-birlari bilan qonli urushlar olib boruvchi, shuningdek, qiroлга qarshi kurashuvchi isyonkor feodallar tasvirlanadi, ularning xatti-harakatlari qoralanadi.

Karolinglar siklidagi qo'shiqlarda va umuman butun fransuz qahramonlik eposida "Roland haqida qo'shiq" juda katta o'rin egallaydi.

"Roland haqida qo'shiq". Qo'shiqning yaratilish tarixi.

Xalq badiiy ijodining ajoyib namunasi sifatida ma'lum va mashhur bo'lgan "Roland haqida qo'shiq" 4002 misradan iboratdir. Poemaning dastlabki nusxasi Oksford teksti hisoblanadi. U Angliyada 1170-yillarda yozib olingan. Poemaning o'zi XI asr oxiri va XII asr boshlarida yaratilib, asrlar davomida og'izdan-og'izga o'tib kelgan, u so'nggi davrlarda badiiy tomondan mukammallashtirilib ixcham shaklga keltirilgan.

"Qo'shiq"da frnklar qiroli Karlning mavr-saratsinlar bilan olib brogan jangi, dushman tomonidan o'ldirilgan qahramon Roland uchun qasos olishi hikoya qilinadi. Poemaning g'oyaviy mazmuni uning negizida yotgan tarixiy voqelar tavsifida ravshanlashadi. Bag'dod xalifasi tarafdorlari Karlga murojaat qilib, Ispaniyada mustaqil musulmon davlati o'rnatgan Abdurahmonga qarshi kurashda undan madad so'raydilar. Ispaniya marvlarining o'zaro janjaliga aralashgan Karl 778-yilda Pireniy tog'laridan o'tib, ko'p yerlarni egallaydi. Karlning Shimoliy Ispaniyaga yurishi muvaffaqiyatsiz yurishi diniy kurash bilan sira aloqador bo'lmaganligiga qaramay, qo'shiqchi-hikoyachilab bu voqeani g'ayri dindagi arablar bilan bo'lgan yeti yillik urushga bog'laydilar. Karl qo'shining Ronseval darasidagi halokatini ham bask –xristianlarning hiyonati emas, balki ispan arablarining yovuz dushmanligi, deb ko'rsatadilar.

Poemadagi voqea VIII asrga oid bo'lsa ham, lekin uning mazkur asarda badiiy ifodalanishi, og'izda-og'izga o'tib mukammallashishi ikki-uch asr yuzini ko'radi, bu davrlarda esa Yervopa feodallarining ispan marvlariga qarshi kurashi, fransuz monaxlarining "g'ayridin"larga qarshi salib yurishi davom etayotgan edi. Poemadagi vatanparvarlik g'oyasining diniy qobiqqa kirib qolishi ham shu bilan izohlanadi.

Asosiy obrazlar. "Qo'shiq"da Fransiya yagona bir davlat sifatida qadrlanadi, uning imperatori Karl, "aziz Fransiya" uchun jon fido qilgan qahramon Roland ulug'lanadi.

Feodl tarqoqlik hamda o'zboshimchalik hukm surgan bir vaqtda mamlakatning birligini tiklash uchun jafokash ommaning markazlashgan hukumat atrofiga uyushtirilishi ijobiy hodisa edi, shuning uchun ham F.Engels ta'kidlaganidek, qirollik hokimiyati "tartibsizlik ichida tartib vakili edi".

Qo'shiqda voqealar xalq eposiga xos tarzda mubolag'a bilan beriladi, qahramonlar (Roland, Oliver, Karl) favqulodda qudratli, zabardast qilib ko'rsatiladi.

Roland o'z syuzerni sodiq vassal, har qanday og'ir vaziyatda ham vatanini himoya qilishdan qaytmaydigan, qahraton sovuqqa ham, jazirama issiqqa ham bardosh beradigan mard va jasur jangchidir. Rolandning jo'shqin vatanparvarligi sotqin feodal Ganelonning munofiqligiga qarama-qarshi qo'yiladi.

"Qo'shiq"da muhim o'rin tutgan Ganelon obrazida zamonning siyosiy ziddiyatlari va feodal o'zboshimchaliklari qoralanadi.

Ispan qahramonlik eposi. VIII asrda Ispaniyani bosib olgan marvlar (arablar) Pireniy yarim orolida qudratli davlat barpo etadilar. Ispaniyaning zabt qilinmagan shimoliy qismida VIII - IX asrlar davomida Asturiya va Navarra davlatlari mustahkamlana boshlaydi.

Rekonkista harakatida turli ijtimoiy qatlamlar, ayniqsa dehqonlar katta hissa qo'shadilar. Xalq ommasidagi vatanparvarlik hissi pomeschiklarga qaramlikdan ozod bo'lish harakati bilan qo'shilib ketadi. Dehqon, kosib va mayda ritsarlar hamma vaqt jangovar vaziyatda turadilar. Dushmanidan ozod etilgan viloyatlarning chegaralarini qo'riqlaydilar. Biroq ozod etilgan olingan o'ljalari asosan feodal va ruhoniylar qo'lga qarar edi.

Ispaniyada yuz bergan ijtimoiy-siyosiy hodisalar, feodallar o'rtasidagi o'zaro janjallar, arablarga qarshi rekonkista harakati ispan qahramonlik eposida o'z ifodasini topadi. Sid haqidagi romanlar va poema ("Mening Sidim haqida qo'shiq") qadimgi ispan xalq poeziyasining ajoyib namunalaridir.

Sid tarixiy shaxs bo'lib, uning asl ismi Rodrigo (Ruy) Dias. Sid esa uning laqabidir. O'z qaramog'ida marvlar bo'lgan ispan senyorlariga shunday nom berilgan. Sid 1040-yilda Kastiliya zodagonlari oilasida tug'ilgan. U qirolning yaqin ayoni va qo'shin boshlig'i sifatida marvlarga qarshi kurashida qatnashgan.

Butun Ispaniyani dushmanidan ozod etish janglarida ko'p qahramonliklar ko'rsatgan Sid 1099-yilda vafot etadi.

Sid rekonkista harakatining yirik arbobi, Ispaniyaning mustaqilligi uchun kurashgan milliy qahramon sifatida mashhurdir.

"Sid haqida qo'shiq". "Qo'shiq"ning yaratilish tarixi.

Mamlakatda rekonkista harakati avj olgan bir davrda yaratilgan ispan xalq qahramonlik eposining ajoyib yodgorligi "Sid haqida qo'shiq"dir. Bu "Qo'shiq" 1140-yillarda bunyodga kelgan bo'lib, uning XIX asr boshlarida yozib olingan qo'l yozma nusxasi saqlangan. "Qo'shiq" tadqiqotchilar tomonidan uch qismga bo'lingan.

Birinchisi – "Quvilish haqida qo'shiq". Unda qirol Alfons bilan janjallashib qolgan Sidning quvilishi tasvirlanadi. Lekin bu voqeaning sabablari bayon etilgan asarning bir qismi saqlanmagan.

Qahramonning hayoti va faoliyati tavsifida fantaziya kuchli bo'lib, tarixiy voqelikdan ancha uzoqday ko'rinsa ham, lekin poema o'sha davr ruhini chuqur aks ettirgan, ya'ni unda rekonkistada qatnashgan keng xalq ommasining vatanparvarlik ruhi sezilib turadi. Bu ularning faqat marvlarga qarshi kurashidagina emas, tashqaridan bo'ladigan har qanday tazyiqlar, fransuz hukmronlarining Ispaniyada feodal tartiblarini o'rnatishi va shu orqali eng yaxshi yerlarni qo'lga kiritishiga qarshi noroziliklarida ham o'z ifodasini topadi. Shuningdek, bu ruh kuchsiz va tamagir qirolga shubha

bilan qarashda ham yaqqol ko'rinadi. Oddiy kishilarga samimiy munosabat, g'amxo'rlik, mardlik va qahramonlik Rodrigoda ritsarlik intilishlaridan ko'ra kuchliroqdir. Shuning uchun ham uning laqabi arablar bilan munosabatni ko'rsatadigan Sid ham emas, bahodirligini bildiradigan Kampeodor ham emas, balki oddiy kastiliyalikdir.

Buyuk Karl monarxiyasi yemirilgandan so'ng X asr boshlarida Germaniya mustaqil davlat sifatida ajralib chiqdi. To'rt gersoglikdan tashkil topgan bu mamlakatda feodal tarqoqlik hukm surar edi. Mazkur viloyatlar frank davlati tarkibida ekanligidayoq feodallashish jarayoni boshlangan edi. Lekin bu hodisa hamma yerda bir vaqtda yuz bermadi. Germaniyaning birmuncha rivojlangan yerlarida ham bu jarayon uzoq davom etib, XI asr oxiri XII asr boshlariga kelib tugallandi. Qadimgi nemis adabiyotining yodgorliklari hu davrning mahsuli bo'lib, bu yodgorliklarda yuzaga kelayotgan feodal jamiyatdagi hayot va kurashlar o'z ifodasini topgan. Nemis ritsarlari dunyoviy adabiyoti feodalizm eng taraqqiy etgan Fransiya, shuningdek, boshqa mamlakatlar qahramonlik eposining qadimgi traditsiyalari bilan bog'liq ravishda yuzaga kelgan. Nemis eposida xalq og'zaki ijodidagi rasm-odat qo'shiqlari ritsarlik ruhida qayta ishlanadi. Drujina qo'shiqchisining o'rnini feodal sharoitida professional kuychi – shpilmanlar egallaydi. Ular o'tmish qahramonlari va qirollari haqida qo'shiq va dostonlar aytganlar. Ba'zan bu qo'shiqlarga xristianlik ruhi singdirilgan.

Shunday qilib, qahramonlik eposi va uning harbiy tematikasi yangi ma'no kasb etadi. Zigfridning qahramonliklari, nibelunglarning halokati, Ditrix Bernskiy haqidagi ertaklar katta poemalar shaklida qayta ishlanadi. Endi ular qo'shiq qilib aytish uchun emas, balki shpilman tomonidan o'qib berishga moslanadi.

“Nibelunglar haqida qo'shiq” 1200-yillarda yaratilgan bu poema nemis qahramonlik eposining yirik yodgorligi bo'lib, u xalqlarning ko'chmanchilik davridagi hayoti, qahramonlik va jangovor yurishlarini aks ettirgan ertak va afsonalarni qamrab olgan. Poemaning qahramonlari mard, sodda odamlar sifatida tasvirlanadi. Bosh qahramon Ditrix bekorga qon to'kishni istamaydi. U adolat bilan ish ko'radi, zaruriyat tug'ilgandagina kuch ishlatadi. “Nibelunglar haqida qo'shiq”, “Gudruna”da kurtuaz-saroy adabiyoti uslubi sezilib turadi.

8-MAVZU:JAHON ADABIYOTIDA UYG'ONISH DAVR ADABIYOTI

Reja:

1. Sharq va G'arb uyg'onish davrining uzaro mushtarakligi
2. Evropa uyg'onish davri adabiyoti.
3. Italiya uyg'onish davri adabiyoti.
4. Dante ijodi va uyg'onish davr adabiyoti.

Adabiyotlar:

1. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kkuch. T., Ma'naviyat, 2008.
2. Alimuhamedov N. “Antik adabiyot tarixi”. T.: “O'qituvchi”. 1975 yil.
3. Sulaymonova F. “Sharq va G'arb”. T.: “O'zbekiston”. 1997 yil.
4. Kun N.A. “Qadimgi Yunoniston afsona va rivoyatlari”. Toshkent. 1983 yil.
5. Mahmudov M. “Hayrat va tafakkur”. Toshkent. G'.G'ulom. 1990 yil.
6. Sh. Normatova. Jahon adabiyoti. T., Cho'lpon, 2008.

Feodalizm sharoitida shakllana boshlagan kapitalistik munosabatlar G'arbiy Yevropada

Renessans (Uyg'onish) harakatiga asos bo'ldi. Madaniyat tarixida Renessans nomi bilan yuritiladigan bu harakat dastlab Italiyada (XIV asr) va ko'p o'tmay Yevropaning qolgan mamlakatlarida ham yuzaga kelgan. “Renessans” so'zi frantsuzcha bo'lib, o'rta asrlar madaniyati, adabiyoti va san'atidagi buyuk o'zgarishlar davrini anglatadi. Antik madaniyat barham topgandan

so'ng o'n asrdan ortiq vaqt o'tgach, g'arb tafakkurida yana bir ulkan ko'tarilish, yangilanish ro'y berdi, shu sababli ham bu davrni Uyg'onish davri deb ataydilar. Yevropada Uyg'onish davri XIV asrning ikkinchi yarmidan boshlab, XVII asr gacha davom etdi. Renessans ilm-fan, madaniyat va san'atda o'zini namoyon qildi. Uyg'onish davrining buyuk namoyondalari inson shaxsini ulug'laydilar, uning qadr-qimmatini, his-tuyg'ularini qadrlaydilar, qoloq urf-odatlariga qarshi chiqadilar, ruh erkinligini yuqori qo'yadilar. Uyg'onish davri vakillarini gumanistlar ham deb ataganlar. Gumanistlar antik adabiyotga alohida hurmat bilan qaraganlar. Ular Rim va yunon adabiyotiga yuqori baho berganlar, Gomer dsotonlarini nashr qildirganlar. G'arbiy Yevropada tashkil qilingan universitetlarda qadimgi – lotin, grek, yahudiy tillari o'qitilgan. Uyg'onishning boshlanishi Italiyada namoyon bo'ldi, uning ilk yirik vakili Dante hisoblanadi. Keyinchalik Petrarka she'rlari, Bokachcho hikoyalari bu davrga xos asosiy belgilar – mavhum ramziy obrazlar o'rnini realistik obrazlar egallashi, voqelikni asliga muvofiq tasvirlashga intilish kabilar ko'zga tashlanadi. Bu harakat keyinchalik butun Yevropaga tarqaldi, Leonardo da Vinchi, Jordano Bruno, Kopernik, Ravle la Servantes kabi yirik mutafakkir va ulug' yozuvchilarni yuzaga keltirdi. Renessans G'arbiy va Markaziy Yevropa mamlakatlari madaniyatidagi o'rta asrlardan yangi davrga o'tish bosqichini anglatadi. Nemis faylasufi Gegel "Falsafa tarixi" da Uyg'onish davrini "tong yog'dusi" deb atagan edi.

Uyg'onish davri muhim xususiyatlari inson shaxsini ulug'lash, kishi ongini din sarqitlaridan tozalash, tabiat va jamiyatni esa inson manfaatlariga xizmat ettirishda aks etadi. Cherkov inson qadr-qimmatini, his-tuyg'ularini rad etib, uning dunyo lazzatlaridan bahramand bo'lish istagini yomonlik, aql-idrok hukmronligini esa kishini halokatga mag'rurlikka olib boruvchi qo'pol his deb qoralaydi. Uyg'onish harakati esa insonning ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan ozod bo'lishi g'oyasini himoya qiladi. Uning qadr-qimmatini, aqli va qobiliyatini to'la tan oladi. Uyg'onish davrining xususiyatlaridan yana biri optik madaniyatga munosabat masalasida namoyon bo'ladi. Gumanistlar antik davrga qaytish maqsadida emas, balki o'zlarining ilg'or fikrlarini asoslash va kelajakka ishonch bilan qadam tashlash uchun uzoq o'tmishning ulug' siymolari ijodiga murojaat qiladilar. O'rta asr jaholatparastligi, feodal-cherkov ideologiyasiga qarshi kurashda qadimgi davrning dunyoviy xarakteridagi adabiyoti va san'ati katta madad bo'ladi.

Yevropa Uyg'onish harakatining vatani Italiya hisoblanadi. Italiya Renessansi Yevropaning boshqa mamlakatlaridagi ijtimoiy harakatga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Frantsuz, nemis va ispan gumanistlari antik madaniy merosni bevosita o'rganishlari bilan bir qatorda, uni italyan mutafakkirlarining asarlarini o'qish orqali ham o'zlashtiradilar. Birinchi bo'lib Italiya shaharlarida oliy yuridik maktablarining paydo bo'lishi diqqatga sazovordir. XII asrda mashhur Bolonya universiteti tashkil etildi.

Mamlakat madaniy hayotida misli ko'rilmagan yangiliklar yuz bera boshladi. XII-XVI asrlar mobaynida Italiya shaharlarida 22 ta universitet ochildi: ularda ilohiyot ilmi emas, balki huquqshunoslik, meditsina fanlari o'rgatiladi.

Uyg'onish davri adabiyotida tabiat manzarasini tasvirlash ham yangi ma'no kasb etadi. Bunday manzara Dante ijodidagi singari shoirning ruhiy holatini simvallashtirmaydi, balki o'zining cheksiz go'zalligi bilan inson his-tuyg'usini qo'zg'atuvchi va unga orom beruvchi manbaga aylanadi. Uyg'onish davri yozuvchilari ijodida inson va uni o'rab olgan muhit, kishining cheksiz imkoniyatlari va qizg'in ehtiroslarini atroflicha aks ettirish muhim o'rin tutadi. Petrarkaning sonetlari, Bokachcho hikoyalari shunday ruh bilan sug'orilgan asarlardandir.

Dante Aligberi (1265-1321) Renessansning jarchisi, Florentsiyada eski dvoryan urug'iga mansub oilada tug'iladi. Dante ijodini she'rlar yozishdan boshlagan. Arab faylasufi Ibn Rushdning ta'limotidan ta'sirlangan. XIII asr italyan lirikasiga lotin adabiyoti bilan bir qatorda arab she'r tuzilishi ham ta'sir etgan. Dante ijodida ham buni kuzatish mumkin. Uning eng yaxshi she'rlari "Yangi hayot" to'plamidan joy olgan.

"Ilohiy komediya" – Dante ijodining cho'qqisi hisoblanadi. Adib o'z asarini "Komediya" deb atagan. Yozuvchi vafotidan keyin "Ilohiy" so'zi qo'shilgan, bu esa asarning badiiy jihatdan yuksak asar ekanini ifodalash uchun qo'yilgan.

Xristian dinida ko'rsatilganidek, yozuvchi "nargi dunyoni" uch qism – "Do'zax", "A'rof" va "Jannat" ga bo'lgan. Asarning har bir qismi 33 qo'shiqdan tuzilgan, kirish qismi esa bir qo'shiq, hammasi bo'lib 100 qo'shiqdan iboratdir.

Dante tasvirlagan "Do'zax" (asarning birinchi qismi) yer markaziga voronka shaklida uyib tushirilgan joy bo'lib, unda 9 pog'onali chuqurlik bor. Gunohkor jonlar shu pog'onali chuqurlikda azob chekadilar. Pastki pog'onaga tusha borgan sari jon qattiqroq azoblanadi. Muhimi shu yerdaki, Dante o'zining siyosiy muholiflarini do'zaxga tashlaydi, ayniqsa, xristian dini ruhoniylarini qattiq qoralaydi va ularni do'zaxning so'nggi pog'onalariga joylashtiradi.

Dantening tasviricha, "A'rof" (poemaning ikkinchi qismi) yer kurrasiga qarama-qarshi joylashgan. Yer bilan uni katta okean ajratib turadi. Okean o'rtasidagi orolda baland tog' bor. Tog' yetti pog'onali bo'lib, ulardan o'tib borayotganda aybdorning bittadan gunohi yuviladi, yetti pog'onadan ko'tarilganda, yetti gunoh (mag'rurlik, ichi qoralik, g'azab, umidsizlanish, tamagirlik, mechkaylik, buzg'unchilik) yo'qoladi va u jannatga chiqadi. "Jannat" ham 9 qavatga bo'linadi, jon qancha yuqori pog'onaga ko'tarilsa, u go'yo xudoning shuncha ko'p marhamatiga muyassar bo'ladi.

Poemaning birinchi ("Do'zax") qismi, uning ikkinchi va uchinchi qismlaridan badiiy tomondan yuqori turadi, chunki unda dunyoviy ehtiroslar bilan bog'liq bo'lgan voqealar aks etadi. Dantening kuchli realistik tasvirlashga mohirligi ham hammadan ko'ra birinchi qismda ravshan ko'rinadi. Kishi obrazlari va ularning ehtirosli his-tuyg'ulari juda qisqa iboralar orqali ochiladi. Ular yer yuzida qanday xarakterga ega bo'lsalar, do'zaxda ham shu xususiyatlari bilan gavdalanadi. Dante tabiat hodisalarini tasvirlashga alohida ahamiyat beradi. "Do'zax" dagi qayg'uni aks ettirgan bo'yoq va zulmat "A'rof" da ochiq va moviy osmon bilan almashadi. Dante "Jannat" dagi bog'larni o'z vatanidagi yashnagan go'zal bog'lar bilan taqqoslaydi. Tabiatni yaqindan his qilish shoirning yangi tipdagi yozuvchi ekanligidan dalolat beradi. Dantening "Ilohiy komediya" poemasi, shubhasiz, dunyo adabiyotining nodir asarlari qatoridan o'rin olgan.

Dantening "Ilohiy komediya" sining kompozitsiyasi puxta ishlangan. Asar tuzilishida uchlik (poemaning uch qismdan tashkil topishi, uch yirtqich hayvon, iblisning uch yuzliligi, hatto she'rларning tertina – uch misrali ekanligi) bunga misol bo'la oladi. Dantening "Ilohiy komediya" asari zamonasiga oid masalalarni ramziy – majoziy usullar orqali aks ettirdi, inson va voqelik haqida yangi so'zni aytadi, shu tariqa butun O'rta asr madaniyatiga falsafiy – adabiy yakun yasadi.

Italiya Uyg'onish adabiyotining ikkinchi yirik vakili Jovanni Bokachcho (1313-1375) olim va adib bo'lib, novella janrini yuqori bosqichga ko'tardi. Bokachcho Parijda tug'iladi, onasi vafot etgach, u Italiyaga olib ketiladi. Bokachcho Florentsiya bilan Neapolda o'sib ulg'aydi. Bokachchoning eng muhim asari "Dekameron" (1352-1354) hikoyalar to'plamidir. Gumanistik g'oyalar va voqelikni realistik tasvirlovchi "Dekameron" o'rta asr diniy aqidalariga qattiq va ayovsiz zarba bergan Uyg'onish davrining birinchi yirik asaridir.

Hikoyanavisning yangi Uyg'onish davri fikrlarini targ'ib qilishi, kishini tabiatan "gunohkor" deb ko'rsatuvchi katolik cherkovi aqidalarini fosh etishdan boshlanadi. "Dekameron" da yuzta novella bor. Ular ma'lum tartibda joylashtirilgan, novellalarning biri ikkinchisiga maxsus ulovchi hikoyalar vositasi bilan bog'lanadi. Bunday adabiy usul qadimgi sharq ("Ming bir kecha") va antik ("Metamorfozalar") adabiyotida ham qo'llangan, lekin ularda bog'lovchi hikoyalar, vaziyatni izohlash, jazoni keyinga cho'zish uchun kiritilar edi. Bokachcho esa bog'lovchi yangi novellalarda hayotiy voqealarni, xarakterlarni tasvirlashga katta e'tibor beradi.

1348 yilda Florentsiyada dahshatli o'lat kasali tarqalib, bu kasal juda ko'p kishilarning yostig'ini quritadi. Epidemiya sog' qolgan kishilarning xulq-atvoriga ta'sir etmay qolmaydi. O'rta asr diniy urf-odatları, narigi dunyo azoblari haqidagi uydirmalar yana avjiga chiqadi. Shunday og'ir vaziyatda Bokachcho yangi fikrlarni targ'ib qiladigan asar yaratishni mo'ljallaydi va "Dekameron" nomli asarini yaratadi. Bu asar o'lat kasalining tarqalishini tasvirlash bilan boshlanadi.

Asarning kirish qismida bir to'da florentsiyalik qiz va yigitlarning o'latni boshqacha, ya'ni dadillik bilan qarshi olishi haqida hikoya qilinadi. Ular o'lat va vahimani o'yin, kulgi bilan emas, balki aql-idrok bilan yengishga intiladilar. O'lat tarqalgan shahardan chiqib ketgan yetti yosh qiz va uch yigit shahar yaqinidagi bog'i Eramga borib, o'z vaqtlarini xushchaqchaqlik bilan o'tkaza

boshlaydilar. Ular o'n kun turadilar. "Dekameron" so'zi ham shundan kelib chiqqan (dekameron – grek, o'n kunlik demakdir).

Bokachcho muhabbat yo'lida mardona kurashgan qahramonlarni himoya qiladi. Chin sevgini kuylash, katolik ruhoniylarning buzg'unchiliklarini osib tashlash, oddiy kishilarning harakatini ma'qullash "Dekameron" dagi novellalarning asosiy mavzusidir. Bokachchoning "Dekameron" asari xalq ongini o'sishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Adib bu o'lmas asari bilan mangu barhayotdir.

9-MAVZU:G'ARBIY EVROPA UYG'ONISH DAVR ADABIYOTI

Reja:

1. Evropa uyg'onish davrining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Ispaniyada uyg'onish davr adabiyoti.
3. Fransiya uyg'onish davr adabiyoti.
4. Angliyada uyg'onish davr adabiyoti.

1. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kkuch. T., Ma'naviyat, 2008.
2. Alimuhamedov N. “Antik adabiyot tarixi”. T.: “O'qituvchi”. 1975 yil.
3. Sulaymonova F. “Sharq va G'arb”. T.: “O'zbekiston”. 1997 yil.
4. Kun N.A. “Qadimgi Yunoniston afsona va rivoyatlari”. Toshkent. 1983 yil.
5. Mahmudov M. “Hayrat va tafakkur”. Toshkent. G'.G'ulom. 1990 yil.
6. Sh. Normatova. Jahon adabiyoti. T., Cho'lpon, 2008.

Feodalizm sharoitida shakllana boshlagan kapitalistik munosabatlar G'arbiy Yevropada Renessans (Uyg'onish) harakatiga asos bo'ldi. Madaniyat tarixida Renessans nomi bilan yuritiladigan bu harakat dastlab Italiyada (XIV asr) va ko'p o'tmay Yevropaning qolgan mamlakatlarida ham yuzaga kelgan. “Renessans” so'zi frantsuzcha bo'lib, o'rta asrlar madaniyati, adabiyoti va san'atidagi buyuk o'zgarishlar davrini anglatadi. Antik madaniyat barham topgandan so'ng o'n asrdan ortiq vaqt o'tgach, g'arb tafakkurida yana bir ulkan ko'tarilish, yangilanish ro'y berdi, shu sababli ham bu davrni Uyg'onish davri deb ataydilar. Yevropada Uyg'onish davri XIV asrning ikkinchi yarmidan boshlab, XVII asr gacha davom etdi.

Migel Servantes de Saavedra 1547- yil 29- sentabrda Ispaniyaning Alkala de Enares shahrida tug'ilgan. Uning otasi Rodrigo de Servantes tabiblik bilan shug'ullanar edi. U qadimiy, biroq tanazzulga uchragan dvoryanlarsulolasiga mansub edi. Bunday oiladan chiqqan kishini idalgo deb atar edilar. Servantesning bobosi Andaluziyada yuqori mansabni egallagan, Kordobaning alokaldi lavozimini ado etgan. Biroq yozuvchining otasi hech qanday mavqega ega emas oddiy tabib edi, buning ustiga qulog'i yaxshi eshitmas edi. Servantesning onasi ham kambag'allashib qolgan dvoryanlardan edi. Bo'lajak yozuvchi oiladagi yetti farzandning to'rtinchisi edi. Otasi tuzukroq ish izlab doimo bir joydan ikkinchi joyga ko'char edi. Nihoyat 1551- yilda Rodrigo de Servantes Valyadomedada muqim joylashadi, bu shahar qirollik poytaxti edi. Biroq bir yil o'tgach, ishlari orqaga ketib, mulkini sotishga majbur bo'ladi. Shundan so'ng yana oilaning sargardonligiboshlanadi, Kordoba, Madrid, yana Valyadomeda... Seviliya shahrida boshpana topgach, Migelni 10 yoshida iyezuitlar kollegiyasiga o'qishga beradilar. U yerda 4 yil davomida o'rta ta'limni oladi. Keyinchalik o'qishini Madridda, zamonasining eng yaxshi pedagogi hisoblanmish Xuan Lopes Oyos qo'lida davom ettiradi. Uning ilk she'ri 1568- yilda yozilgan bo'lib, Filipp II ning uchinchi xotini qirolicha Izabellaning dafn marosimiga bag'ishlangan edi.

Bu davrga kelib Servanteslar oilasi butkul tanazzulga yuz tutgan edi, endi Migel o'zining nonini o'zi topib yeyish ustida qayg'urishi lozim edi. Ustozi Xuan Lopes Oyosning tavsiyasi bilan Servantes saroy xizmatiga kiradi, Ispaniya va Vatikan o'rtasidagi ba'zi bahsli masalalarni hal qilish uchun kelgan favqulodda muxtor elchi papa Pil Beshinchi qo'lida ishlay boshlaydi. Elchi monsinor Julio Akvaviva bilan birgalikda Servantes yurtini tark etadi va Rimga keladi. Akvaviva qo'l ostida bir yil xizmat qilgach, 1570- yilda Italiyadagi ispan armiyasiga xizmatga kiradi. Armiyada besh yillik hayoti davomida Servantes italiya turmush tarzi bilan yaqinroq tanishadi, yirik Italiya shaharlarida bo'ladi, italyan tilini o'rganadi, o'zining ijtimoiy sohadagi bilimlarini kengaytiradi. 1571- yilda Lepanto yaqinida raashhur dengiz jangi bo'lib o'tadi, unda avstriyalik Xuan boshchiligidagi muqaddas liga O'rta Yer dengizining sharqiy qismidagi Turkiya hukmronligiga barham beradi. Bu jangda Servantes uch yeridan yaralanib, gospitalga tushadi va 1572- yilga qadar davolanadi. Yaralangan chap qo'li ishlamay qoladi. Shunga qaramay Servantes yana dengiz janglarida ishtirok etadi, keyingi yillarda avstriyalik Xuan boshchiligida Goleta va Tunis qal'alarini mustahkamlash uchun Shimoliy Afrikaga jo'natilgan ekspeditsiya korpusiga kirdi. 1576- yil

xizmatni tugatib Ispaniyaga qaytadi, Biroq yozuvchi tushgaa galeraga yo'lda qaroqchilar hujum qiladi va uning Jazoirdagi asirlik hayoti bosManadi.

Uning boshi uchun o'sha davrda nihoyatda baland bo'lgan miqdorda 500 oltin eskudo talab qiladilar, uni juda badavlat deb o'ylaydilar. 5 yillik mahbuslik hayoti davomida Servantes umidsizlikka tushmadi, hatto raqibi Hasan Poshshoning muhabbatini qozonadi. Yozuvchi mahbuslikdan 1580- yilning 19- sentabrida ozod qilindi. Mahbuslik yillari boshdan kechirganlari keyinchalik «01ijanob muxlis», «Mahbus tarixi» kabi asariarida o'z aksini topadi. Faxriy urush veterani sifatida vataniga qaytgan Servantesni muhtojlikka yuz tutgan oilasi kutib oladi. Otasi butunlay kar bo'lib, shifokorlik qila olmay qolgan edi. Servantes yana ish izlay boshlaydi. Uning oldida ikki yo'l turar edi. Yo harbiy xizmatga qaytish, yo ijod bilan shug'ullanish. Albatta, badiiy ijod bilan oilani boqib bo'lmas edi, shu sababli Servantes harbiy xizmatni tanlaydi, Portugaliyada xizmat qiladi, 1581- yilda Shimoliy Afrikaga kuryer sifatida boradi.

Biroq harbiy ish unga o'zi o'ylagan moddiy farovonlik keltirmaydi. Bu orada Katalina de Salasar Palasoyega uylanadi, lekin uning uncha ko'p bolmagan sepi ham Servantesning moddiy ahvolini yaxshilamaydi. 1585- yilda Servantes Andaluziyaga boradi. Hayotining keyingi 15 yilini Seviliya shahrida o'tkazadi. Bu yerda «Yengilmas Armada» uchun oziq-ovqat yetkazib beruvchi boshqarmaga komissar qilib tayinlanadi. 1594- yilda uni soliq yig'uvchi vazifasiga o'tkazadilar. Biroq uning omadi yurishmaydi, kamomad chiqadi va uni soliq pullarini yashirishda ayblaydilar. Servantes o'zining aybsizligini isbotlay olmaydi va uni Seviliya shahar qamoqxonasiga uch oy qamab qo'yadilar. 1604-yili Servantes Seviliyani tark etadi va Valyadolidga joylashadi. Keyinchalik bu yerga xotinidan boshqa oila a'zolari ko'chib keladi. Bu orada uning ukasi Rodrigo vafot etadi. Endi Servantesning oilasi singflari va jiyanidan iborat edi. Valyadolidda Servantes sermahsul ijod qildi. Ijodining ispaniya va Marokashda o'tgan birinchi davridan kam ma'lumot saqlanib qolgan.

Lekin Valyadolid bosqichida u yaratgan olmas asarlar bizgacha yetib kelgan. Bu bosqichda «Cho'pon Mel» romani, «Galateya» dramatik asarlarini ham yaratgan, biroq ular bizgacha yetib kelmagan. «Galateya»ning birinchi qismi 1585- yilda bosilgan. Bu asarning XVIII asrdagi shuhrati «Don Kixot» dan kam bo'lmagan. 1603- yildan u «Lamanchlik ayyor idalgo Don Kixot» asarini yozishga kirishadi, shuningdek, bu bosqichda «Sakkiz komediya va sakkiz intermediya» hikoyalar to'plami va «Parnasga sayohat» dostonini yozadi. «Don Kixot» romani ikki qismdan iborat. Asarning birinchi qismi bosilgach, o'n yildan so'ng ikkinchi qismi e'lon qthnadi. Bu oraliq davr ichida Servantes o'z davrida katta shuhrat keltirgan “Ibratli novellalan” ni yozadi.

Servantes umrining so'nggi davrlarini Madridda o'tkazdi. Bu paytga kelib Madrid poytaxtga aylangan edi. Servantesning asariari unga shon-shuhrat keltirgan bo'lsa ham moddiy ahvolini yaxshilamadi, u rasmiy doiralar uchun omadsiz, ishonchsiz kishi bo'lib qolaverdi. Bu davrda ketma-ket ayriliqlarni boshidan kechirdi, ikki singlisi vafot etdi. Xotini rohiblikni qabul qildi. Servantes ham unga ergashdi. 1609- yilda Muqaddas qullar jamiyatiga a'zo bo'lib kiradi. Bu jamiyatda Lope de Vega va Kevedo singari mashhur kishilar bor edi. Keyinroq esa Fransiska ordeni diniy jamiyatiga kiradi va o'limidan oldin o'zini batamom Xudoga bag'ishlaydi. Uning so'nggi romani «Persiles va Sixizmunda sayohati» dir. Asar 1616- yilda yozib tugatiiadi va yozuvchining o'limidan so'ng hashr qilinadi. Bu asarda Servantesning shunday so'zlari bor: «Quvonchlar, meai kechiringlar! Ko'n-gilxushliklar, meni kechiringlar! Qiuvnoq do'stlarim, meni kechiringlar! Men narigi dunyoda tez orada va shodiyona uchrashamiz degan umidda bu dunyodan ko'z yumaman».

10-MAVZU: FRANSIYA, ANGLIYADA UYG'ONISH DAVR ADABIYOTI

Reja

1. Farnsiya uyg'onish davri adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Fransua Rable hayoti va ijodi.
3. Angliyada uyg'onish davri adabiyotining paydo bo'lishi.
4. Uilyam Shekspir asarlarining jahon adabiyotida tutgan o'rni.

Adabiyotlar.

1. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kkuch. T., Ma'naviyat, 2008.
2. Alimuhamedov N. “Antik adabiyot tarixi”. T.: “O'qituvchi”. 1975 yil.
3. Sulaymonova F. “Sharq va G'arb”. T.: “O'zbekiston”. 1997 yil.
4. Kun N.A. “Qadimgi Yunoniston afsona va rivoyatlari”. Toshkent. 1983 yil.
5. Mahmudov M. “Hayrat va tafakkur”. Toshkent. G'.G'ulom. 1990 yil.
6. Sh. Normatova. Jahon adabiyoti. T., Cho'lpon, 2008.
7. V. Shekspir Tan. Asarlar to'plami. Toshkent “Fan 2008”

XIV asr o'rtalarida Italiyada paydo bo'lgan uyg'onish harakati XV asrning ikkinchi yarmida Yevropaning bir qancha yerlarida boshlanadi. XVI asrning boshlarida esa Frantsiyada vujudga keladi. Frantsuz Uyg'onish davri adabiyotiga Italiya ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi. Bu vaqtda frantsuz qiroli Frantsisk I Italiyaga harbiy yurish boshlagan Frantsuzlar Italiyaga gumanist yozuvchilar Dante, Petrorka va Bokachcho asarlarini olib kelib frantsuz tiliga tarjima qildiradilar XVI asrda yashab ijod etgan frantsuz Uyg'onish davrining yirik vakillari bilim doiralarning kengligi bilan ajralib turadigan yozuvchi, filosof, tarixchi, tabiatshunos ham edilar. Rable, Maro, Margarita Navarrskaya, Ronsar va boshqalar frantsuz adabiyotining yuksalishiga katta hissa qo'shgan, voqelikka real yondasha bilgan ulug' adib va shoirlar sifatida mashhurdirlar. Frantsuz Uyg'onish davri adabiyotining yirik vakili, ulug' gumanist yozuvchi Fransua Rable, turen viloyatining Shinon nomli shaharchasida advokat oilasida tug'ildi. Rable o'z hayoti davomida uch marta Italiyaga borib, qadimgi rim madaniyati yodgorliklari bilan tanishadi, tabiiy fanlar bilan shug'ullanadi, lotin tili bilan birga arab tilini ham o'rganadi. Rable gumanistik ijodining nodir namunasi xalq orzu-istaklarini chuqur aks ettirgan o'lmas asari “Gargantyua va pantagryuel” romanidir. Bu roman o'rta asr turmush-tartiblari va xulq-atvorlariga, sxolastik tafakkurga qarshi achchiq satira sifatida yuzaga keladi, unda hayoliy bo'lsada, kelajak baxtli hayot haqidagi xalqning umid-orzulari aks etadi. “Gargantyua va pantagryuel” besh kitobdan iborat bo'lib, uni yaratish uchun adib yigirma yildan ortiqroq vaqt sarf qiladi.

UILYAM SHEKSPIR

Shekspir Uyg'onish davrining eng yirik vakillaridan biridir. U haqida yuzlab kitoblar yozilgan, ko'plab shekspirshunoslar yetishib chiqqan, uning ijodi turli, o'ta ziddiyatli fikr – mulohazalar uyg'otgan. Bizdan 400 yil oldin yashab ijod etgan bu buyuk dramaturg ushbu sohada egallagan cho'qqi hanuz zabt etilgani yo'q.

Shekspir hayotiga oid uncha ko'p ma'lumotlar saqlanib qolmagan, borlari ham to'liq va aniq emas. Shekspir 1564-yil 23-aprelda eyvon daryosi sohilidagi Stratfort shahrida tug'ilgan. Shekspirning ajdodlari yemenlar-ya'ni erkin dehqonlar bo'lganlar. Ular orasida jasur jangchilar, nayzadorlar, yoyandozlar bo'lganligi taxmin qilinadi. “Shekspir” so'zi - “nayza o'ynatuvchi” ma'nosini anglatadi.

Shekspirning otasi hunarmand-savdogar bo'lgan, u charm va charm qo'lgop bilan savdo qilgan. Ishlari yurishgan davrlarda hatto shahar meri qilib ham tayinlangan. Biroq ishlari orqaga ketib singach, oila haqida qayg'urish, g'amho'rlik qilish katta o'g'li Uilyam zimmasiga tushadi.

Stratfordda Shekspir ta'lim olgan maktab ingliz tili bilan bir qatorda qadimgi lotin va yunon tillari o'qitilgan. Uilyam qobilyatli o'quvchi bo'lgan, hatto keyinchlik shu maktabda o'qituvchi yordamchisi bo'lib ishlagan. Ayni paytda go'sht do'konida yollanma ishchi (shogird) bo'lib xizmat qilgan. Uka va singillarini boqish uchun qo'shni o'rmonda ovchilik qilgan. Bu esa taqiqlangan edi, chunki barcha o'rmon va parklar qirolik mulki hisoblanardi. Biroq ov asosiy tirikchilik vositasi edi va Shekspir shunday qaltis yo'l tutishga majbur edi. Albatta, botir ovchi, sevimli xalq qahramoni

Robin Gud haqidagi afsonalarruhida ulg'aygan yosh Shekspir uchun bu romantika bo'lib tuyulgan bo'lishi ham mumkin.

Shekspir 18 yoshda to'satdan 26 yoshli fermer qizi Anna Xetueyga uylanadi va 20 yoshida kattagina oilaning boshlig'iga aylanadi - qizi Syuzen, egizaklar Yudef va Gamletga otabo'ladi. Endi u ikki oilani- o'zining va otasining oilasini boqishi lozim edi. Uning noqonuniy ovchiligiga barham beradilar, o'rmon qorovullari Uilyamni o'ldirilgan bug'u bilan tutib oladilar va va sudya ser Tomas Lyusi haqida epigrammalar to'qigan va ular xalq orasida mashhur edi. Brakonyerlarga beriladigan jazo og'ir edi - qamchi bilan savalash, badaniga qizdirilgan temirnobosish, hatto qatl qilishgacha borilar edi. Shekspir Stratforddan qochadi va Londonda panoh topadi. Oradan besh yil o'tgach, uning yurtdoshi hunarmand Berbej tomonidan qurilgan London teatrida aktyor va dramaturg sifatida paydo bo'ladi. Shekspir teatridagi ishini badavlat tomoshbinlarning otlariga qo'riqchilik qilishdan boshlaydi. Keyinchalik aktyorlik qiladi. So'ngra unga eski pyesalarni qayta ishlar vazifasini topshiradilar. Tajriba to'plagach, mustaqil ijod bilan shug'ullana boshlaydi.

90-yillar Shekspir hayotining moddiy va ma'naviy jihatdan gullab yashnagan davri hisoblanadi. Oilasi hali ham Stratfordda yashar, u tez-tez kelib ularning holidan habar olib turar edi. Shekspir shahardagi eng yaxshi uy va shahar tashqarisida yer sotib oladi. Otasiga barcha qulayliklar yaratdi, unga dvoryanlik unvonini olib berdi.

Shekspir davri teatri hozirgisiga uncha o'xshamaydi. Sayyoh aktyorlar, asosan, mehmonxona hovlilarida tomosha ko'rsatishar, tomoshabinlar oldindan, yon tomondan hamda mehmonxona balkonlaridan sahnani tomosha qilishar edi. XVI asrdagi Londonning doimiy teatrlari ham ana shunday qurilgan bo'lib, parda va dekoratsiyalari bo'lmagan ochiq maydonchalardan iborat edi. Aktyorlar sahnada orqa tomondagi eshikdan kirar edilar, tomoshbinlar esa hatto ba'zan sahnaga ham chiqib o'tirar edilar.

Tomoshada ayollar qatnashmasdilar, teatrga kelgan ayollar yengiltabiat hisoblanar edi. Ba'zi gap so'zdan qo'rmaydigan kibar ayollar teatrga kelishga jur'at qilardilar, lekin ular ham yuzlarini niqob bilan to'sib olardilar. Aktyorlar ichida ham ayollar yo'q edi. Dezdemona va Afeliya rollarini chiroyli o'spirin yigitchalar ijro etardilar.

Shekspir biograflarining ma'lumotlariga qaraganda uning eng yaxshi roli Gamlet otasining arvohi bo'lgan. U qirollar rolini o'ynagani ham aytilgan. Bunday rollar esa faqat eng yaxshi aktyorlarga topshirilgan. Bu esa Shekspir yomni ijrochi bo'lmagan dalolat beradi.

1599-yilda Londondagi eng yaxshi teatr-"Globus" ochiladi va Shekspir uning boshqaruvchilardan biri qilib tayinlanadi.

Buyuk o'zgarishlar davri bo'lgan Renessans ayni paytda yangicha munosabatlarning shakllanish davri edi. Angliyada jun ishlab chiqarish sanoati rivojlanishi natijasida dehqonlarning yerlari qo'y-qo'zilar uchun o'tloqlarga aylantirildi, bu esa ularning qashshoqlashuviga sabab bo'ldi. Angliya qirolichasi yelizavetta shafqatsiz hukmdor edi, lekin u bu hususiyatini pardalay bilar, ish yuritishda parlament va dinga tayanar edi. Ayniqsa hukmdorligining oxirgi bosqichiga kelib qo'l ostidagilarga nisbatan shafqatsizligi va ularning taqdiriga befarqligi kuchaydi. U badavlat kibarlarga xo'jalikning muhim sohalarini boshqarishni berar evaziga esa ulardan mo'may haq olar, endi parlamentga emas maxfiy politsiya va kengashga tayanar edi. Oqibatda hur fikrlilik uchun ta'qiblar o'ziga yoqmagani kishilarni qatl etishlar boshlandi.

Shekspir ijodidavri shafqatsizliklari aks etmay qolmadi. Uning tragediyalarida bu yaqqol namoyon bo'ladi. Siyosiy o'zgarishlar Shekspir taqdirida ham iz qoldirdi. Samimiy, ochiq ko'ngil Shekspirning do'stlari ko'p edi, lekin dushmanlari ham yo'q emasdi. Ko'pchilik universitet ta'limini olgan dramaturglar ichida uni ko'ra olmaydigan ham uchrardi. Masalan, 1592-yili R. Grin Shekspirga pamflet yozadi va uni "mahmadona, o'galar patini yopishtirib olgan qarg'a" deb ataydi.

Shekspirning kibarlar orasida ham do'stlari bor edi. Graf Sautgempfort uning do'sti va homiyi edi, u shekspirni kibar bilimdon yoshlar to'garagiga olib borgan edi. Bu to'garakda dramaturg Robert Esseks Yelizavetani tanishadi. Esseks taqdiri fojiali tugaydi. U Yelizavetaning nazari tushgan yigit edi, ular orasidan gap o'tadi va do'stlik buziladi. Esseks Yelizavetani tanqid qiladi va bu bilan chegaralanmay unga qarshi isyon uyushtiradi. Isyonga chaqiriq sifatida

“Shekspirning Richard III” asari sahnaga qo’yilishi lozim edi, tomoshga isyonchilar to’planishgan edi. Pyesani mazmun-mundariyasi ko’pjihtdan voqeelikka yaqin edi, unga zolim qirolga qarshi isyon tasvirlanar va ma’qullanar edi. Biroq isyon amalga oshmadi, Esseks qatl qilindi.”Globus teatrlarining aktyorlarining so’roqqa chaqirtirdilar.Ular isyonga aloqalari borligi ni rad ettilarva buni jo’ngina izohladilar: ular har doimgidek tomosha ko’rsatgandilar, holos,

Oradan ko’p o’tmay Shekspirning otasi vafot etdi, ketma-ket o’g’li Gamlet va ukasidan ayrildi. Bu orada qanchalik shafqatsiz bo’lsa ham, har qalay “Globus” teatriga homiylik qilgan Yelizaveta vafot etdi. Uning o’rniga qirol Iakov I Styuart o’tirdi.Tarixdan bilamizki u Yelizaveta tomonidan qatl qilingan Mariya Styuartning o’g’li edi. “Globus” “Qirol malaylari”nomini oldi. Shekspir saroy teatri “Blefrayes”ga pyesalar yozaboshladi. Bu teatrdagi yosh dramaturglar Bomond va Fletcher qanday qilib bo’lmasin uni chetlatishga urinar edilar. Bu yillar Shekspir uchun og’ir bo’ldi. Uning so’ngi pyeyasi “Bo’ron” da shunday epizod bor: sehrgar Prospero qizining nikoh to’yiga atab sehrlil spektakl yozadi, ruhlari so’ngi marta o’ziga chorlaydi so’ng sehli tayoqchasini sindiradi va duolar kitobini dengizga uloqtiradi.Shekspir sehrgar qilmishida o’z qismatini bashorat qildi. Buyuk fojlanavis sahnani va ijodni tark etdi.

1612-yilda dramaturg qadrdon Stratfortga qaytdi.Oradan to’rt yil o’tgach, 1616-yilning 23-apreliga 53 yoshda vafot etdi. Uni Stratfort cherkoviga mehrob ustida ko’madilar. O’limi oldidan qabrga shunday so’zlarni yozib qo’yishlarini vasiyat qiladi:”Aziz, do’stim, Iso haqqi bu yerga ko’milgan xokni bezovta qilganlar xudoning qarg’ishiga qolsinlar”.

Shekspir bu so’zlar bilan go’yo kelgusida uning ijodiga nisbatan adolatsiz munosabatning oldini olmoqchi bo’lgan. Aslida Shekspirning vasiyatini juda jo’n izohlash mumkin.U qo’yilgan joy badavlat va obro’li kishilarning o’rni edi.Shekspirni shu narsa bezovta qilgan bo’lsa kerak.. Biroq XIX asrda Shekspirning asarlari boshqa birov tomonidan yozilgan, degan fikr o’rtaga tashlandi va hatto jiddiy ilmiy tadqiqotlar uchun mavzuga aylandi.. Bunda oddiy adabiyot va sa’atdan yiroq oiladan chiqqan maxsus ta’lim ko’rmagan aktyor shunday buyuk asarlar yaratishlii mumkinligi buning ustiga o’zdavri fanlariga oid bilimlardan bu qadar keng ma’lumotga ega bo’lishi (masalan, tibbiyot to’g’ro’sida shifokor, huquq to’g’risida huquqshunos, o’simliklar to’g’risida botanik sifatida fikrlashi) shubhaga olinadi. Bir turkum tadqiqotcilar Shekspir asarlari yozuvchi va olimlar guruhi tomonidan yozilgan, degan fikrni ilgari suradilar.

Ikkinchi turkum tadqiqotchilar esa, uslubdagi yagonalikni sezgan holda muallif kibarlar jamiyatidan bo’lgan degan mulohazani o’rtaga tashlagan. XVI asr sharoitida shunday bo’lishi ham mumkin edi, chunku kibarlarning sahna uchun asar yozishlari juda past ketish ularning sha’nlariga noliyiq hisoblanardi. Shu sababli Shekspir nomi ostiga biror obro’li kibor yashiringan bo’lishi ehtimol.

Shu tariqa shekspir pyesalari goh ingliz faylasufi Frensis Bekon, goh graflar Retlend, Derbi, Osfordlar ijodi, deb taxmin qilingan. Amerikalik Deliya Bekon 1857-yilda “Shekspir falsafasiga izoh”asarida Shekspir va faylasuf bekon qarashlaridagi yaqinlikni isbotlagan.Biroq huloza munozarali edi, olima fikricha, go’yo Shekspir asrlarini faylasuf Bekon u boshchiligidagi to’garak yozgan.

Deliya Bekon mualliflik jumbog’ining javobi dramadramaturgning qabriga yashiringan degan fikrga ham borgan. Bu unchalik asosli bo’lib tuylganki, olima Angliyaga kelib, Stratfortga joylashgan. Kecha –kunduz Shekspir qabridan nari ketmagan. Nihoyat odam yollab Shekspir maqbarasiga tushmoqchi bo’lganda ushlab olingan.

Shifokorlar tekshirishidan so’ng Deliya Bekon aqldan ozgan, deb topilgan va ko’p o’tmay ruhiy xastaliklar shifoxonasida olamdan o’tgan. Bu hodisa go’yoki u Shekspir qabri ustida bitilgan vasiyatnomadagi so’zlar haq bo’lib chiqqandek, olima daho san’atkor qarg’ishiga qolgandek taassurot uygotadi.

XX asr o’rtalariga kelib Amerikada Shekspirning muallifligi masalasi yana ko’tariladi. Endi Shekspir asarlari uning zamondoshi, 1593-yilda fojiali halok bo’lgan Kristofer Marloniki deya isbotlashga urinildi. Bu qarash tarafdorlarining fikricha, Marlo qotillardan yashirinish maqsadida Shekspir imzosi bilan asarlar yozgan. Bu nazariyaning ham asosi puchligi tezda ma’lum bo’lib qoldi. Marlo bilan Shekspir bir davrda ijod qilgan bo’lib, ularning asarlarini farqlash qiyin emas.

So'ngra Marloning o'limi ham aniq qayd etilgan. Shekspir asarlari Marlo tomonidan yozilganligi xususidagi taxminda hech qanday mantiq yo'qligi aniqlangan.

Bu kabi bahslarga allaqachon barham berilgan va har qalay o'tmishda Shekspir ismli daho yashab o'tganligi, uning o'lmas asarlari bugunga qadar insoniyat qalbini zabt etib kelayotgani aniq faktdir.

Shekspir ijodini she'riyatdan boshlagan. Uning ikki dostoni "Venera va Adonis" hamda "Lukretsiya" o'z davrida mashhur bo'lgan. Buyuk dramaturg, ayniqsa, sonet janrida shuhrat qozongan. Sonet Italiyada vujudga kelgan janr bo'lib, 14 satrdan iborat bo'lishi kerak. Ingliz soneti 4 va oxirgi 2 satrdan iborat. Shekspirning oddiy ingliz sonet shakliga chuqur mazmun singdirdi. Uning 152 ta soneti mavjud bo'lib, 126 tasi shoirning do'stiga, 28 tasi qorasoch ayolga bag'ishlangan. Shekspirning ishqiy she'rlari hayotiyli bilan ajralib turadi. Petrarka va uning ingliz izdoshlari ijodida oltin sochli, farishtasimon, yetishib bo'lmas go'zal kuylanadi. Shekspir sonetlarining qorasoch qahramoni esa jonli va hayotiy obrazdir.

Tadqiqotchilar Shekspirning pesalari sonini 37 ta deb ko'rsatadilar va uch davrga bo'lib o'rganishni ma'qul ko'radilar.

1590-1600-yillar. Bu davr yosh dramaturgning hayotga va kelajakka ishonch barq urib turgan davri. Ko'plab komediyalari va "Romeo va Juletta" tragediyasi aynan ana shu davrda yozilgan.

1601-1608-yillar. Bu bosqichda, asosan, uning tragediyalari yaratilgan. Shekspir oilasida ro'y bergan fojialar hamda ingliz xalqining qashshoqlashuvi dramaturg ijodida iz qoldirmay ketmagan. "Gamlet", "Otello", "Qirol Lir", "Makbet" tragediyalari uning qalbidagi ruhiy jarayonlar silsilasi mahsulidir. Hatto, shu davrda yozilgan komediyalarida ham dramatik ruh ustivorlik qiladi.

1609-1613-yillar dramaturg ijodida fojeiy ruh bir qadar susaygan davr. Chet ellik tadqiqotchilar buni dramaturgning voqelik bilan murosaga kelgani, kurasndan charchagani bilan izohlaydilar. Voqelikdagi o'zgarishlar, hukmron tabaqaga xizmat qilishga majburlik Shekspir imkoniyatlarini cheklagan bo'lishi mumkin. Biroq falsafiylik, o'git kuchayganligi «Simbelin» (1610), «Qishki ertak», «Bo'ron» pyesalarida kuzatiladi.

Shekspir komediyalari xilma-xildir. Qadimgi Rim komediyasining qayta ishlangan shakli «Xatolar komediyasi», Angliya hayotidan olingan «Vindzorlik masxaraboz ayollar», italiyaliklar hayotidan olingan "Veronalik ikki yigit" (1594), «O'n ikkinchi kecha» (1600), fantastik ertak-pyesa «Yoz tunidagi kecha» (1596) va boshqalar ham shular sirasiga kiradi. Biroq bu asarlar mavzu jihatdan bir-biriga yaqin bo'lib, deyarli hammasida muhabbat mavzusi ko'tariladi. Shekspir ijodiga xos kuchli tragizm hatto komediyalarida ham o'zini namoyon qilib turadi. Kulgili vaziyatlar dramatism bilan yo'g'rilib ketadi, biroq asar nihoyasida porloq, ezgu tuyg'ular g'alaba qozonadi va bu narsa ularni komediya deb hisoblanishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Shekspirning ingliz tarixiga bag'ishlangan xronikalari ikki yuz yillik davrni qamrab oladi. Ularda Angliya bilan Fra'nsiya o'rtasida 100 yillik urush hamda Qizil va Oq atirgullar o'rtasidagi feodal urush voqealari aks etgan. Shekspirning xronika-pyesalariga R.Xoldinshenning XVI asr o'rtalarida yozilgan tarixiy Angliya, Shotlandiya va Irlandiya xronikalari asos bo'lib xizmat qilgan.

Shekspir xronikalarida Angliya taxti uchun bo'lgan kurashlar aks etgan. Dramaturg qirol uchun ikki jihat — shafqatsizlik va zaiflik jiddiy nuqson deb hisoblaydi.

Richard III, qirol Jon shafqatsizligi bilan, Richard I, Genrix VI zaifligi bilan fojialarga sabab bo'ladilar. Shekspir idealidagi qirol Genrix V obrazida mujassamlashgan. Biroq dramaturg yaratgan adolatli, dono va kuchli qirol hayotdagidan keskin farq qiladi. Genrix V qisqa muddat hukmronlik qilgan bo'lsa ham ozmuncha shafqatsizliklar qilmadi. Fransiya bilan urushni qayta alanga oldirdi, «yeretiklar» (mavjud diniy ta'limotning tashkiliy tomoniga, ya'ni cherkov tartibotlariga, diniy jaholatga qarshi bo'lgan ta'limot vakillari) ni olovda yoqdi. Shekspir bu obrazni yaratishda ko'proq hayotiy faktlarga emas, Genrix V haqidagi xalq afeonalariga tayandi. Bu afeonalariga ko'ra qo'rqqanligi, botirligi bilan ajralib turadigan, janglarda doimo g'alaba qozonib kelgan qirol Genrix juda yosh vafot etadi.

«Richard III» pyesasi xronikadan ko'ra tragediyaga yaqinroq turadi. Uning markazida yovuzligi bilan ajralib turuvchi Richard III turadi. Uning asosiy maqsadi - taxt, hokimiyatga yetishish. Ayni paytda aqlli, jasur jangchi va jozibador shaxs. Yorklar oilasining a'zosi bo'lgan

Richard o'z akasi uchun taxtni egallash maqsadida yo'lida uchragan Lankasterlar (qizil atirgul) sulolasining barcha a'zolarini qatl etib boradi. Keyin esa o'zi uchun taxtga yo'l ochadi va mislsiz shafqatsizliklar qiladi — o'z oilasini asta-sekin qurita boshlaydi. Akasining ikki go'dak farzandini qatl ettirishi - uning yovuzliklarining so'nggisi edi. Richard hayotining intihosi ham fojiali tugaydi, u Richmon-Tyudorlar sulolasining boshlig'i tomonidan o'ldiriladi.

Shekspir ijodining cho'qqisi uning besh tragediyasi: «Romeo va Juletta», «Gamlet», «Otello», «QiroI Lir» va «Makbet» hisoblanadi.

Shekspirning ilk tragediyasi «Romeo va Juletta» dir. Asar 1595-yilda yozilgan. Bu davrda Shekspir asosan komediyalar yaratgan bo'lib, ularning aksariga ishqiy mavzu asos qilib olingan. Shekspir kome-diyalarida muhabbat yovuzlik ustidan g'alaba qozonadi. «Romeo va Juletta» ham muhabbat mavzusida. Biroq bu asarda sevgi fojia bilan yakun topadi. Tragediyadagi fojining asosiy sababchisi ikki oila o'rtasidagi eski adovatdir. Bunday mavzu qadimdan mavjud bo'lib, uni barcha xalqlarda kuzatish mumkin. Ularda tarixiy faktlar afsonaga asos bo'lib xizmat qilgan. Masalan, Italiyada ikki dushman oila — Montekki va Kapuletti yashab o'tgani ma'lum. Keyinchalik ingliz shoiri Artur Bruk shu asosda doston yozgan. Shotlandiyada ham dushman qabilalardan bo'lgan ikki yoshning fojiali muhabbati haqida «Duglaslar fojiasi» balladasi mavjud. Bulardan tashqari ikki yoshning anglashilmovchilik qurboni bo'lganligini tasvirlovchi Piram va Fisba haqidagi qadimgi yunon afsonasi ham mavjud. Unda Piram sevgilisi bilan uchrashishi lozim bo'lgan yerda qizning qonga belangan, parchalangan yoping'ichini ko'radi. Fisbani yirtqich hayvonlar nobud qilgan, degan dahshatli xulosaga keladi va o'zini o'ldiradi. Bu orada Fisba qaytib keladi, u o'lmagan, yoping'ichini sher hujumidan qochayotganda tushirib qoldirgan edi. Sevgilisiningjasadini ko'rgach, uning q'richi bilan o'zini o'ldiradi. Shekspir bu afsonalardan yaxshi xabardor edi, o'z tragediyasida ulardan unumli foydalanadi hamda yangi ruh bilan boyitadi.

Romeo va Juletta muhabbati kutilmaganda bir ko'rishdayoq tug'iladi va alanga oladi. Bu Sharqda mashhur Qays va Layli ishqining uyg'onishini yodga soladi. Biroq har ikki asarda boiganidek, bu muhabbat yo'lida darhol g'ovlar paydo boiadi. Sevishganlarning oilalari bir-biriga dushman, Romeo go'zal Rozalindaga ham xushtor, Julettaga esa Paris uylanishi lozim, Juletta hali juda yosh...

Biroq muhabbat to'siqlarga qaramaydi, qahramonlarni butkul o'zgartirib yuboradi Romeo o'zining Rozalindaga xushtorligini oddiy o'yin, havas ekanligini tushunib yetadi. Juletta esa yosh, soddadil qizdan irodali, o'z hissiyotlari uchun kurashishga qodir ma'shuqaga aylanadi. U sevgidan boshi aylangan yigitga birinchi bo'lib turmush qurishni taklif qiladi.

Bu ikki yoshning muhabbatiga xayrixoh faqat ikkita odam bor — enaga va rohib Lorenzo. Juletta oilada o'z hissiyotlariga hamdard odam topa olmaydi. Ota shafqatsiz va zolim odam, onasi esa farzandi dardlariga befarq. Faqat enagagina Julettaning sirlaridan voqif. Biroq enaga o'z qarashlarida sobit emas, kimdan sovg'a olsa, o'shanga xizmat qilaveradi. Julettaning Romeoga xufyona turmushga chiqqariini bila turib, uni Parisga tegishga undaydi. Shundan so'ng Juletta faqat rohib Loreasogagina ishonib qoladi.

Lorenzo o'rta asr ma'rifatparvarining yorqin obrazidir. U ezgulik, toza hissiyotlar himoyachisi. Ayni paytda ikki yoshning muhabbati oilalar o'rtasidagi ixtilofga ham barham beradi, deya orzu qiladi. Shu sababU ham ularni yashirincha nikohlab qo'yadi. Romeo Tibaltni, ya'ni Julettaning qarindoshi akasini o'ldirib qo'ygach, qochishga majbur bo'ladi, Juletta esa Parisga turmushga chiqishga rozi bo'lishi lozim edi. Shunda Lorenzo hiyla ishlatmoqchi bo'ladi, ya'ni o'zining bilimlariga tayanib o'tlardan tayyorlagan dorisi bilan Julettani uxlatib qo'yimoqchi bo'ladi. Bu Romeo yashirincha kelib Julettani olib ketishi uchun yagona chora edi. Bunday vaziyat o'z vaqtida boshqa asarlarda ham qo'llangan. Shekspir unga reaUstik ruh baxsh etadi. Juletta ota-onasiga sirini ocha olmas, chunki akasining o'limi, judolik alami ularning insofga kelishiga mutlaqo yo'l qo'ymasligi aniq edi. Buning ustiga qizning alamzada onasi Romeoni zaharlamoqchi ekanligi Julettaning Lorenzo taklifiga ko'nishi yagona chora, degan xulosaga kelishiga sabab bo'ladi.

Keyingi hodisalar ham hayotiy. Romeoga Lorenzo tomonidan yuborilgan chopar shaharda tarqalgan o'lat kasali tufayli vaqtida yetib bora olmaydi. Oqibatda Romeo Juletta o'limi to'g'risidagi yolg'on xabarni eshitadi va bu fojiaga sabab bo'ladi.

Asardagi ikki zodagon oilasi o'rtasidagi ixtilof tufayli Veronaning asl yoshlari Juletta, Romeo, Romeoning do'sti Merkutsio, Julettaning akasi Tibalt halok bo'ladi. Hatto Julettaga oshiq-u beqaror bo'lgan go'zal Paris ham nobud bo'ladi. Biroq sevgi g'alaba qozonadi, sevishganlarning jasadlari ustida ularning otalari bir-birlariga qo'l uzatadilar. Oshiq-ma'shuqni bir qabrga qo'yadilar. Bu ham Navoiyning mashhur «Layli va Majnun» dostoni xotimasini yodga soladi:

Bir na 'shqa soldilar ikkovni,

Jonsiz kelin-u o 'lik kuyovni.

«Romeo va Juletta» tragediyasi tilining shiraliligi va musiqiyligi bil.in ajralib turadi. Shekspir bu asarida ingliz tilining imkoniyatlari naqadar kengligini namoyon qilgan. Romeo va Julettaning birinchi dil izhori dunyo xalqlari orasida mashhur bo'lib ketgan. Julettaning Romeoni quvg'in qilinishi oldidan tongni chorlayotgan turnaga shikoyati Shekspir tomonidan O'rta asrga xos tong qo'shig'i usulida yozilgan. Bunday qo'shiqlarni trubadurlar ijro etganlar. Shekspirning bu asari o'z davrida ham g'oyat mashhur bo'lgan.

1601- yilda Shekspirning yana bir buyuk asari «Gamlet» dunyoga keladi.

Bu tragediya asosida XII asr solnomachisi Sakson Grammatik tomonidan yozib qoldirilgan afsona yotadi. Unda shahzoda Gamlet otasining o'limi uchun amakisidan qasos oladi. Bu niyatini yashirish maqsadida u o'zini aqldan ozgan qilib ko'rsatadi. Asar nihoyasida Gamlet g'alaba qozonadi va taxtni egallaydi.

Ushbu qissa fransuz yozuvchisi Belforening «G'aroyib voqealar» kitobiga ham kiritilgan. Bundan tashqari T.Kid tomonidan yozilib, bizgacha yetib kelmagan asarda ham «Gamlet» haqida ma'lumotlar bor. Shekspirga, albatta, bu asarlar tanish bo'lishi kerak. Shekspirning Gamleti afsona qahramonlaridan ancha farq qiladi. Shekspir qahramoni hayoti afsonadagidan farqli o'laroq fojiali tugaydi, bundan tashqari u ayyor va epchil qasoskor ham emas. Shekspir yaratgan Gamlet murakkab fikrlovchi qahramon, u qasos olishga shoshilmaydi. Boshida arvohning so'zlariga ishonmaydi, chunki u xudoning emas, shaytonning elchisi bo'lishi mumkin. U holda Gamlet og'ir jinoyatchiga aylanadi. Gamlet O'rta asrlar ma'rifatparvarlik davri kishisi. U qilmishini tahlil qila oladi. Shu sababli amakisining chindan gunohkorligini tekshirib ko'rmoqchi bo'ladi. Sayyoh aktyorlarga qirol qoshida hayotda bo'lib o'tgan o'sha jinoyatni qayta tiklab o'ynashlarini topshiradi. Klavdiy o'z gunohi dahshatidan hushdan ketadi. Gamlet uchun ortiq shubha qolmaydi, biroq xudoga ibodat qilayotgan amakisiga shafqat qiladi. Endi uni gunoh ustida, mast holda jinoyat qilayotgan chog'ida o'ldirishga qaror qiladi. Nihoyat shunday fursat keladi, Gamlet amakisidan jinoyat ustida, zaharlangan onasi o'limi oldidan qasos oladi. Lekin o'zi ham zaharlangan qilich yarasidan halok bo'ladi.

Gyote o'zining «Vilgelm Meysterning talabalik yillari» romanida Gamletga chiroyli ta'rif beradi. Roman qahramoni aktyor Gamlet rolini o'ynaydi va uni baquvvat eman daraxti o'tqazilgan nafis hamda qimmatbano guldonga o'xshatadi. Emanning ildizlari chuqurlashib borib guldonni chilchil qiladi. Ya'ni, otasi uchun qasos olish burchi nozikqalb Gamletga og'irlik qiladi. Gyote ta'rifi chiroyli, biroq u Gamletni zaif xarakter qilib ko'rsatadi. Gyote fikri keyinchalik rivojlantirilib, bu qahramon irodasi kuchsiz, deya baholana boshlagan. Shundan kelib chiqib rus yozuvchisi Turgenev Gamletni faoliyat kishisi Don Kixotga qarama-qarshi qo'ygan. Gamlet obrazida ziyoli insonning azaliy fojiasini ko'ra boshlaganlar.

Gamletni tabiatan zaif, ojiz qahramon deyish uncha to'g'ri emas. U,, aksincha, fikrlovchi, hayot mohiyatini izlovchi inson. Gamlet insonlarni qadrlaydi, o'zidan keyin yomon nom qoldirishdan qo'rqadi. O'limidan so'ng u haqidagi haqiqatni xalqqa do'sti Goratsio yetkazadi.

Shekspir yaratgan o'lmas durdonalar, u ilgari surgan gumanistik g'oyalar kelgusi asr kitobxonlarini ham ezgulikka, ma'rifatga chorlovchi asarlar bo'lib qolaveradi.

11-MAVZU:MA'RIFATCHILIK DAVRI ADABIYOTI

Reja:

1. Evropa ma'rifatchilik davrining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Angliyada ma'rifatchilik davri adabiyoti.
3. Frantsiyada ma'rifatchilik davri adabiyoti.
4. Nemis ma'rifatchilik davri adabiyoti.

Adabiyotlar:

1. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kkuch. T., Ma'naviyat, 2008.
2. Alimuhamedov N. "Antik adabiyot tarixi". T.: "O'qituvchi". 1975 yil.
3. Sulaymonova F. "Sharq va G'arb". T.: "O'zbekiston". 1997 yil.
4. Kun N.A. "Qadimgi Yunoniston afsona va rivoyatlari". Toshkent. 1983 yil.
5. Mahmudov M. "Hayrat va tafakkur". Toshkent. G'.G'ulom. 1990 yil.
6. Sh. Normatova. Jahon adabiyoti. T., Cho'lpon, 2008.

Ma'rifatchilik oqimi XVII-XVIII asrlarda Yevropada vujudga kelgan va keyinchalik butun dunyoga yoyilgan. Ushbu oqim vakillari bilimga alohida ahamiyat beradilar, ular dunyoni aql-idrok bilan anglash mumkin, uni tafakkur bilan o'zgartirish lozim, deb hisoblaydilar. Bu oqim adabiyotning asosiy xususiyati xalqni jaholatdan, qoloqlikdan qutqarishga qaratilganligi, bilim olishga, ma'rifatga chaqirig'i bilan xarakterlanadi.

Ma'rifatchilar mavjud ijtimoiy tuzumni mukammal emas deb biladilar, inson esa gunohkor banda ekahligini tan oladilar. Biroq ular inson aqliga ishonadilar. Ko'pchilik ma'rifatchilar xudoning mavjudligini inkor etmas edilar. Ularning fikricha, borliqni Xudo yaratgan, biroq endi insonga uni boshqarish erki berilgan. Shu sababli ular inson qudratiga, uning yaratuvchilik kuchiga katta baho berganlar.

Ushbu yo'nalish vakillari aql va bilim bilan inson dunyoni yaxshilik tomon eltishga qodir, deb hisoblaydilar. Ular «ijtimoiylik» va «tabiiylik», «tabiat» va «tamaddun» o'rtasida uyg'unlik vujudga keltirishga uringanlar. Shu sababli ham bu davr adabiyotida madaniyat va ma'rifatning moddiy asosini kuchaytirish yo'lidagi sayohatlar, insonning tabiat bilan kurashi va g'alabasi, inson tafakkurining sinovi kabi mavzular yetakchilik qiladi.

Ingliz yozuvchisi D.Defoning «Robinzon Kruzo» asarida kimsasiz orolga tushib qolgan inson aqli va mehnatkashligiga tayanib taraqqiyot cho'qqisiga erishadi, o'limga mahkum qahramon hayotga bo'lgan cheksiz muhabbati va idrok kuchi bilan tabiat oldida bo'yin egmaydi.

Ayni paytda ma'rifatchilik adabiyotida kurashchan qahramonlarning ziddi bo'lgan obrazlar ham mavjud. Ular ko'proq yevropalik bo'lmagan qahramonlar timsolida namoyon bo'ladi. Masalan, Monteskyoning «Fors maktublari» asaridagi Uzbek, S.Jonsonning «Rasselas, Abissin shahzodasi» asaridagi Rik yoki Volterning «Soddadil» asaridagi yovvoyi - o'ta soddaligi, ma'sumligi, dunyodan bexabarligi bilan ajralib turadi.

Ma'rifatchilar klassitsizm adabiyotidagi shartlilik, sun'iylikka qarshi chiqadilar, bu oqim vakillaridan farqli o'laroq oddiy kishilar hayotiga murojaat qiladilar, ularning kundalik tashvishlari va intilishlariga alohida e'tibor beradilar. Ingliz ma'rifatchiligidagi bu xususiyatlar Yevropa adabiyotiga ham ta'sir ko'rsatdi. Fransiya (D.Didro, M.J.Seden) va Germaniyadagi (G.Lessing va boshqalar) meshchanlar dramasi ingliz dramasi shaklini o'zlashtirdi.

Ma'rifatchilar jaholat, nodonlikni tanqid ostiga oladilar. Ingliz adibi J.Sviftning «Gulliverning sayohati» asarida hajv tig'i yangi tijoratga asoslangan Angliyaning nodon hukmdorlariga qarshi qaratiladi. G.Fildingning «Topib olingan Tom Jonson tarixi» va T.Smolletning «Perigrin Piklning sarguzashtlari» asarlarida yovuzlik va ezgulik to'g'risidagi an'anaviy tushunchalardan chekiniladi, hayotiy, jonli obrazlar yaratiladi. Ma'rifatchilar tarbiya, bilimning ahamiyatiga alohida urg'u berganlar, to'g'ri tarbiya yordamida o'zlari orzu qilgan mukammal inson -halol, mehnatkash, bilimdon kishini yaratish mumkin, deb hisoblaganlar. Biroq shunga qaramasdan ushbu adabiyotda yaratilgan yorqin obrazlar ko'proq ziddiyatli, murakkab shaxslar bo'lib chiqdi. Masalan, fransuz adibi A.R.Lesajning «Santilyanalik Jil Blaz hayoti tarixi» romanining qahramoni, ingliz yozuvchisi

S.Richardsonning «Klarissa Garlo yoki yosh xonimning tarixi» asarining qahramoni Lovlas kabilar manfiy va musbat tomonlarning yig'indisi, o'ziga xos, takrorlanmas obrazlar bo'lib qoldi. Ma'rifatchilik adabiyotining yana bir o'ziga xos xususiyati oddiy kishilar, past tabaqa vakillari obraziga murojaat qilinishida ko'zga tashlanadi. Masalan, D.Didro («Ramo» asaridagi Ramoning jiyani) yaratgan obrazda bir shaxsning o'zida xudbinlik va tanqidiy ruh, Bomarshe asarining («Seviliyalik sartarosh» asari qahramoni xizmatkor Figaro) qahramonida esa uddaburonlik, tadbirkorlik, ayni paytda, lo'ttibozlik, nayrangbozlik mujassam.

Nemis adabiyoti ko'plab badiiy kashfiyotlari bilan ma'rifatchilikni yangi pog'onaga ko'tardilar. Buni Shillerning «Vallenshteyn» tragediyasi va Gyotening «Faust» asari misolida ko'rish mumkin. Shiller («Insonni estetik tarbiyalash to'g'risida xatlar» asarida) va Gyote («Vilgelm Maysterning talabalik yillari» romanida) «qashshoqlik va mulohaza» saltanatida yashovchi insonlarni san'at yordamida qayta tarbiyalash mumkin, deb hisoblaganlar. Ma'rifatchilar hissiyotga ortiqcha berilishdan cho'chiganlar, Russo, L.Stern, O.Goldsmit kabi ijodkorlar uchun xos bo'lgan sentimentalizmdan qochganlar. Haddan ortiq hissiyotga berilish ma'rifatchilar nazdida oddiy zamin kishisi uchun xos emas, buyuk shaxslar uchun esa uning ijtimoiy dunyoqarashini xiralashtiruvchi xususiyat deb topilgan. Shu sababli ma'rifatchilar yoki zaminga yaqin janrlarga yoki yuksak janr - tragediyaga ko'proq murojaat qilganlar. Ma'rifatchilar XVII asr klassitsizmining qolip tusini olgan qonuniyatlarini tanqid qilganlar, uning estetikasini sifat jihatdan o'zgartirganlar, unga zulmga qarshi g'oyalar, ma'rifatparvarlik ohanglarini kirgizganlar. Volterning «Edip», «Brut», Shillerning «Messinlik kelin» tragediyalari, Gyotening «Ifigeniya Tavridda» dramasi shu jihatlari bilan e'tiborga molik.

Ma'rifatchilik davri adabiyotidagi novatorlik faqat yangi fikrda emas, yangi shaklda ham namoyon bo'ldi. Ma'rifatchilar mavjud shakllarga yangi ko'rinish, yangi mazmun baxsh etdilar. Drama janri rivoji yangi bosqichga ko'tarildi. Klassitsizm dramasiining yuqori (tragediya) va quyi (komediya) janrga qo'yadigan talablaridan chetga chiqildi, drama qahramonlari oddiy kishilar, mavzusi esa zamonaviyligi bilan xarakterlanadi.

Ma'rifatchilik davri adabiyotining asosiy janri - roman vujudga keldi. Ma'rifatchilik romani erkin janr bo'lib, qat'iy talablarga bo'ysunmas, makon va zamonda chegaralanmagan, asosiy tasvir obyekti real voqelik va shaxslar edi. Roman janri, ayniqsa, Angliyada muvaffaqiyat qozondi. J.Sviftning «Gulliverning sayohati», D.Defoning «Robinzon Kruzo» romanlari ushbu janrning imkoniyatlarini namoyish qildi.

Adabiyotdagi ma'rifatchilik deb nom olgan bu bosqich nazariy-estetik jihatdan olg'a tashlangan qadam bo'ldi, badiiy nasrda yangi janrlar - tarbiyalovchi roman, maishiy roman, falsafiy qissa, hajviy epos kabilarni vujudga keltirdi, inson ruhiyati tahlilining yangi usullarini kashf qildi.

Buyuk nemis shoiri va mutafakkiri, Yevropa ma'rifatchilik oqimining so'nggi yorqin namoyandasi Iogann Volfgang Gyote 1749-yili Leypsig shahrida imperator maslahatchisi oilasida tug'ildi. Otasi Yoxann Kaspar Gyote imperiya maslahatchisi, huquqshunoslik fanlari doktori bo'lgan. Onasi Elizabet Gyote Gekstor shahar meri Yoxann -Volfrang Testorning qizi 17 yoshida 38 yoshli maslahatchiga turmushga chiqqan edi. Oilada to'ng'ich farzand bo'lgan Iogann avval Leypsigda o'qiydi, so'ngra esa Strasburgda huquq va tabiyot fanlaridan tahsil oladi. 1771-yili cherkov va davlat o'rtasidagi munosabatlar mavzusida dissertatsiya himoya qiladi. Bulardan tashqari Gyote geologiya, optika, hayvon va o'simliklar haqidagi asotirlarga ham qiziqqan, san'at tarixini o'rgangan, rasm chizgan, Shekspir ijodiga bag'ishlangan ma'ruzalarni tinglagan, she'r yozgan. Shekspir bilan bir qatorda yosh Gyotega V.Skott, Gizo, Vilmen va Kuzen kabi romantik yozuvchilar ijodi kuchli ta'sir ko'rsatgan, ayni paytda Fixte, Shelling, Gegel kabi faylasuflar ijodidagi falsafiy fikr parvozi ham uni maftun qilgan, bo'lajak buyuk shoir dunyoqarashining shakllanishida katta rol o'ynagan.

Gyote o'z ijodini 70-yillarda boshlagan. Ilk dramalari «Gyos fon Berlixingen», «Prometey», «Muhammad», qator she'riy asarlari unga katta shuhrat keltirdi. 1774-yilda «Yosh Verterniing iztiroblari» romanini yaratdi. Unda yosh qalbning ishqiy kechinmalari tasviri ijtimoiy voqealar bilan bog'lanib ketadi.

Gyote 1776-yilda gersog Karl Avgustning vaziri vazifasiga tayinlanadi. U o'z mavqeidan foydalanib demokratik islohotlar o'tkazish umidida harakat qiladi, biroq orzulari to'siqlarga uchraydi, niyatlari puchga chiqadi va Gyote 1786-1788-yillari Italiyaga sayohat qilishga qaror qiladi. Ushbu sayohat taassurotlari natijasi o'laroq «Ifigeniya Tavridada» (1786), «Egmont» (1788), «Torkvato Tasso» dramalarini yozadi.

1789-yilda bo'lib o'tgan Fransuz burjua inqilobi uning qalbida ziddiyatli fikriar uyg'otadi. U inqilobning qon to'kuvchi, birodarkushlik mohiyatini qabul qila olmaydi, o'z vatanida bunday hodisalar bo'lishini istamaydi. «Venetsiya epigrammalari» (1790), «Fuqaro General» dramasi (1793), «Nemis mUhojirlari suhbatlari» novellasi (1794), «German va Doroteya» dostoni (1794) da ana shu qarashlar aks etgan. 1794-yili nemis klassitsizmining yorqin namoyandasi G.Shiller bilan do'stlashadi.

Gyotening «Vilgelm Maysterning talabalik yillari» (1793-1796), «Vilgelm Maysterning darbadarlik yillari» (1821-1829) romanlari asosida insonning jamiyat oldidagi burchi, mas'uliyati masalasi yotadi.

Gyotening dunyoqarashiga Sharq ijtimoiy-falsafiy qarashlarining ta'siri katta bo'lgan. Sharq mavzusiga murojaat qilishini uning o'zi shunday izohlaydi: «Yevropadagi hayot sharoiti va davr taqozo qiladi». Napoleon urushidan so'ng tushkunlikka tushgan Yevropa voqeligidan ko'ra Sharq uni o'ziga ko'proq jalb qiladi. Gyote Sharq mamlakatlari madaniyati, tarixi, adabiyotini juda yaxshi bilgan, Firdavsiy, Anvoriy, Sa'diy, Nizomiy, Rumiy, Hofiz, Jomiy kabi buyuk sharq ijodkorlari asarlari bilan yaqindan tanish bo'lgan. U Hofiz Sheroziyni o'ziga ustoz deb biladi. Sharq she'riyatidagi hayotsevarlik, inson aqliga, imkoniyatlariga ishonch tuyg'usi uni o'ziga maftun qiladi. Bu kayfiyat uning 1819-yilda e'lon qilingan «Mag'rib-u Mashriq devoni» she'rlar turkumida o'z ifodasini topgan.

Ayni paytda Gyote buyuk asari «Faust» ustida 1772-yili boshlagan ishini davom ettiradi. «Faust» Gyotening butun ijodiy faoliyati davomidagi izlanishlarining samarasi bo'lib, Yevropa ma'rifatchilik harakati qarashlarini yorqin aks ettiradi. «Faust» asari asosida afsona yotadi, unga ko'ra dunyo va g'ayb ilmlarini mukammal egallagan isyonkor doktor Faust iblisga imonini sotadi. Gyote ijodini o'rgangan olimlar fikricha, Faust VI-VII asrlarda yashagan tarixiy shaxs bo'lib, favqulodda o'tkir aqli va g'aroyib shaxsiyati bilan shuhrat qozongan, sayohat qilishni sevgan. U nihoyatda qobiliyatli, bilimdon kishi bo'lganmi, yoki uchiga chiqqan ko'zbo'yamachi, lo'ttibo'z odam bo'lganmi, buni noma'lum. Lekin uning qilmishlari, ko'rsatgan mo'jizalari elni qoyil qoldiigan, xalqunga ishongan, muhabbat qo'ygan. Bu Faust haqida ko'plab rivoyat-u afsonalar to'qilishiga sabab bo'lgan. XVI asrda yashab o'tgan frankfurtlik noshir Shpis «Mashhur folbin va afsungar doktor Yoxann Faust tarixi» nomli kitobida Faust haqidagi barcha rivoyat va hikoyatlarnijamlaydi Muallif jannat, do'zax, qiyomat haqidagi diniy qarashlar, tasavurlarni ham bayon etadi. Shpis talqinida Faust tafakkur va bilimlari kuchini ishlatib inson bajara olishga qodir bo'lmagan ishni qila olmagach, ya'ni afsonaviy go'zal Yelenani asrlar qa'ridan o'z yoniga chorlashga muvaffaq bo'lmagach, iblis bilan shartnoma tuzadi va uning yordamida Yelena vasliga muyassar bo'ladi. Shpis fikricha, isyonkor Faust bu qilmishi uchun u dunyoda do'zax o'tida yonmog'i lozim. Isyonkor Faust shaxsi Gyoteni o'ziga maftun qiladi, ilk marotaba Faust haqidagi afeonaga «Prafaust» asarida murojaat qiladi.

«Faust» asari murakkab, ramzlarga, tagma'nolarga to'la asar. Unda aniq makon va davr ko'rsatilmagan, konkret shaxslar nomi atalmagan, biroq doston o'z davrining muammolari, g'oyalarini aks ettiradi. Aytii paytda unda butun insoniyat dardlari, intilishlari o'z ifodasini topgan. Gyote insonga cheksiz mehr va ishonch bilan qaraydi, uning qudratiga qoyil qoladi, o'zligidan iztirob chekadi. «Faust» tragediyasi insonning ruhiy imkoniyatlari tadqiqiga bag'ishlangan.

«Faust» she'riy shaklda yozilgan bo'lib, ikki qismdan iborat tragediyadir.

«Faust» asari klassitsizm an'analariga ko'ra «Bag'ishlov», «Teatr muqaddimasi» va «Arshi a'lodagi debocha» bilan boshlanadi. Muqaddimada san'atga turlicha qarashlar namoyon bo'ladi U qiziqchi, shoir va muzey direktorining suhbatidan iborat. Shoir: «Avlodlarga qolur haqiqiy san'at» deb hisoblaydi, qiziqchi esa: «Bu kungi yoshlarni xursand qilur kim? Zamonga yor bo'lish kichkina ishmas» deydi. Direktor: «Eng zaruri sarguzasht bo'lsin, Ko'zga quvonch bo'lsin, dilga gasht

bo'lsin» degan fikrda. Gyote san'atga ko'ngil ochish vositasi yoki pul topish manbai deb qarovchilarga qarshi chiqadi, iste'dod ilohiy ne'mat, uningcha san'at inson qalbini o'zgartirishga qodir buyuk kuch, u buyuk ishlarga xizmat qilishi kerak:

*Bor, izla o 'zingga bo'lak xizmatkor,
Sen boshlagan yo'Iga aslo bormasman.
Menda tangri bermish oliy huquq bor,
Sen deb men uni loyga qormasman.*

*She'riyat qalblarni yoqur ne sabab?
Nahot bois bo'lsa balandparvoz gap!
Shoir yuragida pinhondir olam,
Jahoniy uyg'unlik unda mujassam.*

(Erkin Vohidov tarjiması)

«Faust» asarida Gyote san'at to'g'risidagi ana shunday qarashla riga asoslangan, shoir Faust timsolida o'zining inson va borliq haqidagi qarashlarini bayon qiladi.

Tragediya qahramoni Faust -izlanuvchan, bilimga, haqiqatga tashna shaxs, u yaratuvchi, o'zgartiruvchi, quruvchi kuch timsoli, u o'zida aql, idrok, ehtirosni mujassamlashtirgan inson. Faust xarakteridagi muhim jihat biqlik, cheklanganlikka qarshi norozilikdir. Bu norozilik undagi inkor ruhi tarzida namoyon bo'ladi. «Men hargiz yomonlik tilab - yaxshilik qiluvchi kuchning bir qismi, Men inkor ruhiman, Inkor qilishni kasb qilib olganman... Xullas, siz yomonlik deb atagan Kuch - men o'zim».

Bu tragediyadagi Mefistofelning so'zlari. Mefistofel iblis timsoli. U tashqi tomondan Faustning tamom ziddi bo'lsa-da, botinda uning ruhida yashaydi, har ikki obrazning dunyoqarashi, e'tiqodi biri ikkinchisiga tamomila teskari bo'lsa-da, aslida bir butunlikni tashkil qiladi. Asarda inson bilan shayton o'rtasida tinimsiz kurash boradi. Faust olam sirlarini bilishga, inson qudratini namoyish qilishga intiladi, tabiat bilan birlashib ketishni orzu qiladi. Bundan ojiz qolganda o'lim sharbatini ichgisi keladi. Shunday paytda Shayton unga ko'makka keladi, unga ko'ngil parvozig, istaklariga qanot va'da qiladi. Inson va Shayton o'zaro ittifoq tuzadilar. Mefistofel qalbi razolatga lo'la, unda tuban fikrlar hukmron, u odamzodning aqliga ishonmaydi, hayot uningcha insonga bir bor beriladigan omonat tortiq, imkon qadar undan ko'proq olish, nafsni qondirish uchun yashash kerak deb hisoblaydi. U alohida odam emas, aslida u insonning ichida, doimo uning qalbiga vasvasa solib, tuban, shaytoniy istaklarni yuzaga chiqarishga undaydi. Ko'rinadiki, Mefistofel an'anaviy yovuzlik timsoli. Biroq bunday hukm chiqarishga shoshilmaslik kerak. Gyote yaratgan Mefistofel murakkab obraz -u masxaraboz, lo'ttiboz, muttaha, ayni paytda nihoyatda aqlli, uning mushohadalari o'tkir kinoyaga boy, mo'ljalga aniq tegadi, ular zahirida haqiqat bor, tabiatiga isyonkorlik, jo'shqinlik xos. Tangri bejiz unga Faustni topshirmaydi: «Inson tabiati uyquga moyil, Sen unga qutqu sol, turtib tur doim. Atrofida aylan, qo'zg'ot erta-kech, har zamon bedor tut, orom berma hech». Mefistofel Faustga dunyoning u ilgari ko'rmagan tomonlarini, tatimagan ne'matlarini ko'rsatadi. Shu tariqa Faust Shayton ko'magida qaynoq zamin hayotiga otiladi, qalbida yoshlik, muhabbat olovi gurkiraydi, 14 yoshli ma'suma Margaritani sevib qoladi. Biroq hissiyotga to'la sof muhabbat shayton qutqusi tufayli dahshatli yakun topadi, soddadil Margaritaning fojiali taqdiriga sabab bo'ladi. Faust sevgilisining azob-uqubatlarini ko'rganda iblisni la'natlab uni qutqarish uchun otiladi, uning qismatini o'zgartirilmagan bo'lsa-da, qalbida yana insoniylik uyg'onadi.

Faust Mefistofelga qarata, ya'ni qalbidagi Shaytonga qarata shunday xitob qiladi:

«Og'zingm yum! Bu dahshatli so'yoqtishlaringni menga ko'tsatma! Ey buyuk va poyonsiz rah! Sen meni bir bor ko'rding, qalbimga quloq tutding. Nega endi meni bu maxluq bilan, xayolida faqat yomonlik bo'lgan, o'zgalar g'amidan doimo yayragan bu benomus bilan bog'lading?»

Faust bilan Margaritaning so'nggi uchrashuvi asarning eng yorqin, ta'sirli sahifalaridandii. Bu yerda shaytoniy hislarga mag'lub bo'lgan insonlarning iztiroblari mahorat bilan tasvirlangan.

Asarning ikkinchi qismida Faustni o'zini Margaritaning mash'um qismati sababchisi deb bilib, og'ir iztiroblar iskanjasida qolgan holatda uchratamiz. Bu yerda ham uni jo'shqin hayot, go'zal tabiatning sehrli chorlovi, ilohiy qudrati qutqaradi, uning mudroq qalbida ikkinchi marotaba uyg'onish ro'y beradi.

*Tumanlar ichidan turguvchi sahar,
Senga yana shodon chiqurman peshvoz.
Azaliy ko'rkina-la aylab musaxxar,
Zamin, bu kech menga bo'libsan hamroz.*

*Sen yana ko'ksimda uyg'otding istak.
Orzular ko'kida qilurman parvoz.*

(Erkin Vohidov tarjimasi)

Faust endi afeonaviy Yelenani izlab Mefistofel va kimyogar Vagner tomonidan shisha idishda yetishtirilgan sun'iy odamcha Gomunkul ko'magida safarga o'tlanadi. Go'zal Yelenani topadi, ular orasidagi xayoliy muhabbatdan Evforion tug'iladi. Faust sarguzashtlari ramzlarga boy, ular tag zaminiga yetish alohida diqqat va tafakkur talab qiladi. Evforion halok bo'ladi, go'zal Yelena ko'kka ko'tarilib g'oyib bo'ladi. Faust endi olam tashvishlari bilan band. U Mefistofel bilan imperatorlar urushida qatnashadi, qonuniy imperator g'alabasiga sabab bo'ladi. Imperator unga dengiz bo'yidagi botqoq va balchiq yerlarni in'om qiladi, shu o'rinda ma'rifatchilik davrining ideal qahramoni - faoliyat kishisi, yaratuvchi inson namoyon bo'ladi, Faust bu yerlarni insonga xizmat qildirish uchun zo'r ishtiyoq bilan kirishadi. Faust bir umr izlanadi, inson umrining ma'nosi va mohiyatini anglab yetishga intiladi, nihoyat o'zi orzu qilgan «To'xta, ey daqiqa, go'zalsan g'oyat» deb ataluvchi lahzalar jonli, jo'shqin hayotda ekanligiga imon keltiradi, hayotdan ko'z yumar ekan, shunday xulosaga keladi:

*Uzog hayot yo'lini oidim-u bosib,
Olam hikmatini ayladim yakun.
Kim - erk, hayot deb jang qilolsa har kun -
Erk-u hayot uchun o'sha munosib.*

(Erkin Vohidov tarjimasi)

«Faust» asari insonga nisbatan umid va ishonchga to'la. Hayotda ezgulik va taraqqiyot uchun kurash hech qachon so'nmaydi. Shu sababli ham asar yakunida Faust ruhi «Men bilan olishdi uzoq bu banda, Yuz tuban yiqildi vaqti yetganda», deya tantana qilayotgan shaytonga emas, jannat maloyikalari hukmiga o'tadi, inson qalbidagi iblisni yengishga muvaffaq bo'ladi.

12-MAVZU:ROMANTIZM ADABIYOTI

Reja:

1. Romantizmning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Angliya va Ispaniyada romantizm.
3. Frantsiya va nemis romantizmi.
4. Evropa adabiyotida romantizmning tutgan o'rni.

Adabiyotlar:

1. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kkuch. T., Ma'naviyat, 2008.
2. Alimuhamedov N. “Antik adabiyot tarixi”. T.: “O'qituvchi”. 1975 yil.
3. Sulaymonova F. “Sharq va G'arb”. T.: “O'zbekiston”. 1997 yil.
4. Kun N.A. “Qadimgi Yunoniston afsona va rivoyatlari”. Toshkent. 1983 yil.
5. Mahmudov M. “Hayrat va tafakkur”. Toshkent. G'.G'ulom. 1990 yil.
6. Sh. Normatova. Jahon adabiyoti. T., Cho'lpon, 2008.

Romantizm (frans. romantisme) - XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmidagi Yevropa va Amerika adabiyotidagi yo'nalish. Boshda romantizm so'zi link va qahramonlik qo'shig'i - romans ma'nosini anglatgan, keyin esa ritsarlar to'g'risidagi yirik epik dostonlar shu nom bilan ritsarlik romanlari deb atala boshlagan. XVIII asrda Angliyada O'rta asrlar va Uyg'onish romantizm deb nomlanadi hamda she'riyatning asosiy unsuri hisoblanadi.

XVIII asr oxiriga kelib bu atama Germaniyada va XIX asr boshlarida Fransiya o'z davri yangi adabiyotini anglatish uchun qo'llana boshlaydi. Keyinchalik ajoyib fantastik, sirli, sarguzashtga oid barcha narsa ana shu so'z bilan atala boshladi. Bir qator boshqa Yevropa mamlakatlarida romantizm o'zini klassitsizmga qarshi qo'ygan badiiy oqim tusini oladi.

Ushbu yo'nalish vakillari o'rta asrlar san'atini ulug'lagan holda yangi davr san'atini ham inkor qilmadilar. Ular Dante, Shekspir, Servantes va Gyotelar timsolida buyuk romantiklarni ko'rardilar. Romantiklar san'atning asosiy xususiyatini insonning ichki olamiga e'tibor berish, ruhiyatidagi tushunish mushkul bo'lgan, ongdan tashqari holatlarga urg'u berishda deb bilardilar. Romantizmning tasvir obyekti ijodkorning orzu-ideallarini namoyish etuvchi xayoliy obrazlardir.

Romantizm ma'rifatchilik oqimidan keyin vujudga kelgan adabiy metod bo'lib, o'z atrofidagi voqelik va hayotdan qanoatlanmay, boshqa real voqelikdan yuqoriroq va ideal, pokiza voqelikni orzu qilish, inson va jamiyatni mukammalroq ko'rish istagini o'zida mujassam qiladi.

Romantiklar badiiy shaklni yangiladilar, tarixiy roman, fantastik qlssa, liro-epik doston janrlarini yaratdilar, sahnani isloh qildilar. Romantizm davrida, ayniqsa, she'riyat rivojlandi. she'riy shaklning imkoniyatlari kengaytirildi.

Romantizm metod sifatida Germaniyada aka-uka Shlegallar va E.Gofman, Fransiya V.Gyugo va de Stal, Angliyada Bayron va Shelli, Italiya J.Leopardi va A.Mandolini, Norvegiya G.Ibsenning ilk ijodi, Polshada A.Miskevich va Yu.Slovaskiy, AQSHda F.Kuper va G.U.Lonfello, Rossiyada A.S.Pushkin, M.Yu.Lermontov, N.V.Gogol ijodida o'z xususiyatlarini namoyon qildi.

A.S.Pushkin ras adabiyotining eng yirik vakilidir. Uni «Rus adabiyotining dahosi» deb ataganlar. Zero, rus adabiyotidagi yangilanish, keskin ko'tarilish, uning kelgusidagi taraqqiyoti ana shu shoir ijodi bilan bog'liq. Pushkinning zamondoshlari, u xalqni adabiyotni sevishga va hurmat qilishga o'rgatdi, jamiyatda adabiyotga zo'r havas tug'di, yozuvchilarni esa rus kitobxonlarini qiziqtiradigan va unga foydali narsalar to'g'risida yozishga o'rgatdi, shuning uchun ham insof yuzasidan uni haqiqiy birinchi buyuk ras shoiri deb hisoblaydilar, o'qimishli rus kishisi uning nomini tilga olganida unga zo'r hurmat va minnatdorchilik bildirdi, deya e'tirof etgan edilar.

Aleksandr Sergeyevich Pushkin 1799-yil 26-mayda Moskva shahrida tug'ilgan. Pushkinning ota-bobolari Rossiya tarixida ancha katta o'rin tutgan obro'li shaxslar bo'lgan. Ota tomondan bobosi Gavril Grigoryevich Pushkin o'z davrining yirik amaldorlaridan bo'lgan, keyinchalik Pushkin «Boris Godunov» tarixiy tragediyasida bu shaxsga keng o'rin beradi. Onasi tomonidan habash Ganniballari avlodiga borib taqalgan shoir Rossiya tarixidagi buyuk hukmdor Petrning asrandi o'g'li bo'lgan ushbu bobosining nomini faxr bilan esga oladi. Pushkin bu bobosi haqida «Buyuk Petrning arabi» asarini yoza boshlagan, lekin uni tugata olmagan. Buyuk Petr arabining kichik o'g'li Osip Abramovich Gannibal Pushkinning onasi Nadejda Osipovnaning otasi edi. Shoirning otasi Sergey Lvovich avval gvardiyachi Izmaylov polkida xizmat qilgan, keyinchalik harbiy xizmatdan bo'shab Moskvaga ko'chib kelgan bo'lib, zamonasining badavlat va bo'ro' kishilaridan edi.

Pushkin bolaligidan alohida e'tibor va nazorat ostida turli guverner, guvernant ayollar qurshovida o'sdi. Ulardan rus, fransuz, ingliz tillaridan ilk saboqlar oldi. Sergey Lvovich ilg'or fikrli, madaniyatli, adabiyotga va ilm-fanga mehr qo'ygan ma'rifatli kishi edi. Shu sababli uning xonadoniga zamonasining taniqli shoir va yozuvchilari tashrif buyurib turardilar. Tabiatida ijodkorlik qobiliyati bo'lgan bola hayotida, albatta, bu tashriflar izsiz ketmadi.

Pushkin to'qqiz-o'n yoshlaridan she'r yoza boshladi, hatto kichik komediyalar, masallar ham to'qigani haqida ma'lumotlar bor, biroq ular saqlanib qolmagan.

O'n ikki yoshida Pushkinni Sarskoye seloda tashkil qilingan litseyga o'qishga beradilar. Litsey Pushkin hayotida yangi bir sahifa ochadi, uning shoirlik iste'dodining ochilishi ana shu davrga to'g'ri keadi, bu yerdan qator do'stlar o'qitiradi. Pushkin tabiatan ta'sirchan va hissiyotga beriluvchan odam edi, bir muhabbat qo'ygan odamini oxirigacha sevar, undan hech narsasini ayamas edi. Shu sababli litseydagi do'stlari bilan umrining so'ngigacha aloqasini uzmad. Sevimli litseyiga bag'ishlab bir necha ajoyib she'rlar yozdi, «Yevgeniy Onegin» she'riy romanida bu davr xotiralari ko'plab keltirilgan.

Pushkinning litseydagi olti yillik ta'limi uning bilimlarini boyitishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bo'lg'usi daho shoir o'ta namunalik o'quvchi emas edi, zero alohida iste'dodga ega shaxslar

qat'iy qoliplar, tartibga bo'ysunishni yoqtirmaydilar. Shu sababli u muntazam darslarga tayyorlanishni yoqtirmas edi. Biroq Pushkin darsdan tashqari o'zi istagan tarix va adabiyotga oid asarlarni ishtiyoq bilan o'qir edi

Litsey hayoti davomida uning ilk she'ri matbuot yuzini ko'rdi Bu «Shoir do'stinga» deb nomlanuvchi she'r 1814-yili Moskvadagi «Вестник Европы» jurnalida bosilib chiqadi litsey o'quvchilari orasida uning epigrammalari ham mashhur edi. Aynan shu litseyda yosh Pushkin iste'dodi chinakamiga tan olindi. Bu voqea shoir Derjavinning Sarskoye selo litseyiga tashrifi bilan bog'liqdir. Shoir o'zining «Sarskoye selo xotiralari» she'rini o'qiydi, Derjavin juda hayajonlanib ketadi va uni bag'riga bosmoqchi bo'ladi. Lekin hayajonga va xijolatga to'lgan Pushkin qochib berkinib oladi.

Pushkin 1817-yili litseyni tamomlab, Tashqi ishlar Kollegiyasiga ishga kiradi

Xushchaqchaq, jo'shqin tabiatli Pushkinni Peterburg kibarlar doirasi yaxshi qabul qiladi, bu orada yosh ijodkorlar tashkil qilgan «Arzamas» jamiyatiga kiradi. 1818-yil birinchi yirik dostoni «Ruslan va Lyudmila» ni yozadi Bu asar xalq og'zaki ijodi namunalari asosida yaratilgan. Bahodir Ruslan sehrigar Chernomor tomonidan o'g'irlab ketilgan qallig'i Lyudmilani axtarib topadi Shoirning sodda va ravon uslubda yozilgan bu asari omma tomonidan zavq bilan qabul qilinadi Doston rus adabiyotidagi yangilanish jarayoni boshlanganidan darak berar edi. Unda klassitsizm she'riyati kishanlariga, an'anaviy uslubga nisbatan isyon mayjud edi. Asar muallif bilan o'quvchi o'rtasida yangicha munosabat o'rnatilayotganidan dalolat beradi: klassitsizmdan farqli o'laroq ular hamfikrga aylanadilar, me'daga tegadigan quraq pand-nasihat o'rnini do'stona ohang, teng munosabat egallaydi.

Doston yaratilganidan keyin oradan ko'p o'tmasdan Pushkin Bessarabiyagajo'natiladi va 1820-1824-yillari Rossiyaning janubida yashaydi. Tadqiqotchilar buni hurfikr Pushkinning asarlaridagi siyosiy ohanglarning hukumat boshliqlariga yoqmaganligi bilan izohlaydilar. Aleksandr I Pushkinni «zararsizlantirish» maqsadida janubga, Yekaterinoslavga «surgun» qiladi. Bu yerda betob bo'lib qolgan Pushkin general Rayevskiy oilasi bilan tanishib, u bilan birgalikda Kavkazga, bu yerdan esa Qrimga ketadi, qrim xonlarining poytaxti bo'lgan Boqchasaroyda bo'ladi, undan Kishiflyovga o'tadi, keyin Kiyevda yashaydi, u yerdan yana Kishinyovga qaytgach bir necha yil oldin boshlagan «Kavkaz asiri» dostonini yozib tugatadi. Doston ras adabiyotidagi ushbu janrda yaratilgan birinchi romantik yo'nalishga mansub asar edi. Unda ingliz shoiri Bayronning ta'siri seziladi. Shoir o'z oldiga «XIX asr yoshlari uchun xos bo'lgan hayot va uning lazzatlariga nisbatan befarqlik, inson qalbining bevaqt qarishi»ni ko'rsatishni maqsad qilib qo'yadi. Doston Pushkinga katta shuhrat keltiradi, ayni paytda bu asar badiiy jihatdan ham yangi xususiyatlarini namoyon qiladi, rus adabiyotiga inson ruhiyatini murakkabliklari va ziddiyatlari bilan ko'rsatish tamoyilini olib kiradi.

1822-yilda «Boqchasaroy fontani» nomli uchinchi doston e'lon qilinadi. Xarakterlarning o'ta favquloddaligi, qahramonlar xatti-harakatlaridagi sirliqlik, sujetning kutilmaganligi dostonidagi romantik ruhni kuchaytiradi. Kavkaz, Qrim taassurotlari ostida yozilgan bu asar kitobxon tomonidan katta quvonch bilan qarshi qilinadi. Shundan so'ng Pushkin ma'lum muddat Odessada xizmat qiladi va 1823-yili «Lo'lilar» asari ustida ish boshlaydi. Besarabiyada bo'lganida yaqindan tanishgan lo'lilar hayotidan olib yozilgan bu asarini 1824-yili Mixaylovskoye qishlog'ida tugatadi. Doston qahramoni Aleko kibarlar jamiyatidan, shaharning bo'g'iq muhitidan bezgan, uni lo'lilarning erkin hayot tarzi maftun qiladi. Biroq ana shu jamiyat tarbiyalagan xususiyatlardan o'zi ham qutulolmaydi, aql va idrokka bo'ysun-maydigan, faqat qalbiga quloq tutadigan lo'li qiz Zaremaga ehtirosli muhabbatining fojiali yakun topishi sababi ham shunda.

Pushkin 1824-yili ota-onasining mulki - Mixaylovskoye qishlog'iga surgun qilindi. Bunga uning Odessa general-gubernatori bilan kelishmovchiligi sabab bo'ladi. Mixaylovskoyeda uning «Qur'ondan iqtibos», «Andrey Shene», «Vaxsik qo'shig'i», «18-oktabr», «Faustdan sahna», «Stenka Razin haqida qo'shiq» asarlari vujudga keladi. Shu yerda «Lo'lilar» asarini tamomlaydi. «Yevgeniy Onegin» she'riy romani, «Boris Godunov» tragediyalari ustida ish olib boradi.

Pushkinning «Boris Godunov» tragediyasi uning ijodi yangi yo'nalishga kirganidan dalolat beradi, asarlarida realistik uslubga moyillik ko'zga tashlana boshlaydi. Shekspir ta'sirida yozilgan ushbu asarda Pushkin klassik tragediyaga yangicha ruh olib kiradi, klassitsizmning «uch birlik»

qonunidan dadil voz kechadi, she'riy va nasriy sahnalarni uyg'unlashtira biladi, jonli xalq tili leksikasidan erkin foydalanadi. Ayni paytda tanx haqiqatiga sodiqlikka, qah»amonlar xarakterini butun murakkabliklari, ziddiyatlari bilan namoyon qilishga intiladi.

Pushkin davrning ijtimoiy masalalaridan ham chetda turmadi, 1826-yilgi Rossiyadagi dekabristlar qo'zg'olonida shaxsan ishtirok etmagan bo'lsa-da, dekabrist do'stlari harakatiga befarq qaramadi. Pushkin chin hassos ijodkor sifatida erkinlik, haqiqat, umuman, ezgulik tarafdori edi, u har qanday ko'rinishdagi zulmga qarshi edi. Shu sababli shoh g'azabiga duchor bo'lgan do'stlariga chin dildan hamdard bo'ladi. Shu tariqa uning «Sibirga», «Arion» kabi she'rlari vujudga keladi.

Pushkinning bu davida yaratilgan «Sezgi», «Uch kalit» kabi she'rlari inson hayotining ma'nosi, taqdirini yaratish uchun kurash va ayni paytda taqdiri azal oldidagi ojizlik tuyg'ularini ifodalaydi.

20-yillarning ikkinchi yarmida Pushkin «Yevgeniy Onegin» ustidagi ishini davom ettiradi. Romanning birinchi to'liq nashri 1833-yilda bosilib chiqadi.

Ushbu roman turi keyinchalik davom ettirilmadi. Biroq Pushkinning bu asari uning ijodida realistik yo'nalishlarning barqarorlashganidan dalolat beradi. Shoir tasvirda voqelikni aks ettirishning yangi, murakkab usullariga murojaat qiladi Shoir bayonchi emas «ko'rsatuvchi» holatini egallaydi -rus hayoti manzaralari suratdagidek ko'z o'ngingizda jonlanadi Ayni paytda unda davrning o'tkir ijtimoiy-axloqiy muammolari aks etadi.

Roman markazida Yevgeniy Onegin obrazi turadi. Onegin ziddiyatli, murakkab shaxs. U yuksak didli, zukko inson, atrofida ro'y berayotgan hodisalarni teran idrok etadi. Kiborlar muhitidagi munofiqlik, aldov, riyoni chuqur his qiladi, o'zini bu muhitga yot sezadi, undagi loqaydlik, zerikishning sababi shunda. Ayni paytda u o'z muhitining farzandi, uning hayot tarzi, odatlaridan voz kecha olmaydi. Pushkin Oneginning aniq maqsaddan, orzu-istaklardan xoli, loqayd umrguzaronligini tasvirlaydi, bu hayot bir maromda, karaxt bir tarzda kechaveradi.

Tatyana Larina romandagi yagona nurli obrazdir. Ko'ngli musaffo, ma'suma, tashqi tomondan ko'rimsiz va zaifgina bo'lgan bu qizda juda kuchli hissiyotga qodir ulkan qalb yashiringan. U Onegin timsolida hassos qalb, dardli insonni ko'ra biladi, shu sababli uni sevib qoladi. Tatyana Oneginga she'riy maktubi asarning eng kuchli o'rinlari-dandir. Biroq Onegin Tatyana muhabbatini rad etadi, zero muhitning yengil-yelpi sarguzashtlariga o'rgangan, hatto sevgi ham ko'ngil ermagiga aylangan qalb kuchli ehtiros bilan yo'g'rilgan bunday muhabbatga tayyor emas edi. Onegin muhabbatdan ham zerikib ulgurgan, uning o'tkinchiligiga imon keltirgan edi. Shu qarash yetovida bemaqsad, shunchaki diXushlik uchun Tatyana singlisi Olgaga xushomad qiladi, o'zi qadrlamagan narsani o'zgalar qadrlashi mumkinligini o'ylamaydi. Pirovardida Olgani chin dildan sevuvchi do'sti Lenskiy bilan qattiq nizolashishgacha borib yetadi, oqibatda esa duelda uning umri bevaqt xazon bo'lishiga sabab bo'ladi.

Oneginning loqaydligi aslida aldovga, riyoga asoslangan muhitga isyon bo'lib, bu yo'l bilan bemaqsadlik, bemaslaklikdan xalos bo'la olmaslikni u tushunib yetmadi. Oneginning fojiasi ham shunda.

Roman so'nggida qahramonning mudroq hayotida o'zgarish ro'y beradi, o'zi bir vaqtlar rad etgan Tatyana kiborlar muhiti davrasida, badavlat qari gene raining xotini, aslzoda xonim qiyofasida ko'radi va birdaniga uni sevishini anglab yetadi. Oneginning qalbi tubida cho'kib votgan asl insoniy hissiyotlar uyg'onadi, muhabbat ham alamli, ham shirin tuyg'ularini qo'zg'aydi. Tatyana tabiatiga sodiq qoladi, Oneginni hali ham sevadi, biroq u birovlarining iztirobi evaziga muhabbatga erishish adolatdan emas deb biladi, eriga sodiq qolishga qaror qiladi.

Yozuvchi Oneginni sevgi, hijron iztiroblari bilan to'lgan holda qoldirib, romanini yakunlaydi.

«Yevgeniy Onegin» she'riy romani Pushkin ijodidagi realizm tomon tashlangan yangi qadam bo'ldi, unda voqelik, xarakterlarning realistik tasviri, ayni paytda zamonasining muhim ijtimoiy-axloqiy muammolari aks ettirilganligini kuzatish mumkin. Shu tariqa Pushkin keyinchalik rus adabiyotida Gogol, Tolstoy, Dostoyevskiy, Chexov kabi yozuvchilar tomonidan yuksak cho'qqiga ko'tarilgan realistik yo'nalishlarga asos soldi

1830-yilning kuzini Pushkin Boldinoda o'tkazadi. Bu yerda u «Kolomnodagi kulba» dostonini yozib tugatadi. Bu asarning sujeti atayin soddalashtirilgan, shoir go'yoki yozuvchidan nasihatgo'ylik, o'gitbozlikni kutuvchi tanqidchi bilan bahs-munozaraga kirishadi.

Pushkinning «Belkin qissalari» asari ham Boldinoda yaratilgan. Unda yozuvchi har biri mustaqil bo'lgan hikoyalarni bir nom ostida birlashtiradi. Bu hikoyalarda realizmga moyillik sezilsa-da, romantizm elementlari hali kuchli. Pushkin qissa deb atagan bu hikoyalar sujeti asosidagi voqealar aksar holda favqulodda, kitobxonni qiziqtiruvchi, sarguzashtga moyil, bir oz g'ayritabiiy xarakterda. Yuqorida eslatib o'tilgan «Bo'ron» hikoyasida kuyovning almashib qolishi, «Qishloqi oyimqiz» da aslzoda qizning badavlat takabbur yigit muhabbatini qozonish uchun qishloqi oyimqiz qiyofasiga kirishi, «O'q uzish» hikoyasi qahramonining qasos tuyg'usini qalbida saqlab yurishi kabilar romantizm asarlari va qahramonlariga xos xususiyatlar bo'lib, mazkur to'plamga kirgan asarlarning umumiy jihati sifatida ajralib turadi. Hikoyalarning yechimlari ham kutilmagan - «Bo'ron» da aldangan qiz aynan o'sha adashib nikohlangan yigitni keyinchalik sevib qoladi va hikoya so'nggida bu oshkor bo'ladi, «Qishloqi oyimqiz» da esa badavlat yigit sevib qolgan «Qishloqi oyimqiz» otasi uylanishga undagan, yigit esa uylanishni istamagan aslzoda qiz bo'lib chiqadi, «O'q uzish» qahramoni qasosi ham kutilmagan - u raqibini jisman mahv etishdan emas, uning ko'zida o'lim vasvasasini ko'rishdan taskin topadi...

«Belkin qissalari» romantik elementlarning kuchliligiga qaramay tasvirning soddaligi, manzara va xarakterlarning tabiiyligi, detallarning haqqoniyligi bilan realistik rus novellasining dunyoga kelishi uchun asos yaratdi.

Shoirning Boldinodagi sermahsul ijodi shu bilan cheklanmadi, uning kichik tragediyalari ham shu yerda yozildi. «Xasis ritsar» Molyerning «Xasis» asari ta'sirida yozilgan. Biroq muallif unda Molyerdan farqli o'laroq shunchaki ziqna obrazini yaratish bilan cheklanmaydi. Uning qahramoni ritsarlik fazilatlarini o'zida mujas-samlashtirgan, ayni paytda savdogarga xos ochko'zlik, oltinga bo'lgan xirs juda kuchli, bu ehtiros darajasiga ko'tarilgan. Uning tabiatidagi shafqatsizlikning asosi ham shunda. «Motsart va Salyem tragediyasida inson tabiatidagi yana bir illat - hasad mavzusi yoritiladi. Daho san'atkor, noyob iste'dod sohibi Motsart tabiatan butunlay Salyerining aksidir. Chinakam iste'dod uchun esa yovuzlik begonadir. «O'rtamiyonalar xudosi» Salyeri qalbida xudbinlik illati ayj olgan, Motsart dahosini tan oladi, ayni shu narsa uning qalbini kalamushdek kemiradi, pirovardida hasad, yovuzlik ulkan talantni mahv etadi.

Jahon adabiyotida mashhur Don Juan obrazi yaratilgan «Tosh mehmon», Vilsonning «Vabo shahri» asari asosida yaratilgan «O'lat paytidagi bazm» tragediyalari ham Boldinoda yoziladi.

1831-yili Pushkin xorijiy ishlar kollegiyasiga xizmatga kiradi. Bu yerda u davlat arxiviga murojaat etish huquqiga egaligidan foydalanib Buyuk Pyotr tarixini yozishga ahd qiladi.

1833-yili «Mis chavandoz» dostonini tamomlaydi. Dostonda shoir Pyotrning Rossiya tarixida boshlagan yaratuvchilik faoliyatini ma'qullagan holda, ushbu harakat zulmga, zo'ravoniikka, kuchga asoslanganligini ham ko'rsatadi. Pyotr «taqdirning buyuk hukmdori», uning zimmasiga katta tarixiy vazifa yuklatilgan va u shu vazifani ado etgan. Biroq nima evaziga? Dostonda darveshsifat Yevgeniy obrazida shoir shu fikrni ilgari suradi. Yevgeniy shohga «Rossiyani temir uzangi» bilan jilovlagani uchun ta'na qilishga jur'at etadi.

1833-yili yozilgan «Pikovaya dama» qissasida Rossiyada shakllanayotgan yangi ijtimoiy munosabatlar qahramonlar qiyofasiga o'z muhrini bosganligini sezish mumkin. Bu davr kishisi inson hayotida pulning, boylikning muhimligini chuqur his etadi, boyib ketish yo'llarni izlaydi. Qissa qahramoni German xarakterida metin iroda, maqsadga intiluvchanlik, faollik mujassamlangan. Lekin maqsad yo'lda u barcha insoniy tuyg'ularni ham pisand qilmadi, yo'ldagi to'siqlar nimaning evaziga olib tashlanishining u uchun ahamiyati yo'q.

30-yillarda yozilgan ko'plab asarlari shoirning Rossiyadagi krepostnoylik muammosiga munosabatini aks ettiradi. («Goryuxin qishlog'i tarixi»). 1833-yili Pushkin Rossiya tarixida chuqur iz qoldirgan Pugachev qo'zg'oloni bo'lib o'tgan yerlarga sayohat qiladi, u haqidagi hikoyalar, qo'shiqlarni yig'adi. Shu tariqa «Pugachev tarixi» asari vujudgakekadi. Dehqonlar qo'zg'oloni mavzulari «Dubrovskiy» (1829- 1833), «Kapitan qizi» (1833-1836) asarlarida ham aks etadi.

«Dubrovskiy» asari asosida sarguzasht sujetiyotadi. Boy, shafqatsiz Troyekurov bilan kambag'allashib qolgan Dubrovskiy xonadonining yosh merosxo'ri Dubrovskiy o'rtasidagi ziddiyat sujetni harakatlantiradi. Dubrovskiy xo'rlangan otasi uchun qasos oladi. Bu yerda romantik muhabbat mojarosini ham kuzatish mumkin. Dubrovskiy va uning ashaddiy raqibining qizi o'rtasida muhabbat paydo bo'ladi, uning yakuni esa baxtsiz yechim topadi. Dubrovskiyning fransuz tili muallimi qiyofasida troyekurovlar xonadonida yashashi ham avantiyuristik asarlar sujetini yodga soladi. Ayni paytda o'z xo'jasi uchun qo'zg'olon ko'targan dehqonlarning hayotiy obrazi, qo'zg'olonning dahshatli manzarasi haqqoniyli, jonliligi bilan maftun qiladi.

Romantik elementlarga boy, bir qarashda ikki yoshning ishqiy sarguzashtlari haqida hikoya qiluvchi «Kapitan qizi» qissasida Pugachev qo'zg'olonining bevosita, realistik tasvirini ko'ramiz. Shoir qo'zg'olonning shafqatsiz, xunrezlik mohiyatini rad etadi, Pugachev harakatini oqlamaydi. Biroq hayot haqiqatiga sodiq shok qo'zg'olon sardorining qiyofasini muhabbat bilan bo'lmasa ham, uni tushunib, tabiatidagi mardlik, tantilik, shoirona romantiklik xislatlarini tan olgan holda chizadi. Kitobxon ko'z o'ngida johil, vahshiy olomonni maqsad yo'lida birlashtirgan dono, ayni paytda mug'omir, shafqatsiz, shu bilan birga adolatli dehqon obrazi gavdalanadi.

Pugachev qo'zg'oloni bilan bog'liq faktlarni yig'ish chog'ida Pushkin ko'plab xalq ertaklari va qo'shiqlarini yozib oladi, keyinchalik ulardan «Kapitan qizi» romanida, «Suv parisi» dostonida foydalanadi. 30-yillarda esa «Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak», «Shoh Sulton haqida ertak», «Oltin tojli xo'roz haqida ertak» asarlari dunyoga keladi.

1831-1836-yillarda Pushkin she'rlar yozishda ham davom etadi. «Shaytonlar», «Tunda uyqusizlikda bitilgan she'rlar», «Kuz» kabi she'rlarida ijodkor olamining sirli jabhalariga sayr etiladi, «Litsey qanchalar ko'p bayram qilgani sari...», «Men yana keldim», «Shahardan tashqarida o'ychan kezganimda» kabi she'rlari she'riyat, tabiat, hayot va mamot mavzulariga bag'ishlanadi. «Men o'zimga haykal qo'ydim...» she'rida esa shoir go'yo o'zini oldinda kutayotgan fojiani sezgandek bo'ladi, inson tafakkurining buyukligi, iste'dod nomining o'chmasligi, chin san'at asarlari boqiyli kuylanadi.

Pushkin ijodiy yetuklik davriga kirgan palla ayni paytda uning hayotidagi so'nggi bosqich bo'lib qoldi. Bu davrda shoir hayotida qator ko'ngilsizliklar ro'y berdi. 1833-yilda Pushkinga shoh Nikolay tomonidan kanier yunker unvoni berildi. Endi shoir saroy ballariga tashrif buyurishi, saroy odob-axloq qoidalariga amal qilishi lozim edi. Qoliplarga sig'maydigan shoir qalbi uchun bu yoqimsiz vazifa edi, iste'foga chiqishga urinishlar bekor ketadi. Buning ustiga shoir hukumatdan oldindan 30 ming so'm maosh oladi, endi u o'zi sevmagan kasbni oxirigacha bajarishga majbur.

Umuman, tadqiqotchilar Pushkin hayotining bu davrida uning kayfiyatidagi tushkunlik, qoniqmaslik hissini ta'kidlaydilar. Kavalegrad polki poruchigi, fransuz muxojiri J.Dantes bilan shoir o'rtasida nizo chiqishi ham uning mahzun, daqqi muhitdan zada kayfiyatiga mos edi. Saroy kibarlar guruhi o'rtasida shoir va uning xotini sha'nini bulg'ovchi ig'vo-bo'htonlar tarqaladi. Buni ta'sirchan, nozikqalb shoir ko'tara olmaydi. 1837-yil 27-yanvarda Pushkin va Dantes o'rtasida duel bo'lib o'tdi va shoir og'ir yaralandi. Ikki kundan so'ng, 29-yanvarda Rossiyaning buyuk shoiri dunyodan ko'z yumdi.

Pushkin rus madaniyati tarixiga rus adabiy tili va yangi adabiyotining asoschisi sifatida kirgan. Ayni paytda shoirning o'lmas adabiy merosi jahon adabiyotining ham ajralmas mulki bo'lib kelyapti.

13-MAVZU: REALIZM VA TANQIDIY REALIZM ADABIYOTI.

Reja:

1. Realizmning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Ernest Xeminguey ijodida realizm.
3. Gabriel Garsia Markes ijodida realizm.
4. Jahon adabiyoti va realizm.

Adabiyotlar:

1. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kkuch. T., Ma'naviyat, 2008.
2. Alimuhamedov N. "Antik adabiyot tarixi". T.: "O'qituvchi". 1975 yil.
3. Sulaymonova F. "Sharq va G'arb". T.: "O'zbekiston". 1997 yil.
4. Kun N.A. "Qadimgi Yunoniston afsona va rivoyatlari". Toshkent. 1983 yil.
5. Mahmudov M. "Hayrat va tafakkur". Toshkent. G'.G'ulom. 1990 yil.
6. Sh. Normatova. Jahon adabiyoti. T., Cho'lpon, 2008.

Realistik elementlar barcha davrdagi ijod namunalarida mavjud. Realizm (lotincha realis - ash-yoviy) - hayot haqiqatini asliga muvofiq tasvirlash, detallar va obrazlarning haqqoniyligini talab qiladi. Hayot haqiqatiga sodiqlik - uning asosiy shioridir. Realistik obrazlar va hodisalarning hayotiylikiga alohida e'tibor berganlar. Asar tili, qahramon nutqi, sujet, konflikt kabi unsuriyalar barchasi haqqoniylik talabiga bo'ysundirilgan. Bu metod ijodkorning o'zini qurshab turgan voqelik va insonlar to'g'risida o'ylagan haq gapini aytilish, kitobxon ko'z o'ngida real hayot va real insonlarni gavdalantirish yo'li bilan voqelik va inson to'g'risidagi haqiqatni ko'rsatish imkonini beradi. Realistik adabiyot buyuk namoyandalarning haqiqat kurashchilari sifatidagi xizmatlari beqiyosdir.

Fanda realizmning ilk bor qachon paydo bo'lganligi to'g'risida , aniq fikrga kelinmagan. Ko'plab tadqiqotchilar realizm ildizlarini juda s qadim zamonlardan izlaydilar. Ibtidoiy insonning qoyalarga chizgan rasmlari va antik adabiyot namunalarida ham realistik unsurlarni kuzatadilar. Biroq realizmning badiiy tizim sifatida shakllanishi Uyg'onish davri bilan bog'lanadi. Aynan shu davrga kelib insonga, uning qalbiga, kechinmalariga e'tibor kuchayadi, tabiiy tuyg'ullari bo'rttirib tasvirlanadi, kechinmalarga shoirona ruh beriladi. Shekspir, Servantes asarlarida realizmning o'ziga xos tarzda namoyon bo'lganligini ko'rish mumkin.

Realizm taraqqiyotidagi ikkinchi bosqich ma'rifatchilik davrjga to'g'ri keladi. XVIII asrda ingliz realistik romani vujudga keladi (D.Defo «Robinzon Kruzo» romani bilan ushbu janrga asos soladi). Inson aqliga, uning imkoniyatlariga yuqori baho beruvchi ma'rifatchilik realizmi hayot hodisalari va insonlar xatti-harakatlarini aqlga muvofiq yoki muvofiq emasligidan kelib chiqib baholar edilar. Aqlga to'g'ri kelmaydigan xatti-harakat deganda barcha qoloq urf-odatlar, eskirgan tartibotlar tushunilar edi. Shu sababli ma'rifatchilarning ijobiy qahramonlari o'tkir aqli bilan ajralib turadilar, salbiylari esa qoloq, johil odamlar. Ma'rifatchilik realizmi shartlilikka yo'l qo'yadi, fantastik elementlardan foydalanadi. (Masalan, Defo, Svift qahramonlari yoki Gyotening «Faust» asanni misol qilib keltirish mumkin;).

XVIII asr adabiyotida realizm va romantizm o'rtasida keskin chegara o'rnatish qiyin. Masalan, fransuz adibi Prosper Me rime asarlarida qahramonlar, sujet romantik asarlarga xos bo'lsa-da, faktik aniqlik uslubdagi xolislik uni realizmga yaqinlashtiradi. Ingliz adabiyotida Charlz Dikkins asarlarida maishiy-ijtimoiy roman an'analari davom ettiriladi, hayotiy manzaralar, hayotiy odamlar obraziga murojaat etiladi, ayni paytda avantiyuristik o'rinlar, jinoyat, sirlik kabi unsurlarning qo'llanishi romantik metodda yaratilgan asarlarni yodga soladi.

XIX asrda realizm yangi bosqichini boshladl Flober, Mopassan, rus adabiyotida Lev Tolstoy, A. P. Chexov kabi yozuvchilar ijodda renessans va ma'rifatchilik realizmidan farqlanuvchi xususiyatlarini namoyon qildilar. Fransuz adibi Floberning «Bovari xonim» romanida realizm an'analari keskin uzilish seziladi, bu asar realizmga xos hayot haqiqatiga sodiqlikni yaqqol namoyon qiladi. Endi insonning ijtimoiy hayot bilan munosabati, uning taqdiriga ijtimoiy muhit, tartibotlar ta'siri diqqat markaziga ko'chadi Ayni paytda inson ruhiyati, qalbi tahliliga alohida e'tibor beriladi.

Rus adabiyotida N.V. Gogol tomonidan kashf etilgan tuzum tartibotlari, ijtimoiy muhit ta'sirida maydalashgan «kichkina odam» qalbi, kechinmalari F.M.Dostoyevskiy, Anton Chexov ijodida yetakchi mavzuga aylanadi. Dostoyevskiyning bir qarashda noan'anaviy tuyulgan asarlarida inson qalbining o'ta murakkab, sirli manzaralari, hali qalamga olinmagan tublari ochib ko'rsatiladi.

XX asr boshlarida rus adibi Mixail Sholoxov, o'zbek adabiyotida Cho'lpon, Qodiriy bu metodning o'lmas namunalari yaratdilar. Amerika adibi Ernest Xeminguey, ingliz adibi Somerset Moem kabi yozuvchilar ijodida realizm o'zining yangi bosqichiga ko'tarildi, keyinchalik qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov, rus yozuvchilari M.Shukshin, V.Rasputin kabilarning mazkur metod imkoniyatlarini namoyon qiluvchi asarlari vujudga keldi.

Realizm uzoq davom etgan taraqqiyot bosqichini boshidan kechirgan, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, uning unsurlari, xilma-xil ko'rinishlari adabiyot tarixining barcha bosqichlarida kuzatilgan bo'lsa-da, uning tugal metod sifatida o'z imkoniyatlarini to'la namoyon qilishi XX asrga to'g'ri keladi. XX asr jahon adabiyotida ingliz adibi S.Moem, amerikalik E.Xeminguey, Lotin Amerikasi adibi Gabriel Garsia Markes singari adiblar ushbu oqimning eng ko'zga ko'ringan, uning rivojiga katta hissa qo'shgan va ayni paytda uni ulkan kashfiyotlari bilan boyitgan, biri ikkinchisini takrorlamaydigan o'ziga xos ijodkorlardir.

Uilyam Somerset Moem - buyuk ingliz yozuvchisi, XX asrning mumtoz adibi degan sharaflı nom egasi. U uzoq va mazmunli hayot kechirdi. XIX asr oxirida ijodini boshlagan yozuvchi ikkinchi jahon urushidan keyin unga yakun yasadi. Yarim asrdan ko'proq davom etgan faoliyati davomida o'lmas asarlar yaratdi U adabiyot maydoniga endigina kirib kelganida hali Oskar Uayld tirik edi, Kipling shuhrat cho'qqisini egallagan, Gerbet Uellss va Bernard Shou, Jon Golsuorsi va Arnold Bennet kabi yozuvchilar juda tanilgan edi. Moem endi kitobxonlar omması tomonidan tan olina boshlaganda adabiyotga yangi bir to'lqin kirib keldi Ular jasur «tajriba qiluvchi», yangi yo'llar izlayot-gan Jeyms Joys, Virjiniya Vulf, Devid Gerbert Lourens kabi ijodkorlar edi. 30-yillarning shiddatli ijtimoiy-siyosiy liayotida ijtimoiy-sinfiy to'qnashuvlardan xoli bo'lgan Moem ijodi o'ziga xos va kamtarona ko'rinarđi. Moemni jamiyatdagi o'zgarishlar cho'chitar edi. Uning asarlaridagi yashirin mung, tushkunlik va qoniqmaslik hissining sababini tanqidchilik shundan ko'rardi. Moem ijodda asosan realistik tamoyillarga tayangan bo'lsa ham, asarlarida naturalizm va modernizm ta'siri sezilib turardi.

Somerset Moem 1874-yili Fransiyaning Parij shahrida tug'ildi. Otasi huquqshunos bo'lib, Britaniyaning Fransiyađagi elchixonasida xizmat qilar edi. Moemlar oilasida huquqshunoslik ota meros kasb edi. Bobosi Angliyađagi Huquqshunoslar jamiyatining asoschilaridan biri edi. Moemning otasi ham yuristkonsult kasbini tanladi. U ayni paytda sayr-u sayohatni, dunyo kezishni yaxshi ko'rardi. Sayohatlari natijasida ajoyib kutubxona yaratgan edi. Biroq u hayotdan erta ko'z yumdi. Moem otasidan ajralganda 10 yoshda edi, ikki yil burun esa onasi vafot etgandi. Uni ruhoniý amakisi o'z tarbiyasiga oladi va shu tariqa yosh Moem Angliyaga qaytadi. Kenterberida uch yil boshlang'ich maktabda ta'lim oladi, keyin esa o'pka kasalligi tufayli Fransiyaning janubiga yuboriladi.

Moem 18 yoshida Angliyaga qaytadi. Bundan buyongi ta'lim va kasb tanlash masalasini hal qilishi lozim edi. Amakisi yosh Moemning ruhoniý bo'lishini istardi. Lekin Moem bunga qat'iy qarshilik bildiradi, Moem ayni paytda Kembrij universitetiga kirish taklifini ham rad etadi va shifokorlik kasbini tanlaydi. Tibbiy ma'lumotni Londonda, avliyo Tomas kasalxonasida oladi. Moem haqiqiy hayotni ko'rishni istardi, shu sababli Londonning qashshoq aholi yashovchi Lambert mavzesida ishlashga qaror qiladi. Uch yillik tajribasi uning faqat shifokor sifatida emas, yozuvchi sifatida shakllanishida ham katta rol o'ynadi. Keyinchalik "Yakun yasab" asarida bu davrning inson qalbini, ruhiyatini o'rganishda katta maktab bo'lganligini ta'kidlagan edi. Moemni insonning pardalanmagan asl qiyofasi qiziqtiradi, shu sababli ham uning asarlarida ko'ngli buyurgancha yashashni ixtiyor etgan qahramonlar ko'p kuzatiladi.

Moemning birinchi romani "Lambertlik Liza" 1897-yilda natura-lizm an'analarida yozilgan. Bu roman oddiy ayol taqdiri haqida bo'lib, u atrofıđagi johil kishilar tufayli sevis h huquqidan marhum qilinadi.

1907-yilda yozilgan «Ledi Frederik» pyesasi Moemga katta shuhrat keltiradi. Aslida bu asar sof tijorat maqsadida yozilgan, ko'ngilochari komediya edi.

1915-yilda Moemning eng yaxshi romanlaridan biri bo'lgan «Inson ehtirolari yuki» nashr etiladi. Bu asar realizm yo'lida yozilgan bo'lib, ma'lum ma'noda avtobiografik xarakterga ham ega.

Birinchi jahon urushi boshlangach, Moem avtosanitar qismiga chaqiriladi va Fransiya xizmat qiladi. Keyin bir yil davomida ; Shveysariya razvedka bo'limida ishlaydi. Hatto 1917-yilda Britaniya razvedkasi tomonidan mahfiy vazifa bilan Sankt-Peterburgga boradi. Bu yerda zimmasiga yuklangan vazifani amalga oshirmagan bo'lsa-da, sevimli yozuvchilari Tolstoy, Dosloyevskiy, Chexovlarni bergan yurtda bo'lib kelganidan afcuslanmaydi.

Urush oxirida Shotlandiyadagi sil kasalliklari shifoxonasida davolanadi. U kasalxonadan chiqqanda, urush tugagan edi.

Moem marhum otasidan sayohatga ishqibozlikni meros qilib olgan edi. U dunyoning ko'pgina joylarini kezib chiqadi. O'zi bilgan, ko'rgan ioylarni asarlarida tasvirlaydi. Uning qahramonlarini goh Yevropa va Amerika mamlakatlarida, goh Tinch okeani orollarida, goh uncha katta bo'lmagan port shaharlarida uchratish mumkin. Yozuvchi dunyoni kezar ekan, uning diqqat markazida inson turadi.

Moemning yozuvchi siyatida shakllanishi oson kechmagan. U o'zini havaskor yozuvchi deb hisoblardi. Biroq shunga qaramasdan tirikligidayoq shuhrat cho'qqisini egallay olgan ijodkor edi. Uning kitoblari nihoyatda tezlik bilan sotilib ketar, nashriyotlarga katta foyda keltirar edi. Bunga u iste'dod va mehnati bilan erishgan. Fransuz yozuvchilari Zolya, Stendal, Balzak, A. Frans, ayniqsa, Mopassandan ta'sirlangan. Falsafa, tibbiyotdan yaxshi xabardor bo'lgan. Inglizlardan J. Swift nasrini sevgan. Tanqidchilik Moem asarlarida lirizm yetishmasligini ko'rsatib o'tadi. Buni yozuvchining o'zi ham tan olgan, biroq bu narsani kamchilik deb hisoblamagan. «Nosir sifatida, - deb yozadi u, - men neolit davrida g'ordagi gulxan yonida ertak aytib beiuvchilarning asrlar osha bugungacha yetib kelganlari sirasiga kiraman. Men gapirib beradigan narsam bo'lsa, juda qiziq hikoya qilib bera olaman. Boshqa hech qanday maqsadni o'z oldinga qo'ymayman».

Moemning 1919-yilda yozilgan mashhur romani «Oy va sariq chaqa» da ham shu usulni ko'ramiz. Asar qahramoni Charlz Striklend juda g'aroyib tabiatli shaxs. U san'at yo'lida hayotning barcha ne'matlaridan voz kechadi. Oilasi, yaxshigina daiomad keltiruvchi ishini tashlab Taitiga ketadi va butunlay o'zini san'atga bag'ishlaydi. Striklend tanlagan san'at yo'li oson emas edi, qanchadan-qancha moddiy va ma'naviy zarbalarga dosh berish, nafs tuyg'usini yengish lozim bo'lardi. Chunki yashash uchun pul kerak edi. U chizgan suratlarni tirikligida hech kim tushunmaydi, sotib ham olmaydi. U ham jismonan, ham rahan juda baquvvat odam. Striklendni o'zgalarning u haqda nima o'ylashlari, san'ati keltiradigan foyda, shon-shuhrat, hayotning moddiy tomoni umuman qiziqitirmaydi. U o'z iste'dodini himoya qila biladi. Uning uchun muhimi ijod qilish, ko'nglidagini mo'yqalam orqali ifodalash. U kimdir va nima uchundir emas, taqdirida san'atkor bo'lish yozilgani uchun ijod qiladi. Biroq ayni paytda bu san'at fidoyisi atrofidagilami unutib qo'yadi. U san'at ham odamlarsiz mayjud bo'lolmasligi haqida o'ylamaydi. Striklend taqdiri fojiali tugaydi. U Taitida og'ir kasallikdan vafot etadi. Striklend faqat orzular bilan yashar edi, ma'lum ma'noda o'zi istagan ijod erkinligiga erishadi ham, ammo u erishgan erkinlik o'tkinchi. U faqat ruhiy ozodlikka erishgan, buni u ilhom holatida sezgan. Biroq voqelikning fojeiy yakunidan xalos bo'la olmaydi.

Moem «Missis Kredok» (1900), «Sernaqsh qoplama», «Pirog va pivo» (1930), «Burchak» (1932), «Teatr» (1937), «Rojdestvo ta'tillari» (1939) kabi romanlar muallifi. Bu asarlar asosida otkir dramatik ziddiyatlar yotadi

Moem iste'dodi hikoya janrida yorqin namoyon bo'ladi. Uning hikoyalari, odatda, juda qiziqarli sujetga ega bo'lib, kitobxon diqqati bir zufnga ham chalg'amaydi, yechim esa mutlaqo kutilmagan bo'lib chiqadi. U o'tkir sujetni psixologizm bilan uyg'unlashtira biladi Moem realist sifatida hikoyalarida barcha narsaning hayotga mos bo'lishiga intilishini ta'kidlaydi. O'zi aytganidek, fantastikadan, uydirmadan qochadi. Biroq shunga qaramasdan uning hikoyalarida inson kutilmagan tomondan kashf qilinadi, uning kutilmagan jihatlari ochiladi. Moemning ko'plab hikoyalar to'plamlari nashr qilingan. Ular orasida «Barg titrog'i» (1921), «Kauzarina» (1926),

«Birinci shaxs tilidan» (1931), «Taqdir o'yinchoqlari» (1947) ayniqsa shuhrat qozongan. Hayotiy voqealar kutilmagan, inson xatti-harakatijumboq bo'lishi mumkin. «Insonga xos nimadir» hikoyasining qahramoni badavlat va go'zal Betti hayoti shu fikrning isboti U san'atni, adabiyoini sevadi. Nihoyatda oqila ayol. Tabiat uni yuksak did bilan taqdirlagau.

Lekin bu ayol hayotining o'zgalardan yashirin qorong'i tomonlari ham bor. U boylik uchun sevmagan kishisiga turmushga chiqadi, keyinchalik bu odam bilan ajralishadi, uning baxtsiz hayoti fojiali yakunlanishiga sabab bo'ladi. Xizmatkor haydovchisi bilan ishqiy munosabatga kirishadi. Ayni paytda buni pardalay biladi. Shunisi qiziqki, uni bir urar sevgan, bilim va daraja jihatidan unga munosib Kerazersning sevgisini bila turib uning turmushga chiqish taklifini rad etadi. Betti hayotining tuban tomonidan uyalmaydi, o'zini baxtli deb biladi, chunkiu istaganicha hayot kechiradi. «Jeyn» hikoyasidagi vaziyat ham kutilmagan. Nihoyatda kamsuqum va yosh bo'lmagan missis Fauler to'satdan o'zidan 26 yosh kichik yigitga turmushga chiqadi. Unga uylanayotgan yigitning hech qanday g'arazli niyati yo'q. U chindan ham Jeynni sevadi Yana ham qizig'i, ma'lum muddat o'tgach, kiborlar jamiyatida hammaning e'tiboriga sazovor bo'lgan Jeyn eri Gilbert bilan ajrashib, yana boshqa yaxshi bir odamga turmushga chiqadi. Bir qarashda g'aroyib tuyulgan bu hodisa g'oyatda tabiiy hikoya qilinadi. Yosh ham, aytarli go'zal ham bo'lmagan Jeynning eng muhim fazilati uning soddaligi va qalban beg'uborligi. U boshqacha ko'rinishga intilmaydi ham, shunisi bilan o'zgalarni maftun qiladi. Inson yuksakliklarga ko'tarilishi va nihoyatda tuban ketishi ham mumkin. Chunki qanchalar ruhan yuksak parvoz qilmasin, baribir, u yer odami va unga zamin tashvishlari begona emas. Biroq yozuvchi ko'proq ruhiy yuksaklikka erisha bilgan, tan ehtiyojlarini yenga olgan qahramonlarga qoyil qoladi. Uning «Sanatoriy», «Bo'ysunmas» hikoyalari shu jihati bilan diqqatga sazovor. «Sanatoriy» hikoyasining kasallik tufayli o'limga mahkum qahramoni sevib qoladi. Uning muhabbati o'lim oldidagi qo'rquvni yengishida yordam beradi.

«Bo'ysunmas» hikoyasining qahramoni Annet o'zi tushib qolgan vaziyatga bo'ysunishni istamaydi. Voqealar urush paytida bo'lib o'tadi. Nemis soldati tomonidan nomusitoptalgan Annet og'ir vaziyatga tushib qoladi. Lekin nemis Gans kutilmaganda Annetni chindan ham sevib qoladi. Unga uylanmoqchi, tug'ilajak farzandga otalik qilmoqchi bo'ladi. Bundan qiz foydalanishi mumkin edi, chunki uning holatida bu eng qulay yo'l. Ota-onasi ham qizini insofga chaqiradilar, chunki Gans ularni sovg'alar bilan ta'minlar, buning ustiga qizlarini sharmandalikdan qutqarmoqchi edi. Biroq Annet uchun bundan ham yuksakroq narsalar bor. U vatanini toptagan bosqinchiga bo'ysunishni istamaydi. Ayni paytda kurashda yolg'iz edi. Annet yengilmaslikka qaror qiladi, jinoyatga qo'l uradi - farzand tug'ilgach, uni cho'ktirib o'ldiradi. Dahshatli jinoyat. Biroq Annet o'z qalbiga qarshi bormadi, bu uning ma'naviy g'alabasi edi. Somerset Moem 1965-yilda vafot etadi.

Buyuk Amerika yozuvchisi Ernest Xeminguey hayoti tiikligidayoq afconaga aylangan edi. Sayohat-u sarguzashtlarga, zafar va mag'lu-biyatlarga, sevgi va ayriliqlarga boy umii davomida bu ajoyib shaxs o'lmas ijod namunalarini yaratdi. Adabiyot, badiiy ijod uning hayoti mazmunini tashkil qilar edi.

Xeminguey 1899-yil 21-iyulda Chikagoning Ouk-Park shahrida tug'ilgan. Onasi Greys Xoll opera qo'shiqchisi edi Shifokor-terapevt va sportchi bo'lgan Klarens Edmonsni uchratgach, Greys operani tashlab unga turmushga chiqadl Ernest oiladagi olti bolaning to'ng'ichi bo'lgan.

Bo'lajak yozuvchi ijodini juda erta boshladi. Ouk-Park maktabida o'qib yurgan paytlaridayoq maktab gazetalarida uning hikoya va she'rlari bosilib turar edi.

Maktabni tamomlagach, 1917-yilda Xeminguey armiya xizmatiga kirmoqchi, birinchi jahon urushida qatnashmoqchi bo'ladi. Biroq ko'zi jarohatlanganligi sababli armiyaga chaqirilmaydi. Shu sababli 1917- 1918-yillarda Kanzass gazetasi «Star» da muxbir bo'lib ishlaydi. 6 oy o'tgach ko'ngilli sifatida Yevropa armiyasiga qabul qilinadi, Italiya-Avstriya frontida qizil Xoch Amerika Otryadining haydovchisi bo'lib xizmat qiladi. 1918-yilda oyog'idan yaralanadi, shu holda yarador italiyalik soldatni jang maydonidan olib chiqadi. Jangda ko'rsatgan mardliklari uchun ikki marotaba Italiya ordenlari bilan taqdirlanadi. Gospitalda davolanayotganda amerikalik shafqat hamshirasini sevib qoladi (bu sevgi tarixi oradan o'n yil o'tgach «Alvido, qurol!» asarining dunyoga kelishiga sabab bo'ladi). Ouk-Parkka qaytgach, Xeminguey uchun Chikagodagi bir maromdagi sokin hayot zerikarli tuyuladi va Chikago jurnali redaksiyasiga ishga kiradi. Bu yerda u mashhur yozuvchi,

ko'plab amerikalik buyuk ijodkorlarning yo'lboshchisi Shervud Anderson bilan tanishadi. Anderson unga Parijga borishni maslahat beradi. Parij san'at, adabiyot va ma'naviyatning markazi hisoblanar edi Chinakam ijodkor bo'lish uchun Fransiya ilhom manbai edi Xeminguey Anderson maslahatiga amal qilib 1921-yili Yevropaga yo'l oladi Shu yili u Xedli Richardsonga uylangan edi.

Fransiyada yashab yurgan kezlarida Xeminguey juda ko'p sayohat qiladi Parijda yashovchi amerikalik yozuvchilar Gertruda Stayn, Ezroy Paund, Skott Fisjerald bilan tanish edi Xeminguey ilhom bilan ijodga sho'ng'iydi Uning shiori «Muhimi bir satr bo'lsa ham haqiqatni yozish, qolgani esa o'z-o'zidan bo'laveradi» edi. Xemingueyning ilk kitobi 1923-yilda «Uch hikoya va o'n she'r» nomi bilan chiqadi, keyinroq esa «Bizning kunlarimizda» hikoyalar to'plami bosiladi. Mazkur to'plam Xemingueyning o'ziga xos uslubi, o'z qahramonini topganidan dalolat beradi

1926- yilda Sh. Andersonning romanlaridan biriga parodiya tarzida «Bahor yomg'irlari» romani e'lon qilinadi Bu roman «Charlz Skribnes» nashriyotining mashhur muharriri Maksuel Perkinsning diqqatini jalb qiladi. 1926-yil oktabrida Xeminguey «Quyosh baribir chiqaveradi» romanini yozib tugatadi. Asar yozuvchiga katta shuhrat keltiradi, Xemingueyni yosh va umidli ijodkor deb tan oladilar.

Roman urushdan keyingi yo'qotilgan avlod ruhiyatini, kayfiyatini aks ettiradi. Uning qahramonlari birinchi jahon urushidan keyingi tushkun holat girdobidagi, urush tufayli ruhan mayib qilingan kishilardir. Roman voqealari ham qalbi, ham jismi mayib qilingan Djeyk Brans tilidan hikoya qilinishi bejiz emas. Hayotidagi ma'naviy tayanchlaridan mahrum bo'lgan bu kishilar umr mazmunini ko'ngilocharlik, baliq ovi, korrida, ichkilik va sevgida deb biladilar. Asar qahramonlari real hayotdan olingan roman bosilib chiqqach, Xeminguey do'stlari undagi ko'plab qahramonlarni, shuningdek, yozuvchining o'zini ham tanidilar. Bu ham asarning shuhratini ta'minlagan omillardan bo'ldi.

1927- yilda Xeminguey Polina Pfeyorferni sevib qoladi va birinchi xotini bilan ajrashgach, unga uylanadi.

1927-yilda uning «Ayolsiz erkaklar» nomli to'plami chiqadi. Shundan so'ng Xeminguey Amerikaga qaytadi, Floridada qo'nim lopadi va o'zining ikkinchi romani «Alvido, Qurol!» ni yakunlaydi. Bu roman yozuvchining shuhratini yanada oshirib yuboradi. Tanqid-chilik romanga yuksak baho beradi, uni adibning eng yaxshi asarlari qatoriga kiritadi. Roman mavzui urush va sevgidir. Italiya armiyasida xizmat qiluvchi amerikalik ofitserning ingliz hamshirasiga bo'lgan go'zal va fojiali muhabbati Xemingueycha betakror talqinini topadi. Muhabbat mavzusi jimjimador, romantik, shoirona libosda emas, bosiq, xolis, sirtidan befarq, biroq ichdan chuqur hissiyotga yo'g'rilgan tasvir yo'sinida ifodalanadi.

30-yillarga kelib Xeminguey ijodida bir qadar tushkunlik kayfiyati kuzatiladi. Bunga sabab qilib yozuvchini «shon-shuhrat mast qilib qo'yganligi» deb ko'rsatadilar. Bunga dalil tariqasida Xemingueyning o'zini «chinakam erkak» qilib ko'rsatishga intilishi, ispan korridasiga, yirtqich hayvonlarning afrikacha ovga bo'lgan ehtirosi, atrofida qilarga bepisand munosabati kabilarni keltiradilar. Bu davrda yaratgan asarlari: «Tushdan keyingi o'lim», ispan korridalarini aks ettiruvchi «Afrikaning yashil do'ngliklari», Afrikaga bo'lgan sayohat kundaliklari, voqealar Floridada kechuvchi «Bor yoki yo'q» qissasi kabilardir.

30-yillar yozuvchining ijodidan faqat ikki hikoyasi «Frensis Makaombeming qisqa baxti» va «Kilimanjaro qorlari» tanqidchilikning ijobiy bahosini olishga muvaffaq bo'ldi.

Ispaniyadagi fuqarolar urushi Xeminguey hayoti va ijodida tub burilish yasad. U o'zini chin ijodkor sifatida namoyon qildi. Buyuk iste'dod egalari jamiyat dardlariga nisbatan o'ta ta'sirchanliklari bilan ajralib turadilar. Xemingueyning ispan urushiga faol munosabati ham shuning dalilidir. Respublikachilar uchun pul yig'ib yozuvchi Shimoliy Amerika gazeta assotsiatsiyasi harbiy muxbiri hamda «Ispaniya yeri» hujjatli filmtinmg ssenariy muallili sifatida Ispaniyaga yo'l oladi.

Ispaniyaga ikkinchi sayohatidan so'ng Xeminguey «Beshinchi kolonna» nomli pyesasini yozadi, unda 1937-yil kuzida Madridning qamal qilinishi tasvirlangan.

Xemingueyning bu davr ijodidan eng yorqin asar «Qo'ng'iroq kimni chorlaydi» romanidir.

Asarga ingliz shoiri Jon Donning quyidagi so'zlari epigraf qilib olingan: "Hech qachon qo'ng'iroq kimni chorlayapti deb so'rama, u seni chorlayotir". Roman Ispaniyadagi fuqarolar urushi voqealariga bag'ishlangan. Bosh qahramon Robert Jordan respublikachilar tomonida jang qiluvchi amerikalik ko'ngillidir. Har daqiqa, soniyada sovuq o'lim sharpasi sezilib turgan shafqatsiz urush sharoitida Robert Jordan qalbida ispan qizi Mariyaga nisbatan muhabbat uyg'onadi. Bu sevgining, baxtning omonatligi asarga fojia viy ruh baxsh etsa, Mariyaning ayanchli o'tmishi fojiiylikni yanada kuchaytiradi. Biroq inson baribir insonligicha qolishi, eng chorasiz, umidsiz qolgan daqiqalarda ham baxtga intilib yashashi o'quvchi qalbiga yorug'lik baxsh etadi. «Qo'ng'iroq kimni chorlaydi» yozuvchiga katta shon-shuhrat keltirdi.

1940-yilda Xeminguey Marta Gellxorninga uylanadi, Gavana yaqinidan uy sotib oladi va xotini bilan Xitoyga safar qiladi. 1944-yili Londonga harbiy muxbir sifatida yo'l oladi (bu davrga kelib u xotini bilan ajrashgan edi). Britaniya G'arbiy havo kuchlarida xizmat qiladi va 1944-yilning 25-avgustida Amerika qo'shinlari bilan birgalikda Parijga kirib keladi. Yozuvchi ittifoqchilarning harbiy harakatlarida faol ishtirok etadi, hatto muxbirlikni unutilib yuborayozadi, jasorati uchun bronza medali bilan taqdirlanadi 1946-yilda Gavanaga qaytadi. Bu yerda u «Tayms» jurnalining muxbiri Meri Uelsh bilan tanishadi. Xeminguey unga uylanadi va umrining oxiriga qadar bu ajoyib ayol bilan turmush kechiradi.

1950-yilda «Daraxtlar soyasidagi daryo» romanini e'lon qiladi. Asar voqealari Ikkinchi jahon urushini aks ettiradi, Italiyada kechadi. Tanqidchilik bu romanni sovuq kutib oldi Yozuvchini sentimentallikda, o'ziga o'ta bino qo'yib yuborganlikda aybladilar. Hatto bu romanga felyeton, parodiyalar ham yozildi.

Biroq 1952-yilda dunyo yuzini ko'rgan «Chol va dengiz» romani yozuvchi ijodiga nisbatan yuzaga kelgan ishonchsizlikni, uning iste'dodi so'na boshladi, degan qarashlarni tumanday tarqatib yubordi. Keksa, omadsiz baliqchi haqidagi g'amgin link qissa tanqidchilik va keng kitobxon ommasidan yuksak baholandi. Butun dunyoga Xemingueyning shuhrati taraldi, 1953-yilda bu asari uchun Pulitser mukofoti bilan taqdirlandi.

1954-yilda Xeminguey «Chol va dengiz» romanida yana bir karra namoyish etilgan yozuvchilik mahorati uchun hamda zamonaviy nasrga ko'rsatgan ta'siri uchun Nobel mukofoti bilan taqdirlandi.

Mukofot topshirish marosimida Shved akademiyasining a'zosi Anders Esterling Xemingueyga «davrimizning eng ahamiyatga molik adiblaridan biri» deya baho beradi.

Xeminguey sog'lig'i yomonlashganligi tufayli Nobel mukofoti taqdimotida qatnasha olmaydi.

1960-yilda yozuvchi Rocheistidagi Mayo kasalxonasida davolandi, unga ruhiy xasta, tushkunlikka tushish kabi tashxislarni qo'yadilar. Kasalxonadan chiqqach Xeminguey ortiq ijod qila olmasligini anglab yetdi va 1961-yil 2-iyunida o'z joniga qasd etdi.

Xemingueyning o'limi dunyo san'at ahlini larzaga soldi. Amerika tanqidchisi Edmund Uilson «bu hodisa butun bir avlodimizning tamal toshlaridan biri to'satdan qulab tushishi bilan teng», deya yozadi.

Gabriel Garsia Markes - buyuk Kolumbiya yozuvchisi, mashhur romanlar, qissalar, hikoyalar muallifi, Nobel mukofotining sovrindori.

Markes 1928-yil 6-martda, Kolumbiyaning Arakataka shahrida tug'ilgan. Arakataka Atlantika okeani yonbag'irlari va Kolumbiyadan uncha uzoq bo'lmagan Magdalena daryosi sohilida joylashgan kichik shaharcha. Markesning otasi telegrafchi edi. Yozuvchi iste'dodining shakllanishida buvisi Trankilining ta'siri katta bo'ldi. Trankilina kuchli, matonatli ayol edi, oila tizgini uning qo'lida edi. Ayni paytda 1899-1903-yillar fuqarolar urushining ishtirokchisi bo'lgan bobosi kekse polkovnik Nikolos ham yosh Gabriel hayotida o'chmas iz qoldirgan. Ijodkor sifatida shakllanishidagi uchinchi omilni Markes o'zi o'sgan muhitda deb biladi. U yashagan shahar turmushi g'aroyibotlarga to'la, fantastika va voqelik ajoyib tarzda uyg'unlik kasb etgan edi. Bobosining o'limidan so'ng 8 yoshida Markes Arakatakani tark etadi, uni Sapakira shahridagi maktab-internatga o'qishga beradilar. Ilk marotaba yozishga shu yerda urinib ko'radi...

1946-yilda Bogota universitetining yuridik fakultetiga o'qishga kiradi.

Markesning birinchi hikoyasi 1947-yilda e'lon qilinadi. Lekin u yozuvchi bo'lishni xayolga ham keltirmagan, uni kasb qilib olish haqida o'ylab ham ko'rmagan edi. 1948-yilda liberal partiyaning yo'lboshchisiga suiqasd qilingach, poytaxtdagi vaziyat keskinlashadi va Markes Kartaxena shahriga ko'chib o'tib, o'qishini davom ettirishga urinib ko'radi. Biroq advokatlik karyerasi uni ortiq qiziqitmay qo'ygan edi, u bu sohaga adashib kirib qolgani, bu o'tkinchi havas ekanligini anglab yetadi va o'qishni tashlab, jurnalistlik feoliyatida o'zini sinab ko'rishga qaror qiladi.

1950-1954-yillarda Markes reportyor bo'lib ishlaydi, xronikalar bo'limini boshqaradi. 1951-yilda «To'kilgan barglar» qissasini e'lon qiladi, asarda ilk marotaba muallifning keyinchalik barcha asarlaridagi voqealar ro'y beradigan xayoliy Makondo shahri tasvirlanadi. Bu shahar yozuvchining qardosh Arakataka shahriga juda o'xshab ketardi. Makondo shahri bilan yozuvchi asarlaridagi markaziy -yolg'izlik mavzusi ham paydo bo'ladi.

1954-yilda Markes Bogota shahriga ko'chib o'tadi, gazetadagi ishini davom ettiradi, siyosiy hayotda faol qatnashadi.

1955-yilda «El Espektador» gazetasining muxbiri sifatida Yevropaga ishga yuboriladi. U Rimda ishlaydi, ayni paytda Tajriba kinematografik markazining rejissyorlik kurslarida tahsil oladi. Markes Rimdan Parijga ko'chib o'tadi. Vatanda ro'y bergan davlat to'ntarishi yozuvchining Parijda qolishiga sabab bo'ladi. Shu yerda yozuvchi o'ziga ilk shuhrat keltirgan «Polkovnikka hech kim yozmaydi» qissasini yaratadi. Kitobning birinchi nusxasi 1956-yilda yozilgan, alohida kitob holida 1961-yilda nashr etiladi.

Tanqidchilik bu qissada mashhur Amerika yozuvchisi Xeminguey-ning ta'sirini ko'radi, buni yozuvchining o'zi ham e'tirof etadi, ayni paytda qissada uning muxbirlik tajribasi ham sezilib turadi. Asar till yozuvchi maqsadiga bo'ysundira bilinganligi, aniqligi, so'zning imkoniyatlaridan mohirlik bilan foydalanilgani, unga salmoqli ma'no yuklay bilish, uni his qilish kabilar bilan ajralib turadi. Markes uslubini sayqallashtirish, yuksak badiiylilik va psixologik jihatdan haqqoniylikka erishish maqsadida bu asarni o'n bir marta qayta ko'chiradi. Asar voqeasi 1956-yilda nomsiz shaharchada ro'y beradi. Biroq asar qahramoni fuqarolar urushi ishtirokchisi polkovnikning tushlari va xotiralarida vatani Makondo gavdalanadi. Makondo shahri bilan tasvirga real va ulkan hodisalar ro'y bergan tarixiy davr kirib keladi «Polkovnikka hech kim yozmaydi» ning mavzusi insonning yolg'izligidir. Bu insonning voqelik absurdligiga, ochlik, qashshoqlik va ojizlikka, hissizlikka sabotmatonat bilan qarshi turishi, uning adolat tantanasiga bo'lgan o'lmas ishonchi to'g'risidagi qissadir. Ana shu jihatlar qissani Xemingueyning mashhur «Chol va dengiz» asari bilan yaqinlashtiradi.

Markes turli lotin amerikasi gazetalarining muxbiri sifatida Yevropaning ko'plab mamlakatlarini kezib chiqadi, ma'lum muddat Venesuelada yashaydi, 1961-yildan Meksikada qo'nim topadi va «Xosiyatsiz vaqt» romanini tugatadi. Asar birinchi marta muharrirlar tomonidan buzilgan holda Ispaniyada nashr qilinadi, 1966-yilda Meksikada to'liq va asl holida bosiladi. Asar mavzui zo'ravonlik va uning shaxsni yemiruvchi mohiyatidir. Bu asarda yana Makondo shahri namoyon bo'ladi, Aureliano Buendia, Rebeka nomlari paydo bo'ladi. (Ular keyinchalik yozuvchining «Tanxolikning yuz yfli» romanida ham ishtirok etadi).

Bolalik xotiralari, zo'ravonlik va yolg'izlikning taqdir ekanligi to'g'risidagi fikr yozuvchiga tinchlik bermaydi. Keyinchalik ushbu tuyg'u «Katta onaning ma'rakasi» hikoyalarto'plamida o'zining badiiy ifodasini topadi. To'plam dunyo yuzini ko'rgach, Markes ma'lum muddat adabiyot ishidan uzoqlashadi, kuchini kinematografiya sohasida sinab ko'rmoqchi bo'ladi.

Biroq kino san'atida Markes o'zi istagan narsani topa olmadi: «Kinoda ishlab, men, albatta, tasviriylik boshqa hikoyalash element-laridan ko'ra ancha afzalliklarga ega ekanligiga ishonch hosil qildim, biroq, shuningdek, ma'lum jihatdan chegaralangan ekanligiga ham amin bo'ldim va bu men uchun kutilmagan kashfiyot bo'ldi; faqat shundagina roman qanchalar cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini anglab yetdim», deb yozadi.

1965-yilda Markes yana o'zida yozishga kuchli ehtiyoj va ishtiyok sezadigamda ixtiyoriy ravishda 18 oyga uzlatga chekinadi - shu tariqa 20 yil davomida yozuvchi qalbida ardoqlab kelgan asari «Tanxolikning yuz yili» vujudga keladi. Roman 1967-yil Buenos-Ayresda bosilib chiqadi va yozuvchiga olamshumul shuhrat keltiradi. Asar tiraji uch yarim yil ichida yarim milliondan ko'proq

nusxani tashkil qiladi, bu Lotin Amerikasi uchun misli ko'rilmagan hodisa edi. Roman haqida gap ketganda «magik realizm» iborasi qo'llanila boshladi, bu tushuncha aynan Markes uslubiga xos bo'lgan xususiyat bilan bog'liq ravishda paydo bo'ldi. Magik realizm lotin amerikasi yozuvchilari ijodiga xos bo'lib, cheksiz erkinligi, yer hayotini xayoiot, ongning tub-tubida yotgan hissiyotlar bilan uyg'un ravishda tasvirlash bilan xarakterlanadi. Asar dunyo romanchiligi va realizm tarixidagi yangi bosqich sifatida yuksak baholandi.

«Tanholikning yiiz yili» ko'p planli asardir. Unda Buendialar sulolasining olti avlodi tasvirlanadi. Voqealar yozuvchining ardoqli Makondo shahrida kechadi. Adib ushbu shahar va undagi insonlar tarixi orqali Lotin Amerikasi tarixi va unga o'z muhrini bosgan tamaddunning ta'sirini aks ettiradi. Ayni paytda roman jahon adabiyotining antik eposdan maishiy romangacha bosib o'tgan yo'li hamdir. Yozuvchi Buendialar oilasi misolida insoniyat ongi taraqqiyotini tadqiq etadl Boshdagi buyuk Renessans davrining tinib-tinchimas, fclanuvchan va tadbirkor kishisi Aurleanio Buendia timsolida XX asrga yetib keladi. U barcha sohalarni qamrab olgan begonalik, yolg'izlik qurboniga aylanadi. Shu romani bilan yozuvchi Makondo va uning aholisi mavzuiga so'nggi nuqta qo'yadi. Keyin yaratilgan asarlarida ushbu qahramonlarga va mavzuga qaytmaydi.

1972-yilda «Soddadil Erendira va uning shafqatsiz buvisi haqida mislsiz g'amgin qissa» hikoyalar to'plami bosiladi. Shundan e'tiboran Markes uchun hukmronlik va zo'ravonlik yetakchi mavzuga aylanadi. «Buzrukning kuzi» romanida ushbu mavzu chuqur tahlil qilinadi, zo'ravonlik va shafqatsizlikning g'ayriinsoniy mohiyati ochib beriladi. Asar markazida zo'ravonlikni hayotning asosiy qonuni deb bilgan kuchli shaxs obrazi turadi.

1981-yilda «Oshkora qotillik qissasi» asari e'lon qilinadi, oradan bir yil o'tgach esa Markes Nobel mukofoti bilan taqdirlanadi.

14-MAVZU:XIX ASR RUS ADABIYOTI.

Reja.

1. Rus adabiyotida romantizm.
2. Pushkin hayyoti va ijodi.
3. Lemantov hayyoti va ijodi.
4. Rus adabiyotining jahon adabiyotida tutgan o'rni.

Adabiyotlar.

1. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kkuch. T., Ma'naviyat, 2008.
2. Alimuhamedov N. “Antik adabiyot tarixi”. T.: “O'qituvchi”. 1975 yil.
3. Sulaymonova F. “Sharq va G'arb”. T.: “O'zbekiston”. 1997 yil.
4. Kun N.A. “Qadimgi Yunoniston afsona va rivoyatlari”. Toshkent. 1983 yil.
5. Mahmudov M. “Hayrat va tafakkur”. Toshkent. G'.G'ulom. 1990 yil.
6. Sh. Normatova. Jahon adabiyoti. T., Cho'lpon, 2008.

Aleksandr Sergeyevich Pushkin 1799-yil 26-mayda Moskva shahrida tug'ilgan. Pushkinning ota-bobolari Rossiya tarixida ancha katta o'rin tutgan obro'li shaxslar bo'lgan. Ota tomondan bobosi Gavril Grigoryevich Pushkin o'z davrining yirik amaldorlaridan bo'lgan, keyinchalik Pushkin «Boris Godunov» tarixiy tragediyasida bu shaxsga keng o'rin beradl Onasi tomonidan habash Ganniballar avlodiga borib taqalغان shoir Rossiya tarixidagi buyuk hukmdor Petrning asrandi o'g'li bo'lgan ushbu bobosining nomini faxr bilan esga oladi. Pushkin bu bobosi haqida «Buyuk Petrning arabi» asarini yoza boshlagan, lekin uni tugata olmagan. Buyuk Petr arabining kichik o'g'li Osip Abramovich Gannibal Pushkinning onasi Nadejda Osipovnaning otasi edi. Shoirning otasi Sergey Lvovich awal gvardiyachi Izmaylov polkida xizmat qilgan, keyinchalik harbiy xizmatdan bo'shab Moskvaga ko'chib kelgan bo'lib, zamonasining badavlat va boobro' kishilaridan edi.

Pushkin bolaligidan alohida e'tibor va nazorat ostida turli guverner, guvernant ayollar qurshovida o'sdi. Ulardan rus, fransuz, ingliz tillaridan ilk saboqlar oldi. Sergey Lvovich ilg'or fikrli, madaniyatli, adabiyotga va ilm-fanga mehr qo'ygan ma'rifatli kishi edi. Shu sababli uning xonadoniga zamonasining taniqli shpir va yozuvchilari tashrif buyurib turardilar. Tabiatida ijodkorlik qobiliyati bo'lgan bola hayotida, albatta, bu tashriflar izsiz ketmadi.

Pushkin to'qqiz-o'n yoshlaridan she'r yoza boshladi, hatto kichik komediyalar, masallar ham to'qigani haqida ma'lumotlar bor, biroq ular saqlanib qolmagan.

O'n ikki yoshida Pushkinni Sarskoye seloda tashkil qilingan litseyga o'qishga beradilar. Litsey Pushkin hayotida yangi bir sahifa ochadi, uning shoirlik iste'dodining ochilishi ana shu davrga to'g'ri keadi, bu yeida qator do'stlar oittiradi. Pushkin tabiatan ta'sirchan va hissiyotga beriluvchan odam edi, bir muhabbat qo'ygan odamini oxirigacha sevar, undan hech narsasini ayamas edi. Shu sababli litseydagi do'stlari bilan umrining so'ngigacha aloqasini uzmad. Sevimli litseyiga bag'ishlab bir necha ajoyib she'rlar yozdi, «Yevgeniy Onegin» she'riy romanida bu davr xotiralari ko'plab keltirilgan.

Prahkinning litseydagi olti yillik ta'limi uning bilimlarini boyitishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bo'lg'usi daho shoir o'ta namunali o'quvchi emas edi, zero alohida iste'dodga ega shaxslar qat'iy qoliplar, tartibga bo'ysunishni yoqtirmaydilar. Shu sababli u muntazam darslarga tayyorlanishni yoqtirmas edi. Biroq Pushkin darsdan tashqari o'zi istagan tarix va adabiyotga oid asarlarni ishtiyoq bilan o'qir edi.

Litsey hayoti davomida uning ilk she'ri matbuot yuzini ko'rди. Bu «Shoir do'stinga» deb nomlanuvchi she'r 1814-yili Moskvadagi «Вестник Европы» jurnalida bosilib chiqadi. Litsey o'quvchilari orasida uning epigrammalari ham mashhur edi. Aynan shu litseyda yosh Pushkin iste'dodi chinakamiga tan olindi. Bu voqea shoir Derjavinning Sarskoye selo litseyiga tashrifi bilan bog'liqdir. Shoir o'zining «Sarskoye selo xotiralari» she'rini o'qiydi, Derjavin juda hayajonlanib ketadi va uni bag'riga bosmoqchi bo'ladi. Lekin hayajonga va xijolatga to'lgan Pushkin qochib berkinib oladi.

Pushkin 1817-yili litseyni tamomlab, Tashqi ishlar Kollegiyasiga ishga kiradi.

Xushchaqchaq, jo'shqin tabiatli Pushkinni Peterburg kibarlar doirasi yaxshi qabul qiladi, bu orada yosh ijodkorlar tashkil qilgan «Arzamas» jamiyatiga kiradi. 1818-yil birinchi yirik dostoni «Ruslan va Lyudmila» ni yozadi. Bu asar xalq og'zaki ijodi namunalari asosida yaratilgan. Bahodir Ruslan sehrigar Chernomor tomonidan o'g'irlab ketilgan qallig'i Lyudmilani axtarib topadi. Shoirning sodda va ravon uslubda yozilgan bu asari omma tomonidan zavq bilan qabul qilinadi. Doston rus adabiyotidagi yangilanish jarayoni boshlanganidan darak berar edi. Unda klassitsizm she'riyati kishanlariga, an'anaviy uslubga nisbatan isyon mayjud edi. Asar muallif bilan o'quvchi o'rtasida yangicha munosabat o'rnatilayotganidan dalolat beradi: klassitsizmdan farqli o'laroq ular hamfikrga aylanadilar, me'daga tegadigan quraq pand-nasihat o'rnini do'stona ohang, teng munosabat egallaydi.

Doston yaratilganidan keyin oradan ko'p o'tmasdan Pushkin Bessarabiya gajonatiladi va 1820-1824-yillari Rossiyaning janubida yashaydi. Tadqiqotchilar buni hurfikir Pushkinning asarlaridagi siyosiy ohanglarning hukumat boshliqlariga yoqmaganligi bilan izohlaydilar. Aleksandr I Pushkinni «zararsizlantirish» maqsadida janubga, Yekaterinoslavga «surgun» qiladi. Bu yerda betob bo'lib qolgan Pushkin general Rayevskiy oilasi bilan tanishib, u bilan birgalikda Kavkazga, bu yerdan esa Qrimga ketadi, qrim xonlarining poytaxti bo'lgan Boqchasaroyda bo'ladi, undan Kishiflyovga o'tadi, keyin Kiyevda yashaydi, u yerdan yana Kishinyovga qaytgach bir necha yil oldin boshlagan «Kavkaz asiri» dostonini yozib tugatadi. Doston ras adabiyotidagi ushbu janrda yaratilgan birinchi romantik yo'nalishga mansub asar edi. Unda ingliz shoiri Bayronning ta'siri seziladi. Shoir o'z oldiga «XIX asr yoshlari uchun xos bo'lgan hayot va uning lazzatlariga nisbatan befarqlik, inson qalbining bevaqt qarishi»ni ko'rsatishni maqsad qilib qo'yadi. Doston Pushkinga katta shuhrat keltiradi, ayni paytda bu asar badiiy jihatdan ham yangi xususiyatlarini namoyon qiladi, rus adabiyotiga inson ruhiyatini murakkabliklari va ziddiyatlari bilan ko'rsatish tamoyilini olib kiradi.

1822-yilda «Boqchasaroy fontani» nomli uchinchi doston e'lon qilinadi. Xarakterlarning o'ta favquloddaligi, qahramonlar xatti-harakatlaridagi sirlik, sujetning kutilmaganligi dostonidagi

romantik ruhni kuchaytiradi. Kavkaz, Qrim taassurotlari ostida yozilgan bu asar kitobxon tomonidan katta quvonch bilan qarshi qilinadi. Shundan so'ng Pushkin ma'lum muddat Odessada xizmat qiladi va 1823-yili «Lo'lilar» asari ustida ish boshlaydi. Besarabiyada bo'lganida yaqindan tanishgan lo'lilar hayotidan olib yozilgan bu asarini 1824-yili Mixaylovskoye qishlog'ida tugatadi. Doston qahramoni Aleko kiborlar jamiyatidan, shaharning bo'g'iq muhitidan bezgan, uni lo'lilarning erkin hayot tarzi maftun qiladi. Biroq ana shu jamiyat tarbiyalagan xususiyatlardan o'zi ham qutulolmaydi, aql va idrokka bo'ysun-maydigan, faqat qalbiga quloq tutadigan lo'li qiz Zaremaga ehtirosli muhabbatining fojiali yakun topishi sababi ham shunda.

Pushkin 1824-yili ota-onasining mulki - Mixaylovskoye qishlog'iga surgun qilindi. Bunga uning Odessa general-gubernatori bilan kelishmovchiligi sabab bo'ladi. Mixaylovskoyeda uning «Qur'ondan iqtibos», «Andrey Shene», «Vaxxik qo'shig'i», «18-oktabr», «Faustdan sahna», «Stenka Razin haqida qo'shiq» asarlari vujudga keladi. Shu yerda «Lo'lilar» asarini tamomlaydi. «Yevgeniy Onegin» she'riy romani, «Boris Godunov» tragediyalari ustida ish olib boradi.

Pushkinning «Boris Godunov» tragediyasi uning ijodi yangi yo'nalishga kirganidan dalolat beradi, asarlarida realistik uslubga moyillik ko'zga tashlana boshlaydi. Shekspir ta'sirida yozilgan ushbu asarda Pushkin klassik tragediyaga yangicha ruh olib kiradi, klassitsizmning «uch birlik» qonunidan dadil voz kechadi, she'riy va nasriy sahnalarni uyg'unlashtira biladi, jonli xalq tili leksikasidan erkin foydalanadi. Ayni paytda tanx haqiqatiga sodiqlikka, qah»amonlar xarakterini butun murakkabliklari, ziddiyatlari bilan namoyon qilishga intiladi.

Pushkin davrning ijtimoiy masalalaridan ham chetda turmadi, 1826-yilgi Rossiyadagi dekabristlar qo'zg'olonida shaxsan ishtirok etmagan bo'lsa-da, dekabrist do'stlari harakatiga beqir qaramadi. Pushkin chin hassos ijodkor sifatida erkinlik, haqiqat, umuman, ezgulik tarafdori edi, u har qanday ko'rinishdagi zulmga qarshi edi. Shu sababli shoh g'azabiga duchor bo'lgan do'stlariga chin dildan hamdard bo'ladi. Shu tariqa uning «Sibirga», «Arion» kabi she'rlari vujudga keladi.

Pushkinning bu davida yaratilgan «Sezgi», «Uch kalit» kabi she'rlari inson hayotining ma'nosi, taqdirini yaratish uchun kurash va ayni paytda taqdiri azal oldidagi ojizlik tuyg'ularini ifodalaydi.

20-yillarning ikkinchi yarmida Pushkin «Yevgeniy Onegin» ustidagi ishini davom ettiradi. Romanning birinchi to'liq nashri 1833-yilda bosilib chiqadi.

Ushbu roman turi keyinchalik davom ettirilmadi. Biroq Pushkinning bu asari uning ijodida realistik yo'nalishlarning barqarorlashganidan dalolat beradi. Shoir tasvirda voqelikni aks ettirishning yangi, murakkab usullariga murojaat qiladi Shoir bayonchi emas «ko'rsatuvchi» holatini egallaydi -rus hayoti manzaralari suratdagidek ko'z o'ngingizda jonlanadi Ayni paytda unda davrning o'tkir ijtimoiy-axloqiy muammolari aks etadi.

Roman markazida Yevgeniy Onegin obrazi turadi. Onegin ziddiyatli, murakkab shaxs. U yuksak didli, zukko inson, atrofida ro'y berayotgan hodisalarni teran idrok etadi. Kiborlar muhitidagi munofiqlik, aldov, riyoni chuqur his qiladi, o'zini bu muhitga yot sezadi, undagi loqaydlik, zerikishning sababi shunda. Ayni paytda u o'z muhitining farzandi, uning hayot tarzi, odatlaridan voz kecha olmaydi. Pushkin Oneginning aniq maqsaddan, orzu-istaklardan xoli, loqayd umrguzaronligini tasvirlaydi, bu hayot bir maromda, karaxt bir tarzda kechaveradi.

Tatyana Larina romandagi yagona nurli obrazdir. Ko'ngli musaffo, ma'suma, tashqi tomondan ko'rimsiz va zaifgina bo'lgan bu qizda juda kuchli hissiyotga qodir ulkan qalb yashiringan. U Onegin timsolida hassos qalb, dardli insonni ko'ra biladi, shu sababli uni sevib qoladi. Tatyana Oneginga she'riy maktubi asarning eng kuchli o'rinlari-dandir. Biroq Onegin Tatyana muhabbatini rad etadi, zero muhitning yengil-yelpi sarguzashtlariga o'rgangan, hatto sevgi ham ko'ngil ermagiga aylangan qalb kuchli ehtiros bilan yo'g'rilgan bunday muhabbatga tayyor emas edi. Onegin muhabbatdan ham zerikib ulgurgan, uning o'tkinchiligiga imon keltirgan edi. Shu qarash yetovida bemaqsad, shunchaki diXushlik uchun Tatyana singlisi Olgaga xushomad qiladi, o'zi qadrlamagan narsani o'zgal qadrlashi mumkinligini o'ylamaydi. Pirovardida Olgani chin dildan sevuvchi do'sti Lenskiy bilan qattiq nizolashishgacha borib yetadi, oqibatda esa duelda uning umri bevaqt xazon bo'lishiga sabab bo'ladi.

Oneginning loqaydligi aslida aldovga, riyoga asoslangan muhitga isyon bo'lib, bu yo'l bilan bemaqsadlik, bemaslaklikdan xalos bo'la olmaslikni u tushunib yetmadi. Oneginning fojiasi ham shunda.

Roman so'nggida qahramonning mudroq hayotida o'zgarish ro'y beradi, o'zi bir vaqtlar rad etgan Tatyani kibrli muhiti davrasida, badavlat qari gene raining xotini, aslzoda xonim qiyofasida ko'radi va birdaniga uni sevishini anglab yetadi. Oneginning qalbi tubida cho'kib votgan asl insoniy hissiyotlar uyg'onadi, muhabbat ham alamli, ham shirin tuyg'ularini qo'zg'aydi. Tatyana tabiatiga sodiq qoladi, Oneginni hali ham sevadi, biroq u birovlarining iztirobi evaziga muhabbatga erishish adolatdan emas deb biladi, eriga sodiq qolishga qaror qiladi.

Yozuvchi Oneginni sevgi, hijron iztiroblari bilan to'lgan holda qoldirib, romanini yakunlaydi.

«Yevgeniy Onegin» she'riy romani Pushkin ijodidagi realizm tomon tashlangan yangi qadam bo'ldi, unda voqelik, xarakterlarning realistik tasviri, ayni paytda zamonasining muhim ijtimoiy-axloqiy muammolari aks ettirilganligini kuzatish mumkin. Shu tariqa Pushkin keyinchalik rus adabiyotida Gogol, Tolstoy, Dostoyevskiy, Chexov kabi yozuvchilar tomonidan yuksak cho'qqiga ko'tarilgan realistik yo'nalishlarga asos soldi

1830-yilning kuzini Pushkin Boldinoda o'tkazadi. Bu yerda u «Kolomnodagi kulba» dostonini yozib tugatadi. Bu asarning sujeti atayin soddalashtirilgan, shoir go'yoki yozuvchidan nasihatgo'ylik, o'gitbozlikni kutuvchi tanqidchi bilan bahs-munozaraga kirishadi.

Pushkinning «Belkin qissalari» asari ham Boldinoda yaratilgan. Unda yozuvchi har biri mustaqil bo'lgan hikoyalarni bir nom ostida birlashtiradi. Bu hikoyalarda realizmga moyillik sezilsa-da, romantizm elementlari hali kuchli. Pushkin qissa deb atagan bu hikoyalar sujeti asosidagi voqealar aksar holda favqulodda, kitobxonni qiziqtiruvchi, sarguzashtga moyil, bir oz g'ayritabiiy xarakterda. Yuqorida eslatib o'tilgan «Bo'ron» hikoyasida kuyovning almashib qolishi, «Qishloqi oyimqiz» da aslzoda qizning badavlat takabbur yigit muhabbatini qozonish uchun qishloqi oyimqiz qiyofasiga kirishi, «O'q uzish» hikoyasi qahramonining qasos tuyg'usini qalbida saqlab yurishi kabilar romantizm asarlari va qahramonlariga xos xususiyatlar bo'lib, mazkur to'plamga kirgan asarlarning umumiy jihati sifatida ajralib turadi. Hikoyalarning yechimlari ham kutilmagan - «Bo'ron» da aldangan qiz aynan o'sha adashib nikohlangan yigitni keyinchalik sevib qoladi va hikoya so'nggida bu oshkor bo'ladi, «Qishloqi oyimqiz» da esa badavlat yigit sevib qolgan «Qishloqi oyimqiz» otasi uylanishga undagan, yigit esa uylanishni istamagan aslzoda qiz bo'lib chiqadi, «O'q uzish» qahramoni qasosi ham kutilmagan - u raqibini jisman mahv etishdan emas, uning ko'zida o'lim vasvasasini ko'rishdan taskin topadi...

«Belkin qissalari» romantik elementlarning kuchliligiga qaramay tasvirning soddaligi, manzara va xarakterlarning tabiiyligi, detallarning haqqoniyligi bilan realistik rus novellasining dunyoga kelishi uchun asos yaratdi.

Shoirning Boldinodagi sarmahsul ijodi shu bilan cheklanmadi, uning kichik tragediyalari ham shu yerda yozildi. «Xasis ritsar» Molyerning «Xasis» asari ta'sirida yozilgan. Biroq muallif unda Molyerdan farqli o'laroq shunchaki ziqna obrazini yaratish bilan cheklanmaydi. Uning qahramoni ritsarlik fazilatlarini o'zida mujas-samlashtirgan, ayni paytda savdogarga xos ochko'zlik, oltinga bo'lgan xirs juda kuchli, bu ehtiros darajasiga ko'tarilgan. Uning tabiatidagi shafqatsizlikning asosi ham shunda. «Motsart va Salyem tragediyasida inson tabiatidagi yana bir illat - hasad mavzusi yoritiladi. Daho san'atkor, noyob iste'dod sohibi Motsart tabiatan butunlay Salyerining aksidir. Chinakam iste'dod uchun esa yovuzlik begonadir. «O'rtamiyonalar xudosi» Salyeri qalbida xudbinlik illati ayj olgan, Motsart dahosini tan oladi, ayni shu narsa uning qalbini kalamushdek kemiradi, pirovardida hasad, yovuzlik ulkan talantni mahv etadi.

Jahon adabiyotida mashhur Don Juan obrazi yaratilgan «Tosh mehmon», Vilsonning «Vabo shahri» asari asosida yaratilgan «O'lat paytidagi bazm» tragediyalari ham Boldinoda yoziladi.

1831-yili Pushkin xorijiy ishlar kollegiyasiga xizmatga kiradi. Bu yerda u davlat arxiviga murojaat etish huquqiga egaligidan foydalanib Buyuk Pyotr tarixini yozishga ahd qiladi.

1833-yili «Mis chavandoz» dostonini tamomlaydi. Dostonda shoir Pyotrning Rossiya tarixida boshlagan yaratuvchilik faoliyatini ma'qullagan holda, ushbu harakat zulmga, zo'ravonlikka, kuchga asoslanganligini ham ko'rsatadi. Pyotr «taqdirning buyuk hukmdori», uning zimmasiga katta tarixiy

vazifa yuklatilgan va u shu vazifani ado etgan. Biroq nima evaziga? Dostonda darveshsifat Yevgeniy obrazida shoir shu fikrni ilgari suradi. Yevgeniy shohga «Rossiyani temir uzangi» bilan jilovlagani uchun ta'na qilishga jur'at etadi.

1833-yili yozilgan «Pikovaya dama» qissasida Rossiyada shakllanayotgan yangi ijtimoiy munosabatlar qahramonlar qiyofasiga o'z muhrini bosganligini sezish mumkin. Bu davr kishisi inson hayotida pulning, boylikning muhimligini chuqur his etadi, boyib ketish yo'llarni izlaydi. Qissa qahramoni German xarakterida metin iroda, maqsadga intiluvchanlik, faollik mujassamlangan. Lekin maqsad yo'lda u barcha insoniy tuyg'ularni ham pisand qilmadi, yo'ldagi to'siqlar nimaning evaziga olib tashlanishining u uchun ahamiyati yo'q.

30-yillarda yozilgan ko'plab asarlari shoirning Rossiyadagi krepostnoylik muammosiga munosabatini aks ettiradi. («Goryuxin qishlog'i tarixi»). 1833-yili Pushkin Rossiya tarixida chuqur iz qoldirgan Pugachev qo'zg'oloni bo'lib o'tgan yerlarga sayohat qiladi, u haqidagi hikoyalar, qo'shiqlarni yig'adi. Shu tariqa «Pugachev tarixi» asari vujudgakekadi. Dehqonlar qo'zg'oloni mavzulari «Dubrovskiy» (1832- 1833), «Kapitan qizi» (1833-1836) asarlarida ham aks etadi.

«Dubrovskiy» asari asosida sarguzasht sujetiyotadi. Boy, shafqatsiz Troyekurov bilan kambag'allashib qolgan Dubrovskiy xonadonining yosh merosxo'ri Dubrovskiy o'rtasidagi ziddiyat sujetni harakatlantiradi. Dubrovskiy xo'rlangan otasi uchun qasos oladi. Bu yerda romantik muhabbat mojarosini ham kuzatish mumkin. Dubrovskiy va uning ashaddiy raqibining qizi o'rtasida muhabbat paydo bo'ladi, uning yakuni esa baxtsiz yechim topadi. Dubrovskiyning fransuz tili muallimi qiyofasida troyekurovlar xonadonida yashashi ham avantiyuristik asarlar sujetini yodga soladi. Ayni paytda o'z xo'jasi uchun qo'zg'olon ko'targan dehqonlarning hayotiy obrazi, qo'zg'olonning dahshatli manzarasi haqqoniyli, jonliligi bilan maftun qiladi.

Romantik elementlarga boy, bir qarashda ikki yoshning ishqiy sarguzashtlari haqida hikoya qiluvchi «Kapitan qizi» qissasida Pugachev qo'zg'olonining bevosita, realistik tasvirini ko'ramiz. Shoir qo'zg'olonning shafqatsiz, xunrezlik mohiyatini rad etadi, Pugachev harakatini oqlamaydi. Biroq hayot haqiqatiga sodiq shok qo'zg'olon sardorining qiyofasini muhabbat bilan bo'lmasa ham, uni tushunib, tabiatidagi mardlik, tantilik, shoirona romantiklik xislatlarini tan olgan holda chizadi. Kitobxon ko'z o'ngida johil, vahshiy olomonni maqsad yo'lida birlashtirgan dono, ayni paytda mug'omir, shafqatsiz, shu bilan birga adolatli dehqon obrazi gavdalanadi.

Pugachev qo'zg'oloni bilan bog'liq faktlarni yig'ish chog'ida Pushkin ko'plab xalq ertaklari va qo'shiqlarini yozib oladi, keyinchalik ulardan «Kapitan qizi» romanida, «Suv parisi» dostonda foydalanadi. 30-yillarda esa «Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak», «Shoh Sulton haqida ertak», «Oltin tojli xo'roz haqida ertak» asarlari dunyoga keladi.

1831-1836-yillarda Pushkin she'rlar yozishda ham davom etadi. «Shaytonlar», «Tunda uyqusizlikda bitilgan she'rlar», «Kuz» kabi she'rlarida ijodkor olamining sirli jabhalariga sayr etiladi, «Litsey qanchalar ko'p bayram qilgani sari...», «Men yana keldim», «Shahardan tashqarida o'ychan kezganimda» kabi she'rlari she'riyat, tabiat, hayot va mamot mavzulariga bag'ishlanadi. «Men o'zimga haykal qo'ydim...» she'rida esa shoir go'yo o'zinioldinda kutayotgan fojiani sezgandek bo'ladi, inson tafakkurining buyukligi, iste'dod nomining o'chmasligi, chin san'at asarlari boqiyli kuylanadi.

Pushkin ijodiy yetuklik davriga kirgan palla ayni paytda uning hayotidagi so'nggi bosqich bo'lib qoldi. Bu davrda shoir hayotida qator ko'ngilsizliklar ro'y berdi. 1833-yilda Pushkinga shoh Nikolay tomonidan kanier yunker unvoni berildi. Endi shoir saroy ballariga tashrif buyurishi, saroy odob-axloq qoidalariga amal qilishi lozim edi. Qoliplarga sig'maydigan shoir qalbi uchun bu yoqimsiz vazifa edi, iste'foga chiqishga urinishlar bekor ketadi. Buning ustiga shoir hukumatdan oldindan 30 ming so'm maosh oladi, endi u o'zi sevmagan kasbni oxirigacha bajarishga majbur.

Umuman, tadqiqotchilar Pushkin hayotining bu davrida uning kayfiyatidagi tushkunlik, qoniqmaslik hissini ta'kidlaydilar. Kavalegrad polki poruchigi, fransuz muxojiri J.Dantes bilan shoir o'rtasida nizo chiqishi ham uning mahzun, daqqi muhitdan zada kayfiyatiga mos edi. Saroy kiborlar guruhi o'rtasida shoir va uning xotini sha'nini bulg'ovchi ig'vo-bo'htonlar tarqaladi. Buni ta'sirchan, nozikqalb shoir ko'tara olmaydi. 1837-yil 27-yanvarda Pushkin va Dantes o'rtasida duel bo'lib o'tdi

va shoir og'ir yaralandi. Ikki kundan so'ng, 29-yanvarda Rossiyaning buyuk shoiri dunyodan ko'z yumdi.

Pushkin rus madaniyati tarixiga rus adabiy tili va yangi adabiyotining asoschisi sifatida kirgan. Ayni paytda shoirning o'lmas adabiy merosi jahon adabiyotining ham ajralmas mulki bo'lib kelyapti.

15-MAVZU:XX ASR OXIRI XXI ASR BOSHLARI JAHON ADABIYOTI

Reja:

1. Modernizm adabiyoti va o'ziga xos xususiyatlari.
2. Frans Kafka ijodi va modernizm.
3. Alber Kamyu ijodi va modernizm.
4. Jahon adabiyoti va modernizm.

Adabiyotlar:

1. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kkuch. T., Ma'naviyat, 2008.
2. Alimuhamedov N. “Antik adabiyot tarixi”. T.: “O'qituvchi”. 1975 yil.
3. Sulaymonova F. “Sharq va G'arb”. T.: “O'zbekiston”. 1997 yil.
4. Kun N.A. “Qadimgi Yunoniston afsona va rivoyatlari”. Toshkent. 1983 yil.
5. Mahmudov M. “Hayrat va tafakkur”. Toshkent. G'.G'ulom. 1990 yil.
6. Sh. Normatova. Jahon adabiyoti. T., Cho'lpon, 2008.
7. F.Kafka. Jarayon. Alisher Navoiy nomidagi nashriyot. Toshkent. 2006.

Modemizm fransuzcha moderne (zamonaviy, eng yangi) so'zidan olingan bo'lib, XX asrning 20-yillarida vujudga kelgan badiiy estetik tizimni anglatadi. Shu davrdan boshlab XIX asr san'atidan ferq qiluvchi yangi san'at shakllana boshlaydi.

Modernizmning vujudga kelishiga Shopengauyer va Nitsshe irrasional falsafasi, Bergson intuitivizmi, E. Gusselning fenomeno-logiyasi, Freyd va Yung psixoanalizi, Xaydegger, keyinroq Sartr va Kamyu ekzistensializmi, Franfurkt maktabi ijtimoiy falsafasi g'oyalari asos bo'lib xizmat qildi. Modemizm malum ijtimoiy davr mahsuli edi, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida jamiyat hayotida yuz bergan ijtimoiy va ma'naviy tushkunlik (bu dekadentlik atamasi bilan nomlanadi) adabiyot va san'atga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Modernizmning paydo bo'lishibirtomondanjamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarga norozilik ifodasi edi, zero ular ijtimoiy o'zgarishlar, inqilob-u to'ntarishlar bilan insonni baxtli qilib bo'lmasligini anglab yetdilar; modemizm oqimining g'oyaviy asosini tashkil qiluvchi falsafa insonning ijtimoiy tomoniga emas, ruhi, qalbiga asosiy e'tiborni qaratdi.

Modernist o'zlaridan oldingi falsafani narsalar ialsafasi bo'lgani uchun tanqid qiladilar, falsafa diqqat markazida inson turishi lozim, degan fikrni ilgari suradilar, insonning asl hayoti real voqelikdagi emas, ko'ngildagi, ongdan tashqari, aql-idrokka bo'ysunmaydigan hayoti deb biladilar. Ayni paytda ular an'anaviy shakldan ham qoniqmaydilar; XIX asr realizmi va romantizmi uchun xos bo'lgan qolip tusini olgan shakl va usullarni takrorlash, naturalizmning voqelikdan passiv nusxa ko'chirishi, badiiy ijodda akademizmga qarshi isyon ko'tardilar.

Ushbu yo'nalish tarafdorlari an'anaviy shakl hozirgi zamon voqeligini ko'rsatishga ojizlik qilib qolgan, deb hisoblaydilar. Ruh-qalb hayotini alohida qadrllovchi modernistlar, endi realistik usul va vositalar inson qalbining yashirin tublariga kirish, uni bor bo'yicha, ro'y-rost tasvirlash uchun ojizlik qilib qolgan, deb hisoblaydilar.

XX asr adabiyotida modernistlarning shakl bobidagi izlanishlarini aks ettiruvchi ko'plab oqimlarni ko'rsatish mumkin.

Futurizm - lotincha (futurum) so'z bo'lib, «kelajak» ma'nosini anglatadi. Bu oqimning maqsadi kelajak san'atini yaratishdan iborat edi Futuristlar san'at tamomila erkin bo'lishi kerak, deb hisoblardilar, o'tmish san'atini inkor qilardilar. Futuristlar yozish texnikasiga alohida e'tibor beradilar, poetik qonuniyatlarni buzadilar.

O'zining bir qancha ziddiyatli jihatlariga qaramasdan futurizm V.Xlebnikov, Pasternak kabi shoirlar ijodiy yo'nalishlarining shakllanishida katta rol o'ynadi, shakl bobidagi dadil tajribalariga asos bo'ldi.

Ekzistensializm (existence - mayjudlik) - XX asrdagi ana shu nomdagi falsafa asosida vujudga kelgan modernistik oqim. Ushbu falsafa markazida inson hayotining ma'nosi, shaxs erki va mas'uliyati muammolari turadi. Adabiy oqim sifatida ekzistensializm borliq va insonning g'aroyib sirli-sehrlilijahatlarixususida bahs yuritadi. Ushbu adabiyot namunalarida insonning jamiyatga begonaligi, yolg'izligi, mahkumligi muammosi ko'tariladi.

Ekspressionizm (fransuzcha - expression - ifoda so'zidan) - Birinchi jahon urushi va inqilobiy to'ntarishlar davrida san'at va adabiyotda vujudga kelgan oqim. Ushbu oqim vakillari hissiyotga, tuyg'uga alohida e'tibor beradilar, qahramonning tasawurlari, taassurotlari ifodasi yetakchilik qiladi, hissiyotga, kechinmaga urg'u beriladi. Ekspressionizm ko'proq she'riyat (Pol Elyuar) va dramada namoyon bo'lgan.

Impressionizm (fransuzcha impression - taassurot) - XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Fransiya vujudga kelib, tasviriy san'at, adabiyot, musiqada o'zini namoyish qilgan oqim. Impressionistlar insonning biron hodisa ta'sirida tug'ilgan taassuroti, hissiyoti, hayajoni, ruhiy holati san'atning diqqat markazida turishi kerak deb hisoblaganlar.

Ular insonning asl hayotini g'ayrushuuriy hissiyotlar, o'zgalardan yashirin tuyg'ularda ko'rganlar, ushbu olamni bor bo'yicha ko'rsatishga harakat qilganlar. Impressionizm atamasi Monening «Taassurot. Quyosh chiqishi» nomli kartinasi ko'rgazmada namoyish etilgandan so'ng paydo bo'lgan. Rassomlar o'zlarining sevimli janrlari bo'lgan peyzaj, portret, ko'p shaxslar tasvirlangan kompozitsiyalarda ularni qurshagan dunyodan olgan lahzalik taassurotlahni ifodalaganlar.

Adabiyotda impressionizm yo'nalfchlari naturalizmdan simvolizmga o'tish jarayonida shakllandi. J. va E. Gonkurlar, J.Gyuisman, Gi de Mopassan ushbu yo'nalishga moyillik bildiradilar, asarlarida oniy lahzada insonning tang-barang tuyg'ulanni so'z yordamida iloji boricha to'liqroq tasvirlashga intilganlar. Impressionizm alohida maktab tusini olmagan bo'lsa-da, bu yo'nalish vakillarining ko'plab kashfiyotlari zamonaviy san'at va adabiyotda iz qoldirdi.

Surrealizm (fransuzcha surrealisme) - Fransiya XX asrning 20-yillarida vujudga kelgan oqim. Surrealizm intuitivizm falsafasi, sharq diniy falsafasi, freydzizm ta'limotiga tayanadL Surrealizm estetikasi A.Bretonning «Surrealizm manifesto asarida o'zining ifodasini topgan. Ular insonning «men» iga erkinlik berishga, uni moddiyunchilik, insonning ijodiy imkoniyatlarini cheklovchi an'anaviy estetika zanjirlaridan xalos qilishga chaqiradilar. Hayotning asl mohiyati insonning ongdan tashqari g'ayrushuuriy olamida berkingan deb hisoblaydilar, adabiyot tartibotlarga, ko'nikma, axloqiy tushunchalar va mantiqqa bo'ysunuvchi hayotni emas, uning botindagi pinhon tuyg'ularini tasvirlashi lozim.

Shu sababli inson ruhining g'ayrushuuriy holatini namoyish etuvchi usul sifatida tush holati, go'daklik kechinmalari, gallyusinatsiya kabilardan foydalanganlar. Surrealistik asarlar syujeti majozilikka, paradoksga, kutilmaganlikka asoslanadi Adabiyotda Appoliner, tasviriy san'atda S.Dali, X.Miro, I.Tangi, G.Arp, AMasson, R.Magritt, kinematografiyada L.Bunyuel, absurd teatrida E.Inoyekso, S.Bekket ushbu oqim namoyandalidir.

Modernizmga tushkunlik mafkurasini ifodalovchi hodisa sifatida salbiy baho berib kelindi. Biroq uning buyuk namoyandalari bu fikrning biiyoqlamaligi, adolatsizligini isbotladi. Frans Kafka, Jeyms Joys, Alber Kamyu asarlarida chirigan jamiyatning inson shaxsiga ta'siri, uni mahv etishi o'zining yorqin ifodasini topsa-da, insonga, uning kelajagiga ishonch tuyg'usi ham ufurib turadi. Modernistik ijod mahsullarida fojiaviy taqdirga mahkum inson fojiaviylik zamirida ham baxtga intiladi, najot axtaradi.

Modernchi adiblarning qahramonlari ko'p hollarda favqulodda vaziyatga tushib qoladilar, ana shunday hollarda ularning qalbida ro'y berayotgan jarayonlar tnuallif diqqat markazida turadi. Ularning qahramonlari odatda halol, sofdil, beozor odamlar. Ruh hayoti bilan yashash, ko'ngil buyurganini qilish, soxtalik, sun'iylikni inkor qilLsh, qalbidagini yashirmaslik - F.Kafta, A.Kamyu kabi ijodkorlar asarlarining qahramonlarida ana shu jihatlar yetakchilik qiladi.

Modernistlar shaklga alohida e'tibor beradilar, shartli-ramziy usullarni qo'llaydilar, inson shaxsiga kutilmagan tomondan yondashadilar. Bu jihatdan, ayniqsa, avstriyalik yozuvchi F. Kafka, fransuz adibi A. Kamyu va amerikalik U. Folkner ijodi diqqatga sazovor.

Frans Kafka XX asr modern adabiyotining eng ajoyib va o'ziga xos namoyandasidir. Uning ijodi g'oyatda xilma-xil qarashlar va baholarga sabab bo'lgan. Albatta, Kafka tiriklik chog'idagiga qaraganda o'limidan keyin unga qiziqish kuchli bo'lganligini ham e'tirof etish kerak. Ba'zan buyuk iste'dod egalari o'z davrida tan olinmasligi, tushunilmasligiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Kafka ham shunday ijodkorlar sirasiga kiradi. U Markaziy Yevropada o'tgan asrning 20-30-yillarida juda keng bo'lmasa ham ma'lum ma'noda tanilgan edi. O'z paytida Gesse, T.Mann, Muzil, Brext kabi taniqli yozuvchilar uning iste'dodini tan olgan edilar. Biroq Kafka nomining chinakam shuhrati Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrga to'g'ri keladi. Chunki Kafka tirikligida kitoblarning nashr qilinish-qilinmasligiga bee'tibor qarar edi. Shu sababli o'limidan keyin nashr etilgan, ba'zilar tugallanmagan «Jarayon», «Qo'rg'on», «Amerika» romanlari adabiyot olamida chinakam voqea bo'ldi.

Uzoq davr mobaynida Kafka merosi uning do'sti, yozuvchi Maks Brod qo'lida saqlandi. Brod marhum yozuvchi timsolida ko'proq san'atkomisi emas, «g'oya odamini» ko'rar edi. Shu sababli uni xristian ta'limoti targ'ibotchisiga chiqarib qo'ygan edi. Kafka ijodini o'zicha noto'g'ri talqin qilganiga qaramay, Brodning adabiyot oldidagi xizmati ulkan bo'ldi, u do'stining barcha nashr qilinmagan qo'lyozmalarini yoqib yuborishni so'rab qoldirgan vasiyatini bajarmadi va dunyo kitobxoni Kafka merosi bilan to'liq tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Kafka nomi shuhrat cho'qqisiga chiqqach, barcha uni o'zicha talqin qilish va ulug'lashga o'tdi. Dastlab Amerikada boshlangan Kafkani yangidan tanish asta-sekin butun dunyoga yoyildi. Tanqidchilik buning sababini yozuvchi asarlarida ko'zga tashlanadigan payg'ambarona bashoratlarda ko'radilar. Kafka hech qachon payg'ambarlikka da'vo qilmagan edi, biroq u dunyo taraqqiyotidagi ba'zi tamoyillarni ko'ra bildi. Insoniyat ishongan g'oyalarning urushdan keyin puch bo'lib chiqishi, tamaddun - sivilizatsiyaning oxir-oqibatda insonni mahv qiluvchi jihatlarini o'z asarlarida ochib berdi.

Kafka g'ayriinsoniy tartibotlar hukmron bo'lgan dunyodan nafratlanar edi, insonning imkoniyatlariga ishonmas edi. Ayni paytda u inson uchun iztirob chekar, uning ucbun o'zini javobgar deb his qilardi. Kafka dunyoqarashidagi qarama-qarshilik uning asarlari turlicha baholanishiga sabab bo'ldi. Uning ijodini diniy va modern adabiyotning turli oqimlari aqidalari bilan izohlashga urindilar.

XXI asrga kelib ham Kafka ijodiga bo'lgan qiziqish so'ngani yo'q. Zero, bu yozuvchining kashfiyotlari zamonaviy kitobxon qalbiga ham yo'l topa bilmoqda.

Frans Kafka 1883-yil 3-iyulda Praga shahrida tug'ilgan. Ota-onasi yahudiy millatiga mansub edi. Onasi ruhoniylar avlodidan, otasi esa qishloq hunarnandining o'g'li bo'lgan. Kafka shaxsining shakllanishida otasining o'rni katta. Yoshligi qashshoqlikda o'tgan bu odam keksayganda ma'lum sannoya to'playdi va kichik fabrika egasi darajasiga yetadi. Ruhan tamomila o'g'lining ziddi bo'lgan bu odamda endi o'ziga ishonch hissi paydo bo'ladi va oilasidagi uch qizi hamda yolg'iz o'g'il Fransni o'z hukmiga bo'ysundiradi. Nihoyatda ta'sirchan tabiatli Frans otasiga qalban itoat etolmaydi, biroq otasiga bo'lgan nafratga yo'g'rilgan muhabbat, uning oldida qarzdorlik, burch hissi noroziligini tashqariga chiqarishiga yo'l qo'ymagan. Uning hech kim daxl qila olmaydigan o'z xayolot olantiga berkinib olishi sukutdagi isyoni ifodasi edi.

Keyinchalik «Otamga xat» (1919) asarida qalbidagi ziddiyatni to'kib soladi (biroq uni otasiga jo'natmagan). Ushbu xat Kafka iste'dodini shakllanishidagi ko'plab ruhiy omillarni ochib beradi.

Tadqiqotchilar Kafka dunyoqarashida ko'zga tashlanuvchi o'ziga nisbatan ishonchsizlik, yolg'izlikka moyillik sababini shunda ko'radilar.

Frans awal nemis gimnaziyasini tamomlaydi, so'ngra huquq-shunoslik bo'yicha oliy ta'lim oladi, San'at tarixi va germanistikadan ma'ruzalarga qatnashadi. 1906-yilda oldin advokatlik idorasida, so'ngra Praga shahar sudida amaliyot o'taydi. 1907-yildan boshlab xususiy sug'urta jamiyatida xizmat qiladi.

Shu yili ishlab chiqarishdagi shikastlanishdan sug'urtalanish tashkilotiga ishga o'tadi. Kafka intizomli va halol xizmatchi, buning ustiga doktorlik darajasiga ega edi. Biroq shunga qaramay, u umrining oxirigacha kichik maoshli, oddiy lavozimni egalladi. 1917-yili sil kasali bilan og'riydi. 1922-yili nafaqaga chiqishga majbur bo'ladi. Nihoyat 1923-yilda uning erkin adabiyotchi bo'lish orzusi amalga oshadi va Berlinga keladi. Biroq sog'lig'i yomonlashganligi tufayli Pragaga qaytadi. 1923-yilda Vena yaqinidagi Kirling sil kasalliklari sanatoriysida vafot etadi.

Kafka dunyoqarashidagi o'ziga xoslik uning uslubida ham o'z aksini topadi. Uning asarlarida fantastika va reallik g'aroyib tarzda uyg'un-lashib ketadi «Evrilish» hikoyasining qahramoni Gregor Zamza uyqudan uyg'onib o'zining ulkan hasharotga aylanib qolganini ko'rad. Albatta, bu o'ta g'ayrioddiy holat. Biroq yozuvchi vaziyatni tezda oddiy **kundalik** tashvishlar tasviri bilan almashtiradi. Endi g'ayrioddiy narsa insonning odatiy hissiyot, ko'nikmalari bilan qo'shilib, kitobxonni ajablantirmay qo'yadi. Zamzani o'zining hasharot ekanligidan ko'ra ishga kech qolish, boshlig'idan gap eshitish ko'proq tashvishlantiradi. Tanish holat. Kafka fantastikadan voqelikka erkin ko'chadi. Zamza tashqi tomondan hasharotga aylansa ham qalban o'zgargani yo'q. U ota-onasi va singlisi oldida o'zini mas'ul deb his qiladi, oila farovonligi uchun o'zi sevmagan kasb bilan shug'ullanishga tayyor. Biroq hasharotga aylangan o'g'il oila uchun keraksiz. Eng yaqin kishilari boshda u sevgan, ko'nikkan barcha narsadan mahrum qildilar, keyin undan tamomila yuz o'giradilar va nihoyat uni axlat uyumiga supurib tashlaydilar. Ushbu hikoya inson qalbining yashirin, tuban, ayni paytda yuksak jihatlarini ochib tashlaydi.

Kafkaning «Jazo koloniyalarida» hikoyasi turli talqinlarga sabab bo'lgan. Bu yerda ham biz odatlangan sujetni ko'rmaymiz. Hikoyada dahshatli ixtiro - qatl mashinasi tasvirlangan. Asaida shu mashinaning ixtirochisi - ofitser uning ishlash jarayonini zo'r maroq va ehtiros bilan ta'riflab beradi, sayyoh oldida uning ishinl namoyish etmoqchi bo'ladi. Kutilmaganda mashina ishlamay qoladi, fidoyi ofitser nomus kuchi bilan o'zi mashinaga yotadi. Oqibatda o'zining ixtiroosi ixtirochisini mahv etadi.

Bu hikoya g'oyasini ba'zi adabiyotshunoslar Kafka 20-30-yillarga kelib fashizm, stalinizm, milliy sotsializm ko'rinishida namoyon bo'lgan totalitar siyosatni bashorat qilishida ko'radilar. Boshqacha qarashlarga ko'ra Kafka bu asarida tamaddunning insonni mahv etuvchi tabiatini ko'rsatib bergan.

Kafkaning birinchi romani «Amerika» 1916-yilda yozib tugatilgan. Roman 16 yoshli yigitchaning sarguzashtlari haqida hikoya qiladi. Yigitchani ota-onasi xizmatkor ayol bilan ishqiy muloqotlari uchun Pragadan Nyu-Yorkka «surgun» qiladilar. U nihoyatda beg'ubor va sodda, barchaga yaxshilik qilishni istaydi. Mana shu fazilatlar unga ko'plab ko'ngilsizliklar keltiradi. Muttaham odamlar undan foydalanadilar, qahramon o'zi istamagan holda ko'plab firibgarlik ishlariga aralashib qoladi. Ya'ni, u o'ziga begona bo'lgan boshqa olamga tushib qoladi. Roman nisbatan real voqelikka yaqin bo'lsa ham (bu asarda Kafkaning boshqa asarlaridagi kabi shartlilik yetakchilik qilmaydi) Kafka ijodiga xos bo'lgan muhitdan begona-lashuv ruhi bu yerda ham hukmron, ya'ni muhitdan begonalashuv Kafka ijodiga xosdir.

1922-yili dunyo yuzini ko'rgan «Jarayon» romani qahramoni Yozef K. ustidan ketayotgan sud tasviridan iborat. Bu sud odatdagi sudlardan farq qiladi. Qahramon o'zini nima uchun sud qilayotganlarini bilmaydi, biroq sud qiluvchilarga so'zsiz bo'ysunadi, jarayon esa uylarning chordoqlari va yerto'lalarida bo'lib o'tadi. Boshda mavhum kayfiyatda sudga jalb qilingan Yozef K. asta-sekin jarayonga chuqurroq kirib boradi. O'zini nimadadir aybdor sezadi. Asar nihoyasida o'lim jazosiga hukm qilinadi, u hukmga so'zsiz itoat etadi, uni «itdek so'yib tashlaydilar».

Kafka ning bu asari ham turli talqin va bahslar mavzusiga aylangan. Yozef K. xarakteri har xil baholarga sabab bo'lgan. Uning sud qilinishi va qatl etilishida inson hayotining absurdligi, oxir-oqibat halokatga mahkumligi g'oyasi yashiringan. U jarayonga qarshi borishga ojiz, unga bo'ysunishdan o'zga chorasi yo'q.

Kafka asari umidsizlik, tushkunlik ruhi hukmron, degan qarashlar uncha asosli emas. Inson ba'zan qanchalar ojiz va tuban bo'lmasin, baribir, u mehrga, e'zozga sazovor. Yozuvchining keyingi asari «Qo'rg'on» o'quvchida nisbatan nurli taassurot qokliradi, insonga nisbatan umid uyg'otadi «Qo'rg'on» qahramoni yer o'lehovchi K.

- qishloqqa kelgach, sirli qo'rg'onga yo'l izlaydi, biroq hech kimu, yerga qanday borishni bilmaydi va unga to'g'ri yo'l ko'rsata olmaydi. K. «Jarayon» qahramonidan farqli o'laroq faol va harakatchan, chorasiz muhitda hamqo'rg'onga yo'l topish umididan voz kechmaydi.

Kafka asarlari yagona xulosa chiqarishga imkon bermaydi, tafakkurni uyg'oqlikka, faollikka chorlaydi, qayta-qayta o'qishga majbur ;-; qiladi. Uning ijodijumbog'i, sehri ham ana shunda, yangi asr kitobxonini bu jumboqni o'zicha yechadi, kashf qiladi.

Buyuk Amerika yozuvchisi **Uilyam Folkner** XX asr jahon adabiyotining zabardast vakillaridandir. U qator romanlar, hikoyalar muallifi. Xalqaro Nobel mukofotining laureati.

Folkner mashhur fransuz yozuvchisi Xamyu, buyuk Xeminguey bilan zambndosh bo'lgan. Uning hayoti va ijodi qadrdon Missisipi shtati bilan ^hambarchas bog'liq. Folkner, ^ir necha sayohatlarini hisobga olmaganda, se'vikli ^o'shasida muqim yashagan, qadrdon ildizlar uni Vatanidan uzoqlashishiga yo'l qo'ymagan.

Uilyam Katbert Foflcnr 1897-yil 25 -sentabrda Missisipi shtatining Nyu-Olbani degan joyida, G'arb jamiyatining aslzodalariga kiruvchi oilada tug'ilgan. Oradan besh yil o'tgach, uning ota-onasi qo'shni Oksford shahriga ko'chib o'tadi. Uilyam bolalikdan bobosi singari yozuvchi bo'lishni orzu qilgan. Folknerning katta bobosi - Klark Folkner oilada «keksa polkovnik» deb ataganlar. U keksa soldat bo'lib, g'oyat ajoyib, serqirra, murakkab shaxs bo'lgan: avantyurist va duel ishqibozi, ayni paytda romantiktabiat hamda jiddiy siyosatchi, g'arb konfederatlari harbiy qo'shinlarining yoiboshchilaridan bin va nihoyat yozuvchi.. Uning «MemGsningoqatirgub» romanio'z vaqtida juda katta shuhrat qozongan va keyinchalik Margaret Mitchellning mashhur «Shamol olib ketgan» romaniga adabiy manba bo'lib xizmat qilgan.

Uilyam Folknerning yozuvchilik iste'dodi juda erta namoyon bo'lgan. Zamondoshlarining eslashlaricha 10 yoshli bola biror voqeani hikoya qila boshlasa, to'xtay olmagan, boy xayol dunyosi unga tinchlik bermagan va hikoya oxiriga kelib reallik bilan xayolot o'rtasidagi chegara yo'qolgan.

Biroq uning yozuvchi sifatida tan olinishi, o'z yo'lini tanlab olishi oson kechmagan. Uilyam turli nashriyotlarga she'rlari va nasriy mashqlarini jo'natib, o'z kuchini sinab ko'rmoqchi bo'ladi. Biroq hamma joydan bir xilda muloyim rad javobini oladi. Shundan so'ng Folkner Nyu-Yorkda o'z kuchini sinab ko'rmoqchi bo'ladi. Yosh yigitcha bu ulkan shaharni zabt etishga qaror qiladi. Folknerning bu yirik shahardagi hayoti kitob magazinida suiuvchilikdan boshlanadi. Yigitcha uncha yaxshi sotuvchi bo'lmasa-da, ashaddiy «kitobxo'n» bo'lib chiqadi. Nyu-York Folkner uchun ajoyib hayot va ijod maktabi vazifasini o'tadi, u bu yerda Servantes, Dostoyevskiy, Tolstoy, Balzak, Dikkins, Flober kabi daholar ijodi bilan tanishadi. Nyu-Yorkda Folkner isyonkor ruh egalari, yozuvchilar va izlanuvchilar. makoni Grinvich Villachga joylashadi. Biroq ko'p o'tmay yana o'zining kichkina Missisipisiga qaytadi. Folkner qadrdon go'shasiga omadsiz nomini olib qaytgach, turli kasblarda o'zini sinab ko'radi. Bank xizmatchisi, bo'yoqchi, xat tashuvchi... kabi yumushlarni bajaradi. Biroq bu sohalaming hech birida uzoq ishlolmaydi, chunki u yaxshi ishchi emas edi. Folknerning peshonasiga yozuvchi bo'lish yozilgan edi va u taqdirdan qochib qutulolmadi. Adabiyot olamida o'z yo'lini topib olish mashaqqatli edi. Mana shunday bir davmi boshdan kechirayotgan adib, kutilmaganda 1924-yilda mashhur yozuvchi Shervurd Anderson bilan tanishadi. Keyinchalik «yangi adabiy avlodning otasi» deb nom olgan bu yozuvchi bilan tanishuvi yangi Orleanning fransuz kvartali chorrahasida ro'y beradi va bu voqea yosh, havasmand ijodkor hayotida o'chmas iz qoldiradi. Anderson yo'l izlayotgan, hali hech kimga tanilmagan Folknerda o'ziga ishonch tuyg'usini uyg'otadi.

«Siz hali uzoqqa ketasiz, - deydi mashhur yozuvchi uning qoralamalarini o'qib ko'rib, - har qanday minilmagan otga zarur bo'lganidek, siz ham o'zingizni bir oz bo'sh qo'yishingiz kerak, xolos».

Folkner o'zining dunyosi uncha katta emasligini yaxshi tushunar edi. Uning bilgani shu kichkina Missisipi bo'lib, shu bilan qanoat-lanardi. Folkner o'z xulosasidan ilhonilanib ishga kirishadi. 1925-yilda adib keyinchalik unga ilk shuhratni keltirgan «Soldat sharafi» nomli romanini yozishga kirishadi. Yozuvchi bu asarida urushning tub mohiyatini ko'rsatadi, uning «vatanparvarlik», «qahramonlik», «muqaddas qurbonlar», «harbiy shon-shuhrat» kabi chiroyli

niqoblarini olib tashlaydi. Urush mohiyat-e'tibori bilan «Chikago mushtlashuvlaridan farq qilmaydi, birgina farqi go'shtni bu yerda yeiga ko'madilar». Mana shu fikr urushdan keyingi butun bir avlodning hayotiy xulosasiga aylanadi.

1930-yilda «Forum» jurnalining savollariga javob berar ekan, Folkner o'zining adabiyotdagi yo'lini shunday tasvirlab beradi:

«Shervud Anderson ismli kishini uchratdim. O'zimcha dedim: «Balki roman yozib ko'rarman? O'shanda ishlashim kerak bo'lmas?»»

Bajaraman dedimmi -bajaraman. «Soldat sharafi». Bajarildi. «Shovqin va g'azab». Bajarildi. Ro'yxatni davom ettiraverish mumkin. «Men o'layotganimda» - bajarildi (1930-y), «Avessalom, Avessalom!» -bajarildi (1936-y.), «Muso, pastga tush» -bajarildi (1942-y.), «Rohibaga marsiya» - bajarildi (1951-y.), «Hikoyat» - bajarildi (1954-y.), «Koshona» - bajarildi (1959-y.). «Bajaraman, deyildimi -bajarildi». Bu gaplar, albatta, hazil. Ushbu asarlar sahardan tungacha mehnatning mevalari». Folknerning shunday gapi bor edi: «Yaxshi yozuvchini 99% iste'dod, 99% intizom va 99% mehnat shakllantiradi».

Yozuvchi asarlarining sujeti g'oyatda rang-barang va xilma-xil, biroq o'zining ta'kidlashicha: «mohiyat-e'tibori bilan umrim davomida faqat bir voqeani yozdim - dunyo va o'zim haqidagi voqea». Shu orqali u «Hayotning o'zida ma'no bormi?» degan savolga javob axtardi.

Folkner adabiyot olamiga o'zi yaratgan xayoliy dunyoni olib kirdi va uni «Yoknapatofa» deb atadi. Hatto bu mamlakatning xaritasini chizib berdi, bu xarita «Avessalom, Avessalom!» romanining muqovasida aks etdi, o'sha kezlarda millionlab nusxalarda tarqaldi.

Folkner asarlarining qahramonlari shu mamlakatda hayot kechirganlar. Xaritaning ostida shunday so'zlar yozilgan: «Yoknapatofa okrugi, Missisipi shtati. Maydoni 2400 kv. mil. Aholisi: oq tanlilar - 6298, negrlar -9313, Uilyam Folkner - yagona xo'jayin va hukmdor».

Folkner millatni ulug'lash yo'lini emas, shafqatsizlarcha o'z-o'zini tanqid qilish yo'lini tanladi. Zero, sevgi va nafirat biri ikkinchisini inkor qiluvchi tushunchalar emas. Folknerning tanqidi millatiga nisbatan chuqur va ulkan muhabbat bilan yo'g'rilgan. Folkner o'sha kezlarda adabiyotda urf bo'lgan oson yo'ldan, ya'ni badavlat kiborlarga oddiy xalqni, mavhum odob me'yorlariga - yer odamlarining sinovdan oigan, qat'iy axloqiy tushunchalarini qarama-qarshi qo'yish yo'ldan bormadi.

Yozuvchining aybnomasi barcha ijtimoiy va iqtisodiy qatlamlarga, badavlat sirdga, boylarga ham va johil omi oq tanli kambag'allar uchun xos bo'lgan insoniy zailliklarga ham qarshi yo'naltirilgan edi. U irqiy kamsitishning fojiasini ochib beradi, irqiy o'z-o'zini yuqori qo'yish nazariyasini ehtiros bilan fosh qiladi, huquqiy va davlat idoralarining munofiqliklarini ko'rsatadi, diniy mutaassiblikning besamarligini aks ettiradi. Folkner asarlaridagi eng asosiy mavzu alam va iztirob tasviridan iborat. U inson qalbining eng tuban tuyg'ularini ochib tashlaydi. Uning asarlarida jinoyat, shafqatsiz qonxo'rliktasviriniko'p uchratish mumkin. Yozuvchi ehtiroslarini o'zgalidan pinhon tutib, qat'iy nazorat ostidan o'tkazib yuzaga chiqannaydi, ularni oxiriga qadar, to'laligicha otilib chiqishlariga yo'l qo'yib beradi Ko'p hollarda qahramon o'limi oldidan so'nggi daqiqalarda achchiq hayot tajribasidan umrini besamar yashab o'tganligini anglab yetadi.

Folkner o'ylab chiqargan xayoliy mamlakat Yoknapatofani shimoliy Missisipining eski xaritasidan topib oldi, Yoknapatofa yerli hindularning Chikeso qabilasi tilida «voha bo'ylab tinch oqayotgan suv» ma'nosini anglatadi. Bu boshi va oxiri bo'lmagan hayot daryosi timsolidir.

Zamondoshlari tomonidan Folkner ijodi turlicha baholangan, qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lgan. Qator adabiyotshunos-tanqidchilar Folkner amerikaliklarga olijanob, sog'lom fikrli va nihoyat darajada jo'n, zerikarli provinsializmning biqiq muhitni yorib chiqishlarida ko'maklashadi, deb hisoblaydilar.

Yana boshqa tanqidchilar, ular ko'pchilikni tashkil qiladi, uni hayotni qora rangda tasvirlashda aybladilar, o'zlarini yozuvchi asarlari ko'zgusida ko'rishni istamadilar. Ko'plarga uning ijodiy uslubi va lalsafiy xulosalari yoqmas edi. Folkner asarlariga munosabat bildiruvchi maqolalarning nomi ham shundan dalolat berib turadi: «Adabiyotdagi kasallik», «Shafqatsizlik maktabi», «Shafqatsizlikka sig'inish», «Dah-shatlar adabiyoti», «TJzoq Janubda Dostoyevskiy soyasi».

Kafedra minbarlari va matbuot orqali yillar davomida uning ijodini qoralaganlar. Qadrdon shtatida uzoq davrlar uning san'ati va siyosiy qarashlarini anglab yetmaganlar.

Folknerning siyosiy qarashlariga turli munosabatlar bildirilgan. Folkner o'zini siyosatdan uzoq kishi deb hisoblardi. Ayni paytda inson sha'ni va erkiga nisbatan har qanday ko'rinishdagi zulmga keskin qarshi edi.

Folkner kommunistik g'oyani qabul qilmagan, hatto uni sobiq sho'rolar ittifoqiga amerikalik yozuvchilar delegatsiyasi tarkibida yubormoqchi bo'lganlarida taklilhi rad etgan. Ayni paytda Tolstoy, Dostoyevskiy, Chexov kabi daholar ijodini yuksak qadrlagan. U har qanday ko'rinishdagi totalitarizmdan nafratlanagan.

Folkner ijodi atrofidagi bahs-munozaralar barchaning diqqat markazida turgan, uning har bir yangi asari tanqidchilik nazaridan chetda qolmagan. Uning nomi Yevropa va Amerikada keng shuhrat qozona boshlagan. Biroq Folkner hamon moddiy muhtojlikda yashar edi. Asarlari uchun olgan qalam haqi oldingi qarzlarni uzish uchun bazo'r yetardi. Shunday vaziyatda unga go'yo omad kulib boqqandek bo'ldi. Folknerga Gollivudning nazari tushdi. Folkner uchun Gollivud cheksiz imkoniyatlar, shon-shuhrat kaliti edi. Biroq yozuvchi Gollivudga kelgach, unga shunday shart qo'yadilar «Biz sizni hech kimga o'xshamagan uslub egasi bo'lganingiz uchun ham o'zimizga taklif qildik. Biroq bu yerda shu narsani unutishingizni iltimos qilamiz». Bu Folkner juda qadrlagan erkinlikni kishanlash demak edi.

Yozuvchi oldida darhol to'siqlar paydo bo'la boshladi. Folkner o'z asarining ssenariysi ustida ish boshlaganda, undan o'z davrining mashhur aktrisasi Djoan Krouford uchun rol talab qildilar. Yozuvchi taajjublanib dedi: «Mening hikoyamda ayollar yo'q». «Yo'q bo'lsa, endi bo'ladi», deyishdi unga Gollivuddagilar. Ayol obrazi kiritilgach, mashhur aktrisa yozuvchidan «ingliz dengizchilari jargonidagi matn» ni yozib berishni talab qildi. Shundan so'ng sevgi uchburchagini yaratish majburiyati paydo bo'ldi. Folknerda shartnomani yirtib tashlab, Gollivuddan bosh olib ketish istagi bosh ko'tara boshladi, biroq pul juda zarur edi: yaqinda otasi o'lgan, to'ng'ich o'g'il Folkner oilani boqishi kerak edi. Endi yozuvchining o'z oilasi, xotini Estell va qizchasi bor edi. Bu orada ukasi Din fojiali halok bo'ladi. Uning xotini va bo'lajak farzandi uchun qayg'urish ham Folkner zimmasiga tushdi.

Folkner ma'lum muddat o'z ijodiy erkini jilovlashga majbur bo'ldi. Barcha orzu-umidlari puchga chiqdi. Yozuvchining moddiy ahvoli birmuncha yaxshilangan bo'lsa-da, o'z ijodidan qoniqish tuyg'usi uni tark etgan edi. Folkner bunday vaziyatga uzoq chidab tura olmadi va oilasi bilan yana qadrdon Missisipiga qaytadi. U shunday achchiq xulosaga keladi: «Amerikaga ijodkor kerak emas. Faqat inson ruhi masalasi bilan shug'ullanuvchi va o'z shuhratini sovun va sigareta savdosiga yoki yangi markadagi avtomobillar, dengiz kruizlari va kurort mehmonxonalarini reklama qilishga sovrishni istamaydigan Folknerga Amerikada joy yo'q».

Folknerning shuhrati kun sayin ortib borar edi. Fransiya uni Hurmat legioni ordeni bilan taqdirladi, endi vatanida ham uni qadrlay boshladilar. San'at va adabiyot instituti va Adabiyot akademiyasi uni a'zolikka qabul qildi. Keyinroq esa eng yaxshi adabiy asar uchun Milliy mukofot bilan taqdirlandi. 1947-yilda Stokgolmda Folknerni laureatlik diplomi va o'ttiz ming dollar mukofot kutayotganini ma'lum qildilar. Nobel qo'mitasi shunday qaror chiqardi: «Zamonaviy Amerika romanini rivojlantirish yo'lidagi buyuk va o'ziga xos ijodiy hissasi uchun» 1950-yilda qirol Gustav Adolf Folknerga medal topshiradi. So'ngra Folknerning mashhur nutqi tinglanadi. Aytishlaricha, yozuvchining ovozi zo'rg'a eshitganlar. Lekin ertasiga ro'znomalarda e'lon qilingan bu nutq barchada juda kuchli taassurot qoldirgan.

Folkner hayotining oxirgi yillarida deyarli hech narsa yozmagan. 60 yoshida u juda sog'lom va baquwat edi. Lekin shunga qaramay Folkner hayotining so'nggi pallasida qandaydir mahzunlik, dilgirlik kayfiyati sezilib turardi. Adib asta-sekin yaqinlarini yo'qota boshladi.

1960- yil 11-fevralda mashhur fransuz yozuvchisi va faylasufi Alber Kamyu avtomobil halokatida fojiali halok bo'ldi. Folkner uchun bu katta yo'qotish edi. U ta'ziya xatida shunday yozadi: «Bu tinmasdan o'zini izlayotgan va tahlil qilayotgan qalb edi. Mashinasi daraxtga urilgan o'sha daqiqalarda ham u hamon o'zidan javob axtarar va talab qilar edi. O'sha so'nggi daqiqalarda u izlagan javobini topganmikan?»

1961- yilda birin-ketin og'ir judolikni boshidan kechiradi. Folknerning doimiy hamrohi Ernest Xerninguey vafot etadi. Ko'plar Folkner va Xerningueyni raqiblar deb hisoblardilar. Biroq bu raqiblik hech qachon dushmanlikka aylanmagan edi. Har ikki yozuvchi oqilona xulosa chiqargan edilar: dunyoda o'zlarini izlash va adashmasliklari uchun joy yetarli.

Bu orada Folknerning onasi qazo qiladi. U yozuvchini kurash va umidga ruhlantirar edi. Onasini ko'mayotganlarida u ukasiga shunday deydi: «Mening ham kunim bitgan ko'rinadi». Yozuvchi so'nggi yillarda yozmaganligini quyidagicha izohlaydi: «khtiyoq yo'q. Agar yozish ishtiyoqi bilan yonsam, darhol yana mashinka yoniga o'tiraman».

Folkner yana asar yaratishga umid qilgan. Lekin u dilida borini to'kib solgan, zimmasidagi vazifasini sharaf bilan ado etgan va dunyoni tark etgan. Folknerning o'limi kutilmaganda ro'y berdi. Otdan yiqilib (u ot minishni sevar, 60 yoshida ham yaxshigina chavandoz edi), yelkasida kuchli og'riq sezadi. Keyinroq kasalxonaga yotadi. Odatdagi tekshirish boshlanadi. Oradan bir kun o'tgach, kunduzi Folknerning yuragi urishdan to'xtaydi.

1962-yilning 7-iyulida yozuvchini ko'mish marosimi bo'ldi. Butun dunyodan jurnalistlar ishtirok etadi. Yirik teleradiokompaniyalar bu marosimni to'g'ridan-to'g'ri namoyish qiladilar.

Folkner o'limidan keyingi shon-shuhratiga beparvo qarar edi. U hatto bu haqda uncha o'ylamas edi. Biroq Folkner o'zidan keyin chuqur va o'chmas iz qoldirib ketdi.

Alber Kamyu. Fransuz yozuvchisi, dramaturgi, fransuz ekzistensializmi asoschi-laridan biri Alber Kamyu faqat o'z davri emas, keyingi asr jahon adabiyotining buyuk namoyandalaridan bo'lib qolaveradi. Ijodkorning buyukligi u yaratgan asarlarining soni va mashhurligi bilangina emas, hayot hamda inson to'g'risida qanday yangi gap ayta olgani, uning ilgari ko'rilmagan qanday yangi jihatini kashfeta bilganligi bilan ham o'lchanadi. Aiber Kamyu borliq va inson haqida o'z so'zini aytib ketgan buyuk ijodkorlar sirasiga kiradi.

Alber Kamyu 1913-yil 7-noyabrda Jazoirning Mondovi nomli shaharchasida tug'ilgan. Asli elzaslik bo'lgan otasi Lyusen Kamyu qishloq xo'jalik xizmatchisi bo'lgan. Fransiyaning mustamlakasi bo'lgan Jazoir qo'nim topgan va ispan millatiga mansub qiz Kutrin Santega uylangan. Alber otasidan juda erta yetim qoladi. Otasi Birinchi jahon urushida halok bo'lganida u hali go'dak edi. Ota vafotidan so'ng Kamyular oilasi qiyin ahvolda qoladi. Onasi ikki go'dagi bilan buvisi va nogiron tog'asining uyiga ko'chib o'tadi. Og'ir bolalik xotiralari keyinchalik «Astar va qiyofa» va «Nikoh» asarlarida o'z ifodasini topgan. Maktabda u adabiyotga alohida qobiliyatini namoyon qiladi, maktab o'qituvchisi Lui Jerman uning litseyga o'qishga kirishiga ko'maklashadi. Kamyu o'qishga jon-dili bilan beriladi, ayni paytda boks bilan ham shug'ullanadi. Biroq sil kasalligi tufayli boksni tashlashga majbur bo'ladi (bu kasallik bo'lajak yozuvchi taqdirida chuqur iz qoldiradi).

Litsey ta'limini tamomlagach, mahalliy universitetning lalsafa-tarix fakultetiga o'qishga kirgan. Fakultetdagi tahsil jarayonida so'l yo'na-lishdagi gazetalar bilan hamkorlik qiladi 1936-yili sayyor teatr «Teatr de Travay» («Mehnat teatri») ni tashkil etadi.

Studentlik yillarida Jid, Dostoyevskiy, Nitsshe kabi mutalakkirlar ijodi bilan yaqindan tanishadi. Bu tanishuv Kamyu dunyoqarashining shakllanishida katta o'rin tutadi. U, ayniqsa, Dostoyevskiy ijodiga alohida muhabbat bilan qarar edi. O'zi boshchilik qilgan «Mehnat teatri» sahnalashtirgan «Aka-uka Karamazovlar» pyesasida Ivan Karamazov rolini ijro etgan.

Keyinchalik ekzistensializm oqimining yirik namoyandalari Kerkegor, Shestov, Xaydeggerlarning ijodini chuqur o'rganadi. Uni-versitet ta'limini «Xristian metafizikasi va neoplatonizm» mavzuida diplom ishi himoyasi bilan yakunlaydi. U Plotin falsafasini o'rganishni davom ettirishni niyat qilib qo'ygan edi, biroq sog'lig'i yomonligi (sil kasali) tufayli falsafa fanlari bo'yicha ilmiy daraja olish imtihonlarida qatnashish uchun ruxsat bermaydilar. Shundan so'ng ilmiy ishdan voz kechadi va poytaxt Madaniyat uyining boshlig'i vazifasida ishlaydi.

Studentlik yillarida kommunistlar partiyasiga a'zo bo'ladi, Jazoir musulmonlari ichida targ'ibot ishlari olib boradi, biroq tez o'tmay partiya safidan chiqadi va o'zini ijodga bag'ishlaydi.

30-yillar oxirida uning ilk nasriy asarlar to'plami e'lon qilinadi, birinchi romani «Baxtli o'lim» ni yozadi, «Sizif haqida asotir» falsafiy essesi ustida ish boshlaydi.

1938-yilda «Respublikachi Aljir» gazetasiga jurnalist sifatida qabul qilinadi, biroq Ikkinchi jahon urushi boshlanishi munosabati bilan undan ketadi. Tanishlari Kamyuga poytaxt gazetasi «Pari-Suar» da ishlashni taklif qiladilar va u birinchi marta Parijga keladi Ko'p o'tmay gazeta yopiladi va Kamyu Jazoirga qaytadi. U yerda «Sizif haqidagi asotir» asari ustidagi jshiga yakun yasaydi.

1942-yilda Kamyu ikkinchi marotaba Fransiyaga keladi. Yozuvchining bu palladagi hayoti juda qizg'in va ijodi sermahsul kechgan. Tabiatan hayotga fool aralashishga moyil bo'lgan Kamyu fashizmga qarshi milliy ozodlik harakatida ishtirok etadi, «Komba» yashirin tashkilotiga a'zo ho'lib kiradi, tashkilot gazetasiga muharrirlik qiladi, «Nemis do'stga maktublar» ni chop ettiradi. 1942-yil yozida qamal holatidagi Parijda «Begona» qissasi dunyo yuzini ko'radi, «Komba» gazetasida «Sizif haqida asotir» essesi bosiladi. 1947-yilda urushga qarshi dahshatli aybnoma bo'lgan «Vabo» romani nashr etiladi. Shu yillari qator pyesa, esse va qissalar ham yozadi.

1957-yilda Alber Kamyu «insoniyat oldiga bugungi kun muammolarini butun keskinligi bilan qo'yuvchi adabiy asarlarining ahamiyati uchun» Xalqaro Nobel mukofoti bilan taqdirlanadi. Alber Kamyuning hayoti kutilmaganda fojiali yakun topadi. 1960-yilning 4-yanvarida rojdestvo kunlaridan keyin Parijga kelayotib yo'lda avtomobil halokatida dunyodan ko'z yumadi. Yozuvchining o'limi butun G'arb san'at olamini larzaga soladi, u tiriklik chog'idayoq «G'arbnings isyonkor vijdoni» degan nom olgan edL Kamyuning buyuk zamondoshi, amerikalik yozuvchi Folkner bu o'lim munosabati bilan shunday yozadi: «Bu tinmasdan o'zini izlayotgan va tahlil qilayotgan qalb edi. Mashinasi daraxtga urilgan o'sha daqiqalarda ham u hamon o'zidan javob axtarar va talab qilar edi. O'sha so'nggi daqiqalarda u izlagan javobini topganmikin?»

Alber Kamyuning muxtasargina umri davomida yaratgan asarlari hayotlik chog'ida ham, vafotidan keyin ham jahon kitobxonlarini hayajonga solib kelmoqda, hanuzgacha turli-tuman qarashlar, o'y-mushohadalar, bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda.

Kamyu adabiyotdagi yangi yo'l izlovchi, tajribachi, kashfiyotchi adiblar sirasiga kiradi. Kamyu asarlari «tUsimini» ochish, uning ijodi mohiyatini anglab yetish uchun G'arb adabiyotidagi ijodiy metod va oqimlardan xabardor bo'lish lozim.

Alber Kamyu XX asrda vujudga kelgan ekzistensializm falsafani rivojlantirib, absurd falsafasiga (uni fransuz ateistik ekzistensializmi ham deb ataydilar) asos soldi. Uning asosiy falsafiy-estetik qarashlari «Sizif haqida asotir» asarida o'z ifodasini topgan. Sizif qadim yunon rivoyatlariga ko'ra xudoiar tomonidan hayotga bo'lgan cheksiz muhabbati uchun jazolanadi, abadiy qiynoqqa mahkum etiladi. U to'g'risidagi asotirlardan birida naql qilinishicha, Sizif o'limidan oldin o'z xotini muhabbatini sinab ko'rmoqchi bo'ladi. Shu maqsadda xotiniga jasadini hech qanday ma'rakalarsiz shahar maydoni o'rtasiga uloqtirishni buyuradi. Uning buyrug'i bajariladi. Tez orada soyalar saltanatida qayta tirilgan Sizif xotini g'ayriinsoniy itoatidan g'azabga minadi, u bunday shafqatsizlikni kutmagandi, bu shunchaki sinov edi. Plutondan ruxsat olib, yerga xotinini jazolash uchun keladi. Biroq shirin hayot lazzatini yana bir totib ko'rgach, zulmat dunyosiga qaytgisi kelmay qoladi. Qancha yalinish va do'q-po'pisalar ham uni ortiga qaytara olmaydi. Shunda xudoiar uni og'ir jazoga hukm qiladilar - Sizif ulkan xarsangtoshni tog' cho'qqisiga dumalatib olib chiqishi, manzilga yetgach esa xarsang yana ortga yumalashi, mahkum esa toshni qaytadan cho'qqiga eltishi va awalgi holat cheksiz takrorlanaverishi lozim.

Kamyu talqinicha Sizif - absurd qahramon. U foni dunyoga bo'lgan bemisl muhabbati va o'limga nafrati uchun shunday jazoga mustahiq. Bir turdagi bema'no va bemaqsad mehnatga majbur qilingan Sizif taqdirida Kamyu inson qismatini ko'radi. Uning mashaqqatli intilishlari, orzu-havaslarining oqibati puch, bema'ni - oxir-oqibat oldinda uni yo'qlik dunyosi, o'lim kutadi. Biroq absurd falsafasi tushkunlik, tarkidunyochilikni targ'ib qilmaydi. Naqadar bema'no, absurdligiga qaramasdan, inson uchun hayotga teng darajada qadrlil narsaning o'zi yo'q. U faqat bu hayot o'tkinchi ekanligini, inson har bir daqiqani sezib qadrlab yashashi, foni dunyo ne'matlariga o'ta ehtiros qo'yish noto'g'ri ekanligini uqtiradi.

«Begona» qissasi 1940-yilda yozib tugatilgan, 1942-yilda dunyo yuzini ko'rgan. Qissa XX asr fransuz adabiyotining, aniqrog'i, «Kamyu aviodining eng yaxshi asari», «asr san'atidagi eng yirik falsafiy asotirlardan biri» deya baholangan. Yaratilganiga 60 yildan ko'p bo'lganiga qaramay

«Begona» hanuz Fransiyada eng sevib o'qiladigan asarlardan hisoblanadi. Qissa vatanidagina emas, jahonning ko'plab mamlakatlarida ham shuhrat qozongan.

Bir qarashda asar qahramoni jazoirlik oddiy xizmatchi Mersoning hayoti boshqalarnikidan uncha farq qilmaydi - el qatori ishlaydi, dam oladi, kundalik ikir-chikirlar bilan band kun kechiradi. Biroq ayni paytda qissaning ilk satrlaridanoq Mersoni boshqalardan ajratib turuvchi jihati ham namoyon bo'la boshlaydi. U o'ta rostgo'y, munofiqlikni bilmaydigan va o'zgalar u haqda nima o'ylashlari bilan qiziqmaydigan shaxs. Asar voqeasi Mersoning onasi o'limi haqidagi telegranunani olishidan boshlanadi. Merso xatning rasmiy mazmunini uncha anglamaydi, chunki onasi uning uchun ilgariroq, qariyalar uyiga joylaganida o'lgan edi. Shu sababli bu sovuq xabarni bir qadar loqayd qabul qiladi.

Onasini ko'mish uchun qariyalar uyiga kelganda ham Merso, odatda, azada bo'ladigandek o'zini iztirob chekayotgan kishi qilib ko'rsatishga urinmaydi. Faqat uni onasini qariyalar uyiga joylagani uchun ayblashlari mumkinligini elas-elas payqab, o'zini oqlamoqchi bo'ladi, biroq qariyalar uyi direktori: «Siz uni boqolmas edingiz. U qarovga, hamshiraga muhtoj bo'lgan. Sizning maoshingiz ham o'zingizga yarasha», deb uni bundan xalos qiladi.

Dafn marosimi paytida Merso ko'proq jismoniy noqulayliklarni his qiladi - u tuni bilan uxlamagan, bulling ustiga kun issiq... Ayni damda uning tuyg'ulari azaga kelganlarning rasmiyatchiligiga qaraganda haqiqiyroq. Merso burchini ado etmoqda, biroq o'zining befarq holatini yashirishga harakat qilmaydi.

Onasini ko'mgan kunning ertasiga uyiga qaytgan Merso dengizga cho'milishga boradi, u yerda oldin birga ishlagan va o'zi yoqtirgan qiz Marini uchratadi. Ikkovi birga suzishadi, kinoga borishadi, xursandchilik qilishadi...

Qahramonning hayoti shu tarzda davom etadi. Uni mansab, obro', boylik ham uncha qiziqitirmaydi. Boshlig'i Parijda yaxshi lavozimni taklif qiladi, Merso esa unga baribir ekanligini aytadi.

Barcha intiladigan, qabul qilgan va bo'ysunadigan tushunchalarga befarq bo'lgan Merso jismoniy hissiyotlarga nisbatan ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Jumladan, turmush hodisalarini sovuqqon sharh-laydigan qahramon tabiat tasvirida shoirona tilda so'zlay boshlaydi, go'yo borliqning ajralmas bir qismiga aylanadi.

Mersoning bir maromdagi sokin hayotida kutilmagan hodisa ro'y beradi, u jinoyatchi - qotilga aylanadi. Jinoyat chindan ham tasodifan ro'y beradi. Do'sti Raymon va Mari bilan Raymonning dengiz sohilida yashovchi oshnasinikiga cho'milishga borgan Merso kichkina dilsiyohlikka duch keladi. Raymonning raqibi arab bilan to'qnashuv ro'y beradi. Bu uncha ahamiyatli bo'lmagan janjal tinchigach, uning kayfiyati buziladi. Qumloqda yolg'iz kezib yurgan Merso quyoshning ayovsiz issig'iga dosh berolmaydi va muhbm kayfiyatga bo'ysunib qarshisidan chiqib qolgan arabni sababsiz otib tashlaydi. Bu o'rinda ham qahramonga xos bo'lgan ruhiy hissiyotlarga befarq bo'lsa-da, jismoniy hissiyotlarga nisbatan o'ta sezuvchanlik xususiyatini ta'kidlash lozim. Ramziy ma'noda quyosh Mersoning jallodiga aylanadi, uni qotillikka undaydi.

Qissaning ikkinchi qismi Mersoning erkinlikdan mahrum qilingan holati va sud jarayoni tasviridan iborat. Qamoqxona muhiti ham biz kitoblarda o'qigan, filmlarda ko'rgan hayotdan farq qiladi. Bu yerda mahbusga nisbatan birorta g'ayriqonuniy harakat kuzatilmaydi, uni qiynash, dag'al muomalada bo'lish, hamxona mahbuslar tomonidan kaltaklanishi kabilarni ko'rmaymiz. Ayni payta Merso qamoq azobini o'zicha his qiladi, eng og'ir qiynoq - bu erksizlik ekanligini anglab yetadi, ya'ni qumloq sohilda cho'zilib yotish, cho'milish, ayol visoli, chekish kabi oddiy ehtiyojlardan mahrum qilinishi uni azoblaydi. Chunki bular Merso uchun juda qadrli. Mersoning Mari bilan qamoqxonadagi uchrashuvi, Marining qiynoqli suratdek tabassumi, ularning atrofida qilarning holati, ona va jinoyatchi o'g'ilning bir-biriga unsiz termulishi, turfa tabiatli odamlar tasviri qissaning eng ta'sirli epizodlaridan. Ushbu bir qarashda hissiz, qahramon tabiatiga mos xolis, befarq tasvir insoniy fojialar, yashirin hissiyotlarni o'ziga singdirib olgan.

Sud jarayoni lavhasi Merso tabiati, shaxsining o'ziga xosligini, uning fojiasi va g'alabasini yorqin namoyon qiluvchi epizodlardandir.

Sud qilinayotgan Merso atrofida gilar uchun begonaligicha qolaveradi. Sud hakamlari uning xatti-harakatlarini o'zlari istagancha tushunadi va talqin qiladi Tergovchi va advokatning jinoyatchi haqidagi fikr va hukmlari bir qarashda bir-biridan keskin farq qiladi. Merso esa ular o'rtasida deyarli farq yo'q deb biladi. Zero, Mersoni haqiqiy jinoyati - odam o'ldirgani uchun emas, barcha ko'nikkan, kishilar o'ylab chiqargan axloq-odob tushunchalariga loqaydligi, munofiqlik qilishni istamagani uchun sud qiladilar. Tergovchi uning jinoyatini ta'kidlash uchun onasini ko'mish marosimida yig'lamagani, ertasi kuni Mari bilan ko'ngil ochgani, film tomosha qilgani kabilarni dalil sifatida keltiradi, uni ma'naviy majruhga chiqarib qo'yadi. Advokat esa halol inson ekanligi, yaxshi xizmatchiligini ta'kidlab, uni himoya qiladi, dafn marosimi haqida esa ishni buzib qo'yuvchi fakt sifatida ataylab so'z ochmaydi. Mohiyatan ularning har ikkisinin dalillari bema'no, absurd xarakter kasb etadi. Aslida insonning qalb dunyosi daxlsizdir, uni o'y-fikri, xayollari, tuyg'ulari uchun ayblashga boshqa insonning haqqi yo'q.

Onasini sevish-sevmasligi, azada rasmiyatchilik uchun dod solib yig'lamasligi Mersoning o'zigagina havola. Uni sudda xudoga ishonmaganligi uchun ham ayblaydilar. Qahramon bu masalada ham o'zligiga sodiq, u faqat mavjud, ko'rish, his qilish mumkin bo'lgan narsalargagina ishonadi, boshqa narsalar uning uchun o'z ma'nosini yo'qotgan. Inson qismatiga oxir-oqibat o'lim yozilgan ekan, u ehtiros va e'tiqod qo'ygan barcha narsalar bema'ni yupanch, aldovga aylanadi.

Merso awalroq ana shu xulosaga kelgan. Tevarak-atrofida ro'y berayotgan hodisalar, uning jamiyatga begonaligi, unitushunmasliklari faqat shu xulosasini tasdiqlash uchun xizmat qiladi. Albatta, qotillik qilgan odam jazolanishi kerak. Lekin Mersoning eshafotga jo'natilishi, olomon oldida kallasi tanidan judo qilinishga hukm etilishida qandaydir adolatsizlik borligini his etasiz. Yozuvchi ham kitobxonda shu taassurotni uyg'otishga intilgan. Odamlar tomonidan o'ylab chiqilgan omonat axloqiy tushunchalar, rasmiyatchilikning qudratli mexanizmi Mersoni jismonan mahv etadi, jamiyat Mersoni qotilligi uchun emas, barchaga o'xshamagani uchun kechirmaydi va o'limga mahkum etadi. Merso munofiqlik qilishi, tavba-tazarru qilib afv so'rashi mumkin edi. Biroq u o'zi tanlagan yo'lga sodiq qoladi, bu foni dunyoning odamlar o'ylab chiqargan shaxs erki, mayliga zid, sun'iy, omonat tartib-qoidalari absurd, bema'nilikdan iborat deb biladi. O'zligiga, ko'ngil haqiqatiga sodiq qolib bu dunyodan ketayotganidan taskin topadi.

Alber Kamyu yaratgan bu g'aroyib qahramon va ajoyib qissa ustidagi bahslar hali uzoq davom etaveradi, kitobxonni hayot va inson haqida o'ylashga, mushohada yuritishga chorlayveradi.

16-MAVZU:HOZIRGI ADABIY JARAYON

Reja:

1. Jahon adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon.
2. Paulo Koelo hayoti va ijodi.

Adabiyotlar:

1. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kkuch. T., Ma'naviyat, 2008.
2. Alimuhamedov N. "Antik adabiyot tarixi". T.: "O'qituvchi". 1975 yil.
3. Sulaymonova F. "Sharq va G'arb". T.: "O'zbekiston". 1997 yil.
4. Kun N.A. "Qadimgi Yunoniston afsona va rivoyatlari". Toshkent. 1983 yil.
5. Mahmudov M. "Hayrat va tafakkur". Toshkent. G'.G'ulom. 1990 yil.
6. Sh. Normatova. Jahon adabiyoti. T., Cho'lpon, 2008.

Hozirgi globallashuv davrida jahon adabiyotida kechayotgan jarayonlaiga nazar tashlasak, dunyo xalqlari adabiyotida umuminsoniy muammolar, g'oyalar mushtarakligini kuzatishimiz mumkin. Xalqlar adabiyotlari o'rtasidagi tafovutlar yo'qolib bormoqda, badiiyat mo'jizalari dunyo kitobxonining umumiy ma'naviy bisotiga aylanmoqda. Kompyuter asrida hozirgi kun kitobxoni jahon badiiy tafakkuri yaratgan irod namunalari bilan tanishishning beqiyos imkoniyatlariga ega. Shu sababli ham malum millat adabiyotida shakl bobida qilingan kutilmagan tajribalar, kashfiyotlar jahon kitobsevarlari tomonidan birdek qabul qilinmoqda.

Hozirgi adabiy jarayonning muhim xususiyati using mafkuradan xoli ekanligi, irodkor istaganicha yozish, istagan yo'lni tanlash huquqiga ega ekanligidadir. Unda XX asr adabiyotidagi xilma-xil tamoyillarning belgilarini ko'rishimiz mumkin, ayni paytda eski adabiyotdan tamomila farqlanuvchi jihatlar ham mavjud.

XX asr so'ngida badiiy yo'nalishlarning shiddat bilan o'zgarishi va yangilanishi jarayoni ko'zga tashlanadi Eskirgan nazariy qolip va tushunchalarning yemirilishi natijasida irodkorlar oldida yo'l izlash, yangi-yangi shakllarni kashf etish muammosi paydo bo'ldi Adabiyot izlanishlar pallasiga kirdi, yangi asr adabiyoti bugungi murakkab davrda yashayotgan insonning hayotini yengillashtiradigan, unga mazmun baxsh etadigan konsepsiya axtarmoqda. Inson va dunyo haqidagi qaiashlar xilma-xilligi adabiy yo'nalishlarning rang-barangligini ham belgilaydi. Hozirgi adabiy jarayonda ikki yo'nalish yondosh holda rivojlanmoqda -modernizm va realizm. Har ikki yo'nalish o'z an'analarini davom ettirib va boyitib bormoqda. O'z navbatida ushbu yo'nalishlar ichida ham turli oqimlar mavjud. Modernizm ichida syurrealizm, ekspressionizm, ekzistensializm va h.k., realizm ichida tanqidiy realizm, intellektual realizm... Hozirgi kun adabiyoti turli adabiy oqimlarga bag'ri ochiqligi bilan ahamiyatli, yozuvchilar ham ixtiyoriy yo'l tanlashda o'zlarini erkin his etadilar.

Bugungi adabiyot uchun xos bo'lgan yana bir xususiyat sifatida ommaviy adabiyotning keng qulooh yozishi va ayni paytda elitar adabiyotning rivojlanishini ko'rsatib o'tish lozim. Ommaviy adabiyot rivoji sarguzasht-detektiv asarlarga, maishiy romanlarga bo'lgan ehtiyojning ortishi, bunday kitoblarning keng tarqalishi, ular o'quvchisining ko'pligida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga faqat san'atni tushunuvchilar, yuksak didli kitobxonlar uchun mo'ljallangan adabiyot ham o'sishdan to'xtagani yo'q.

Zamonaviy Amerika adabiyoti misolida ham uslub, shakl, mavzu bobidagi rang-baranglikni kuzatish mumkin. Amerikalik adabiyot-shunos Ketrin Vanspenkeren, jumladan, shunday yozadi: «Amerika adabiyotida Uilyam Kennedining «Temir yowoyi o't», «Juda qarilar» asarlari Nyu-York shtati poytaxtining ko'cha va salonlarida yashov-chilarning hayotini xazin va bo'g'iq ohan'ila tasvirlashi bilan rom etadi.

Dahshatli badiiy adabiyot sohasida bestsellerlar ustasi Stiven King asarlari ham mashhur. Badiiy adabiyot sohasida Puliser mukofotini olgan Jeyn Smayli mumtoz adiblar an'analariga qaytadi, «Ming ark» asarida Shekspirning «Qirol Lir» sujetini AQSH ning O'rlag'arb fermasiga ko'chirib, qarigan fetmer o'z yerini uchta qiziga bo'lib berishga qaror qilganda alanga olgan keskin oilaviy mojaroni tasvirilaydi. Yangi avlod vakili bo'lgan adib Makkorl o'z romani («Xushchaqchaq yetakchi») va qisqa hikoyalarida o'smirlar hayotini aks ettiradi, Wirjiniya tomon» asarida avlodlar

orasidagi munosabatlar tasvirlansa, «Shovqin-suronli diyeta» asarini hozirgi zamon janublik ayollarning ehtirolarini kashf etishga bag'ishlaydi».

Oldin qoloq, mustamlaka, rivojlanayotgan davlatlar qatoriga kiritilgan mamlakatlar siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Awallari folklor darajasida bo'lgan ba'zi adabiyotlar XX asr oxiri - XXI asr boshiga kelib umumjahon miqyosiga ko'tarildi va jahon adabiy jarayoniga uning ajralmas qismi sifatida qo'shildi.

Braziliya adabiyotining namoyandasi Paulo Koelo nomi XXI asr kitobxoniga juda yaxshi tanish.

Paulo Koelo - dunyoning eng ko'p o'qiladigan va nihoyatda o'ziga xos yozuvchilaridan hisoblanadi. Uning asarlari 55 tilga tarjima qilingan, bugungi kunga kelib dunyoning 40 mamlakatida 210 ta tarjimasi 43 million nusxada sotilgan.

Paulo Koelo 1947-yili Rio-de-Janeyroda muhandis oilasida tug'ilgan. Uning yoshlik yillari murakkab va ziddiyatlarga to'la tarzda kechdi. Isyonkor tabiatli yigitcha hayotning turli chorahalariga kirib chiqdi -xippi ham bo'lib ko'rdi, Braziliyaning mashhur rok yulduzlari Elis Regina va Raul Seiksas uchun qo'shiq matnlari yozdi. Keyinchalik jurnalistika bilan shug'ullandi, teatr rejissurasi va dramaturgiya sohasida ham o'zini sinab ko'rdi.

1986-yilda Santyago yo'lini ziyorat qilishga qaror qildi. Bu yo'l qadimgi ispan ibodat-ziyosat yo'li edi. 1987-yili ana shu safar taassurotlari asosida "Ziyorat" romanini yozdi.

Oradan ko'p o'tmay Paulo Koeloga olamshumul shuhrat keltirgan "Alkimyogar" romani dunyo yuzini ko'radi. 1988-yilda yozilgan bu roman tadqiqotchilar tomonidan o'ziga xos betakror hodisa sifatida baholanadi. Keyinchalik ketma-ket yozuvchining "Brida" (1990), "Varkirilar" (1992), kundaliklar asosida yozilgan "Maktub" (1994), "Pedra daryosi sohilida o'tirib ko'z yosh to'kardim" (1994), "Beshinchi tog'" (1996), "Yorug'lik jangchisi kitobi" (1997), "Payg'ambarning ishqiy maktublari" (1997), "Veronika o'lishga qaror qildi" (1998), "Iblis va senorita Prim" (2000), "O'talar, o'g'illar va bobolar" (2001) asarlari chop etildi.

Paulo Koeloning asarlari keyingi o'n yil davomida dunyoning eng ko'p o'qiladigan kitob – bestselleridan sanalib kelinadi. Fransuz jurnali "Lire" Paulo Koeloni "asarlari dunyoda eng yaxshi savdo qilinadigan ikkinchi muallif" deya ta'riflagan. Angliyaning "Times" jurnali yozuvchining kitoblarini "millionlab kitobxonlar taqdirini o'zgartirishga qodir" deb hisoblaydi. Tanqidchilik, ayniqsa, yozuvchining realizm, falsafiylik va ramziylik uyg'un uslubiga, musiqiy tiliga, hissiyot va qalbga ta'sir o'tkazuvchi tasvir tarziga yuksak baho berdi.

Paulo Koelo jamiyat ijtimoiy hayotida ham faol ishtirok etadi. U asos solgan Paulo Koelo jamg'armasi Braziliyaning qashshoq aholisi, ayniqsa, bolalar va keksalarga moddiy ko'mak ko'rsatish bilan shug'ullanadi.

Paulo Koelo YUNESKO ning "Ma'naviy qadriyatlar uyg'unligi va intellektual muloqotlar" dasturining maxsus maslahatchisi, shuningdek, ijtimoiy tadbirkorlik masalalari bilan shug'ullanuvchi Shvab jamg'armasi boshqaruvining a'zosi.

Paulo Koelo 1979-yilgi Eron Islom inqilobidan so'ng mazkur mamlakatga taklif qilingan birinchi nomusulmon yozuvchidir.

2002-yil 25-iyulda Paulo Koelo Braziliyaning nufuzli qo'lyozmalar akademiyasining a'zoligiga qabul qilindi. Bundan 104 yil muqaddam tashkil qilingan ushbu akademiya 40 a'zoga ega muassasa bo'lib, portugal tili masalalari bilan shug'ullanadi.

Paulo Koelo Germaniya, Italiya, Fransuz, Ispaniya, Irlandiya, Yugoslaviya kabi mamlakatlarning bir necha nufuzli mukofotlari bilan taqdirlangan. Xo'sh, yozuvchiga bu qadar katta shuhrat keltirgan "Alkimyogar" qanday asar?

Roman boshdan oyoq ramzlar asosiga qurilgan. Ular ostidagi tagma'noni fahmlash talab qilinadi. "Alkimyogar" ni ajoyib ibratli ertak deb ham atashadi. Chindan ham roman sujeti ertakni yodga soladi. Biroq ilk satrlardanoq bu oddiy ertak emasligini payqab olasiz. U haqda shakli sodda bo'lsa ham, tagma'no kuchli degan odatdagi ta'rif ham uncha mos emas. Shakl ham kutilmagan sehrga va ko'rinmas qudratga ega, buni g'ayrushuriy tarzda anglamaslikning iloji yo'q. Yozuvchi ramziylikdan reallikka juda erkin ko'chadi, voqealar xayoliy bo'lsa ham, tuyg'ular o'ta insoniy va tabiiydir. Roman qahramoni Santyagoning sayohati bilan bog'liq voqealar asosida yotgan mazmun

– inson taqdiri tushunchasidir. Koelo talqiniga ko'ra inson baxt uchun tug'iladi. Taqdirning qora yoki yorug' bo'lishi uning o'ziga bog'liq. O'zining taqdiridan chekinganlar o'z baxtlari nima ekanligini anglab yetmaganlardir. Koelo tushunchasidagi Taqdir Xudo tomonidan insonga buyurilgan, umri mobaynida ado etishi lozim bo'lgan majburiyat, har bir inson bosib o'tadigan o'z yo'li. Agar inson har safar biror amalni quvonch va xafsala bilan bajarar ekan, o'z taqdiriga mos ish tutgan bo'ladi. Biroq ulug' orzu-niyatlarga yetish uchun taqdir yo'lidan matonat bilan o'tish darkor.

Asar qahramoni Santyago ana shu yo'lda sabot bilan mashaqqatlarni yenggani uchun o'z taqdiriga erishadi.

Paulo Koeloning keyingi romani "Beshinchi tog'" da ushbu fikr rivojlantiriladi. Bu asar Ilyos Payg'ambar haqida. Yozuvchi Injil rivoyatlariga tayangan, Ilyos kechmishlariga oid asosiy tafsilotlarni saqlagan holda undan-da go'zalroq, boyroq sujet, to'laqonli xarakter yaratgan.

Ilyos Olloh tomonidan payg'ambar qilib tanlangan, u Ollohnning amallarini insonlarga yetkazishi lozim. Ilyos taqdiriga bo'ysinadi, zimmasidagi burchni ado etadi. Yaratganni dildan qo'ymaydi, eng og'ir daqiqalarda uning ko'magidan bahramand bo'ladi. Biroq taqdir yo'li oson emas. Olloh buyurgan yo'lga xiyonat qilmasa ham u ketma-ket azoblarga, ayriliq va judoliklarga duch keladi. Ilyos urushning oldini olishi kerak edi, bunga jon-jahdi bilan harakat qiladi, biroq uning urinishlari bekor ketadi, ojiz bandalar uning zorlanishlariga quloq solmaydilar, shunda u Yaratganga murojaat etib dahshatli qirg'inbarotning oldini olishni so'raydi. Biroq qudratli Tangri bandalarining qalbidagi jaholatni sug'urib olmaydi, ular dahshatli sinovga giriftor etiladi. Chunki ularning qalblari uyquda, quloqlari Yaratganning so'zlari uchun berkitilgan. Ilyos endi xudodan faqat bir narsani – uning hayotiga yorug'lik bag'ishlab turgan mushtipar, sevimli ayolini omon qoldirishni so'raydi. Biroq uning bu tilagi ham amalga oshmaydi. Olomonning va hukmdorlarning johilligi bu pokiza, mushfiq ayolni ham mavh etadi.

Ilyos o'z yo'lini o'zi tanlashi lozim bo'lgan vaqt kelganini tushunadi. Qalbini hatto Olloh uchun ham yopadi. Endi u faqat o'ziga ishonadi, qalbi buyurganini qiladi. Kultepaga aylangan Akbar shahrini qirg'inbarotdan omon qolgan bir necha zaif qariya, ayollar va bolalar ko'magida qayta tiklaydi, u yerda yana hayot boshlanadi, odamlarda kelajakka umid va ishonch uyg'onadi. Shunda uning qalbida yana Olloh nuri paydo bo'ladi. U yana o'z farishtasini Ilyos bilan muloqotga yuboradi. Ilyos shuni tushunib yetadiki, Olloh uning tavallolarini eshitmagani, tilaklari ro'yobga chiqmagani ham aslida bir sinov ekan. Olloh sinovga bardosh berganlar bilan hamisha birga ekan Bu asarda ham inson o'z taqdiri uchun o'zi kurashishi kerak, yozug'im shu ekan, deya bo'ysunganlar shunga loyiq taqdirga mustahid, degan g'oya ilgari suriladi.

Paulo Koelo asarlarini har bir kitobxon o'zicha kashf qiladi, ayni paytda unda ko'tarilgan masalalar butun insoniyatga taalluqli – bugungi zamin kishisi dardlari, orzu-intilishlarini aks ettiradi. "Mabodo o'zga sayyoralardan tasodifan bizning yerimizga kelgindilar uchib kelib qolishsa, ular Paulo Koeloning atigi bitta kitobi "Alkimyogar" ni oqibat bizni tushuna oladi" deb yozadi mashhur frantsuz rejissyori Klod Lelush.